

Ўзбекистон Республикаси ИИВ

Малака ошириш институти

# АХБОРОТНОМАСИ

№ 1 (16) 2026

Тошкент – 2026

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИИВ МАЛАКА ОШИРИШ  
ИНСТИТУТИ АХБОРОТНОМАСИ**

Илмий-амалий, маънавий-маърифий ва сиёсий-ҳуқуқий журнал

<b>Бош муҳаррир:</b> Олимжон АҲМЕДОВ	<b>Муассис:</b> <i>Ўзбекистон Республикаси ИИВ Малака ошириш институти</i>
<b>Жамоатчилик Кенгаши таркиби:</b> Нуриддин НОРМАТОВ Баҳодир МАТЛЮБОВ Диёр САТТОРОВ Умидбек НУРУЛЛАЕВ	<b>2026 йил – МАҲАЛЛАНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА ЖАМИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ ЙИЛИ</b>  Мақолалар ўзбек, рус ва инглиз тилларида, лотин, кирилл ёзувида чоп этилади. Мақолаларда келтирилган иқтибослар, далиллар, рақамлар ва маълумотларнинг аниқлиги учун муаллиф жавобгардир. Журналдан кўчириб олинган манба кўрсатилиши керак.  *** <i>Ўзбекистон Республикаси ИИВ Малака ошириш институти Ахборотномаси Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 20 майда №1630-сонли гувоҳнома билан рўйхатдан ўтган.</i>
<b>Ҳайъат аъзолари:</b> Олимжон АҲМЕДОВ Улуғбек РАСУЛЕВ Баҳодир УЛУҒБЕКОВ Карим НОРМАТОВ Жўрабой ТОШҚУЛОВ Фарход ХАТАМОВ Музаффар ТОЖИБОЕВ Меҳмонали СУВАНҚУЛОВ Эркинжон МАРУПОВ	<i>Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги “Малака ошириш институтининг Ахборотномаси” илмий-амалий журнали 2023 йил 15 июнда ОАК раёсатининг 339/6-сон ҳамда 2024 йил 28 июндаги ОАК Раёсатининг 356/5-сон қарорларига асосан юридик ва тарих, сиёсий ва фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ва фан докторлари (DSc) илмий даражасига талабгорларнинг диссертация ишлари асосий илмий натижаларини чоп этиши тавсия этилган миллий илмий нашрлар рўйхатига киритилганлигини маълум қилади.</i>
<b>Таҳририят:</b> <b>Масъул муҳаррир:</b> Карим НОРМАТОВ <b>Саҳифаловчи:</b> Маъруф РАҲМОНОВ <b>Мусаҳҳих:</b> Роза ҚУРБОНОВА <b>Дизайнер:</b> Нурмахан ТАСИМОВ	

**БОШ МУҲАРРИР МИНБАРИ**

Жорий йил – тинч ва осойишта, барқарор қатъий ривожланиш йили бўлиб, тарих саҳифаларига битилмоқда. Биринчи квартал шонли мозий воқеа-ҳодисаларига чунонам бойки, ҳатто санаб улгуролмаймиз!?

Мавлоно Алишер Навоий ва саркарда шоҳ Заҳриддин Муҳаммад Бобурнинг феврал ойида қутлуғ таваллудлари... Халқаро хотин-қизлар байрами, Наврўзи олам ҳамда Маҳалла куни шод-хуррамлиги шунчалик ардоқли эканини Малака ошириш институтимиз профессор-ўқитувчилари, тингловчилар ҳамда малакасини ошираётганлар учун давлатимиз раҳбарининг: *“Эл-юрт манфаати учун курашиб яшаш – энг олий саодатдир”*, деган сўзлари ҳамда юксак талаблари: *“Ички ишлар ходимлари шундай ишлашлари керакки, токи халқ давлатдан рози бўлсин”!* атамасини шиорга айлантирган ҳолда янги Ўзбекистондаги ислоҳотларга уйғун фаолият юритишга интилмоқда.

Мазкур жиҳатлар қонунбузарликларнинг олдини олиш ва жиноятчиликка қарши курашишга оид кўрсаткичларда яққол акс этмоқда.

Дарвоқе, бу муқаддас ишларни оқилона амалга оширишда оила ва жамиятда тинчлик-тотувлик ҳамда ўзаро меҳр-оқибатни мустаҳкамлаш, эзгулик ва адолатни қарор топтириш учун кўпни кўрган отахон ва онахонларимиз дуолари, институт аҳил жамоаси, *“маҳалла еттилиги”*, фаол фуқароларимиз яқиндан иштирок этишида камарбастамиз.

*Долзарб мавзулар***ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ  
ШАВКАТ МИРЗИЁЕВНИНГ ХАЛҚАРО ХОТИН-ҚИЗЛАР КУНИГА  
БАҒИШЛАНГАН ТАНТАНАЛИ МАРОСИМДАГИ НУТҚИ**

**Ассалому алайкум, мухтарама онахонлар, кадрли опа-сингиллар, дилбар қизларим!**

Сизларни, бутун Ўзбекистон аёлларини 8 март – Халқаро хотин-қизлар куни билан чин қалбимдан самимий муборакбод этаман. Инсон ҳаётини, жамият тараққиётини хотин-қизларсиз, уларнинг эзгу фазилатларисиз тасаввур этиб бўлмайди.

Биз сизларнинг тимсолингизда Учинчи Ренессанс бунёдкори бўлиб майдонга чиқаётган 22 миллионлик ёш авлодни оналик меҳри билан тарбиялаб, вояга етказган буюк бир кучни кўрамиз.

Сизлар тадбиркор, олим, муаллим, шифокор, муҳандис, давлат ва жамоат арбоби, бир сўз билан хонадонларимиз фариштаси, оила ва жамият таянчи, десак, айна ҳақиқатни айтган бўламиз.

**Азиз опа-сингиллар!**

Биз юртимизда хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва манфаатини таъминлаш, муаммоларини ҳал қилиш бўйича мутлақо янги тизим яратдик. Барча қонун, фармон ва қарорларни қабул қилишда гендер масаласи бўйича ҳуқуқий механизмлар жорий этилди.

Энди хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва манфаатларига таъсири баҳоланмай туриб бирорта қонун қабул қилинмайди.

Яратилган кенг имконият ва шароитлар ҳисобига 230 мингга яқин тадбиркор аёллар синфи шаклланди, миришкор фермер аёлларимиз 12 минг нафарга етди, илм-фан ривожига улкан ҳисса қўшаётган олималаримиз 6 минг нафардан ошди.

Ўтган йили дунё спорт ареналарида шижоатли қизларимиз 167 та олтин, 193 та кумуш, 243 та бронза медалини қўлга киритгани таҳсинга сазовордир.

Хотин-қизларимиз ҳаётидаги ана шундай катта ўзгаришлар дунё ҳамжамияти томонидан эътироф этилмоқда. Хусусан, Ўзбекистон

Парламентлараро иттифоқнинг “Парламентдаги аёллар” рейтингида 92 поғона юқорилаб, 36-ўринни эгаллади; “Гендер тенглик ва бошқарув” индексида 103-ўридан 52-ўринга кўтарилди; Жаҳон банкининг “Аёллар, бизнес ва қонун” ҳисоботида эса ўз позициясини 43 поғонага яхшилаб, 48-ўринга чиқди.

Фурсатдан фойдаланиб, турли соҳалардаги меҳнати, истеъдоди ва ақл-заковати билан Янги Ўзбекистонни барпо этишга муносиб ҳисса қўшиб келаётган аёлларимизга, халқаро майдонларда Ватанимизни дунёга тараннум этаётган қизларимизга, уларнинг ота-оналари, устоз ва мураббийларига самимий миннатдорлик билдираман.

### **Ҳурматли анжуман иштирокчилари!**

Аёлларни ишли ва даромадли қилиш масаласи ҳамиша эътиборимиз марказида бўлиб келмоқда. Ўтган йили хотин-қизлар бандлигини таъминлаш ва уларни тадбиркорликка жалб этиш мақсадида 23,5 триллион сўм кредит йўналтирдик. Бунинг ҳисобидан 425 мингдан ортиқ опа-сингилларимиз тадбиркорликка жалб қилинди.

Мисол учун, тўқимачилик соҳасида 300 нафар аёлларни банд қилган янгиариқлик Наргиза Бекмуратова ўтган йили иккинчи фабрикасини очиб, яна 100 та иш ўрни яратди. Ушбу ишбилармон қизимиз 2025 йилда Анқара шаҳрида ўтказилган халқаро танловда “Хотин-қизлар учун энг кўп иш ўрни яратган тадбиркор аёл” номинацияси ғолиби бўлди.

Мен бундай серғайрат қизларимизни Янги Ўзбекистон бунёдкорлари, деб биламан. Уларни ҳар қанча қўллаб-қувватлашга тайёрман. Шу боис бу йил 166 минг нафар хотин-қизлар замонавий касб ва тадбиркорликка, яна 100 минг нафари ИТ соҳасига ўқитилади.

Шунингдек, опа-сингилларимизга ўз уйида тадбиркорлик қилиши учун “Даромадли аёл” дастурини бошлаймиз. Бу орқали лидер тадбиркорлар кўмагида касаначилик, хунармандчилик, паррандачилик, асаларичилик ва томорқачилик йўналишларида 50 минг нафар аёлнинг бандлиги таъминланади.

Бундан ташқари, “Ҳамроҳ” дастури доирасида хотин-қизларнинг 3 мингта лойиҳасига жами 1 триллион сўм ажратилади.

Умуман, жорий йилда 1,5 миллион нафар аёлни даромадли қилиш, шундан 400 минг нафарини бизнесга жалб этиш бўйича катта марра

олганмиз. Ушбу мақсадлар учун 25 триллион сўмдан зиёд ресурс йўналтирилади. Бош вазир ўринбосарлари Ж.Қўчқоров, З.Маҳкамova, Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазири Б.Зоҳидов, Марказий банк раиси Т.Ишметов, вилоят ҳокимлари бу ишларга масъул бўлади.

### **Қадрли юртдошлар!**

Бугун олийгоҳда ўқиётган қизларимиз сони 904 мингдан ошиб, жами талабаларнинг 54 фоизини ташкил этмоқда.

Ўтган йили 60 нафар қизимиз дунёдаги энг нуфузли олийгоҳларга ўқишга киргани албатта барчамизни қувонтиради.

Стажёр-тадқиқотчилар ва докторантурада таҳсил олаётганларнинг 8,5 минг нафари, яъни, 61 фоизини хотин-қизлар ташкил этаётгани ҳам эътиборлидир.

Бугунги анжуманимизда қатнашаётган қизларимиз – Кегейли туманидан Индира Сатниязова, бухоролик Вазира Файзуллаева, навоийлик Машҳура Қудратованинг халқаро фан олимпиадаларида эришган ютуқларини ҳамда бир қатор халқаро стартап танловлари ғолиби бўлган бувайдалик Дилафрўз Жўрабоева нуфузли “Microsoft” компаниясининг Ўзбекистондаги элчиси сифатида эътироф этилганини ҳам алоҳида таъкидлаш лозим.

Янги ўқув йилидан бошлаб эҳтиёжманд оилалардаги аёлларимиз учун давлат гранти квотасини 2 карра ошириб, 4 мингтага етказамиз.

ТОП-300 таликдаги олийгоҳлар билан қўшма таълим асосида магистратура босқичида таълим олаётган талаба қизларнинг контракт пуллари ҳам давлат томонидан тўлаб берилади.

Энди ҳар йили хотин-қизларнинг инновацион ғояларини қўллаб-қувватлаш учун камида 10 та йўналиш бўйича стартап танловлари ўтказилади. Бунда ҳар бир йўналиш ғолибига Инновация жамғармасидан 500 миллион сўмгача грант берилади. Мактабларнинг 11-синфини битириб, давлат техникумларига кирган қизларни касбга ўқитиш тўлиқ давлат гранти асосида бўлади.

Ўйлайманки, бу ташаббуслар хотин-қизларимиз учун янги имкониятлар эшигини очиб беради.

**Азиз дўстлар!**

Аёллар ва болаларга нисбатан тазйиқ ва зўравонликка қарши мурасисиз муҳит яратиш – биз учун стратегик вазифа. Шу ҳафтада яна бир муҳим Фармонни имзоладим. Энди хотин-қизлар ва болаларга нисбатан ҳар қандай зўравонлик ва тазйиқ ҳолатларига қарши қатъий тизим асосида кураш олиб борамиз.

Яна бир муҳим масалага тўхталмоқчиман. Бугунги кунда жазони ижро этиш муассасаларида 2589 нафар аёл жазо муддатини ўтамоқда.

Турли сабабларга кўра, билиб-билмай жинойтга қўл урган ушбу аёллар ҳам шу юртнинг фуқаролари. Уларни ижтимоий ҳаётга қайтариш, жамиятнинг тўлақонли аъзосига айлантириш тўғрисида ҳам жиддий ўйлашимиз керак.

Жазони ўтаётган аёлларнинг 1239 нафари ўрта маълумотли, на касби, на хунари бор. Уларнинг 443 нафари олий таълим муассасаларида ўқиш истагини билдирган. Шу боис бундай хотин-қизлар билан манзилли ишлаш бўйича “Янги ҳаёт” дастурини бошлаймиз.

Ички ишлар вазирлиги Касбий таълим агентлиги ва Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги билан жазони ўтаётган аёлларни 3-б ойлик касб дастурлари бўйича ўқитиб, сертификат беради. Шунингдек, маҳкумаларга ўша ернинг ўзида имтиҳон топшириб, олийгоҳларга кириш ва масофавий ўқиш имкониятини яратиб берамиз.

Контракт бўйича ўқишга қабул қилинганларга жазони ўтаб, ишга жойлашганидан кейин қайтариш шarti билан фоизсиз ссуда ажратилади.

**Муҳтарама онахонлар, қадрли опа-сингиллар!**

Бугун Янги Ўзбекистон ўз тараққиётининг янги босқичига дадил кириб бормоқда. Биз ўз олдимизга, аввало, инсон бахти, инсон қадрини учун хизмат қиладиган улкан мақсадлар қўйганмиз. Чунки, *инсон бахти – оиладан бошланади, оила эса аёл билан мустаҳкам*. Келажак авлодлар ана шу муқаддас маконда камолга етади. Ҳеч шубҳасиз, бу борада қизларимизнинг маънавий тарбияси ҳал қилувчи ўрин тутади.

Меҳр-оқибат, ор-номус ва андиша каби муқаддас фазилатлар қизларимиз қалбига бувижонларнинг насиҳат ва ўғитлари билан киради. Бундай оилада тарбия олган қизларимиз юриш-туриши, одоб-ахлоқи ва ҳаётга муносабати билан тенгдошларига намуна бўлиб келган. Бугунги

шароитда ана шу тарбия мактабига эҳтиёж ҳар қачонгидан ҳам долзарб бўлиб турибди.

Шу ўринда мен ўта оғир синов дамларида ҳам қадди букилмаган, бутун умрини оиласига, фарзандига бағишлаган барча онахонларимизга мурожаат қилмоқчиман.

Биз 2026 йилни **“Маҳаллани ривожлантириш ва жамиятни юксалтириш йили”**, деб эълон қилганимиз бежиз эмас. Дунёдаги вазият қандай таҳликали бўлиб бораётганини барчамиз кўриб турибмиз.

Бундай мураккаб даврда юртимиздаги тинчлик ва осойишталик Аллох таоло берган улуғ неъмат эканини янада чуқур ҳис этмоқдамиз. Уни асраш эса ҳар биримизнинг муқаддас бурчимиздир.

Мана шундай шароитда дуоғўй бувижонларимиз, мўътабар онахонларимиз оилаларда бу неъматнинг қадрига етиш, уни асраб-авайлаш ва фарзандлар, набираларга шукроналик туйғусини сингдиришда намуна бўладилар, деб ишонаман.

#### **Ҳурматли анжуман иштирокчилари!**

Инсон учун ўз меҳнатининг маҳсулини кўриш, эътироф ва эътиборга сазовор бўлиш катта бахт.

Ушбу қутлуғ байрам арафасида юртимиз тараққиётига муносиб ҳисса қўшиб келаётган аёлларимиздан бир гуруҳини давлатимизнинг юксак унвон, орден ва медаллари билан тақдирлаш бўйича Фармонни имзоладим. Шунингдек, анъанага кўра, ўқиш ва ижодда, илм-фан, спорт ва жамоат ишларида фаол бўлиб келаётган қизларимиздан яна 28 нафари Зулфия номидаги давлат мукофотига сазовор бўлди.

Бутун халқимиз номидан мукофот соҳибаларини яна бир бор табриклайман.

#### **Муҳтарама опа-сингиллар!**

Сўнгги йилларда сиз, азизлар билан, халқимиз билан бирга илгари тарихимизда бўлмаган буюк ишларни амалга оширдик.

Машаққатли, ҳалол меҳнатимиз билан бутун дунёнинг эътирофи ва ҳурматига сазовор бўлмоқдамиз. Энг муҳими, ҳар бир соҳа ва тармоқда Янги Ўзбекистон мактаби шаклланмоқда.

*Биз учун бугунги ўта оғир ва мураккаб замонда олдимизга қўйган улкан марраларни эгаллашда янада бирлашиб, ҳамжиҳат бўлиб меҳнат қилиш ҳар қачонгидан ҳам муҳим вазифадир.*

*Янги Ўзбекистонни аёллари ҳаётдан рози бўлиб, бахтли-саодатли яшайдиган мамлакатга айлантириш – менинг энг катта ниятим.*

Ишончим комил, сиздек фидойи, шижоатли, меҳнаткаш аёлларимиз, бутун халқимиз билан бирга эзгу мақсадларимизга, албатта эришамиз!

Сўзимнинг якунида бутун Ўзбекистон хотин-қизларини кириб келаётган нафосат айёми, гўзаллик байрами билан яна бир бор чин қалбимдан табриклайман.

Барчангизга сиҳат-саломатлик, хонадонларингизга тинчлик-омонлик, оилавий бахт-саодат ёр бўлишини тилайман.

*Байрамингиз муборак бўлсин!*

*ЎЗА. 2026 йил 7 март.*

*Ҳаммамизни тарбиялаган, вояга етказган – шу халқ.  
Барчамизга туз-насиба берган ҳам – шу халқ. Бизга ишонч билдирган, раҳбар қилиб сайлаган ҳам айнан шу халқ.  
Шундай экан, биз биринчи навбатда ким билан мулоқот қилишимиз керак – одамларимиз билан.*

*Ким билан бамаслаҳат иш тутишимиз керак – аввало халқимиз билан. Шунда халқимиз биздан рози бўлади. Халқ рози бўлса, ишимизда унум ва барака бўлади.*

*Халқ рози бўлса, Яратган ҳам биздан рози бўлади.*

**Шавкат МИРЗИЁЕВ,  
Ўзбекистон Республикаси Президенти**

## **ВЫСТУПЛЕНИЕ ПРЕЗИДЕНТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ШАВКАТА МИРЗИЁЕВА НА ТОРЖЕСТВЕННОЙ ЦЕРЕМОНИИ, ПОСВЯЩЕННОЙ МЕЖДУНАРОДНОМУ ЖЕНСКОМУ ДНЮ**

**Уважаемые матери, дорогие сестры, милые дочери!**

Искренне, от всего сердца поздравляю вас, всех женщин Узбекистана с Международным женским днем – 8 Марта.

Без женщин, их замечательных, благородных качеств невозможно представить развитие общества, саму жизнь.

Мы видим в вас великую силу, которая с материнской любовью вырастила и воспитала наше 22-миллионное молодое поколение созидателей Третьего Ренессанса в стране.

Вы – предпринимательницы и ученые, учителя, врачи и инженеры, государственные и общественные деятели. Одним словом, вы – хранительницы домашнего очага, опора семьи и всего нашего общества.

**Дорогие женщины!**

Мы создали в стране новую систему обеспечения прав и интересов женщин, решения их проблем. Внедрены правовые механизмы экспертизы по гендерным вопросам всех законов, указов и постановлений при их принятии. Отныне ни один закон не будет приниматься без оценки его воздействия на права и интересы женщин.

В результате созданных в стране широких возможностей и условий сформировался класс предпринимателей, среди которых насчитывается около 230 тысяч женщин, в сфере сельского хозяйства активно работают 12 тысяч фермеров-женщин, огромный вклад в развитие науки вносят более 6 тысяч женщин-ученых. Следует также отметить, что в прошлом году на мировых спортивных аренах наши девушки завоевали 167 золотых, 193 серебряных и 243 бронзовых медали.

Такие большие изменения в жизни наших женщин получают признание мирового сообщества. В частности, в рейтинге Межпарламентского союза «Женщины в парламенте» Узбекистан, поднявшись на 92 позиции, занял 36-е место, в Индексе гендерного равенства и управления поднялся со 103-го на 52-е место, в отчете

Всемирного банка «Женщины, бизнес и закон» улучшил свою позицию на 43 пункта, заняв 48-е место.

Пользуясь возможностью, выражаю искреннюю признательность нашим женщинам, которые работают в разных сферах и своим трудом, талантом, интеллектуальным потенциалом вносят достойный вклад в построение Нового Узбекистана, нашим девушкам, приумножающим славу Родины на международных аренах, их родителям, наставникам и тренерам.

### **Уважаемые участники церемонии!**

Вопрос обеспечения женщин работой и доходами всегда находится в центре нашего внимания. В прошлом году на повышение их занятости и привлечение к предпринимательству мы выделили 23,5 триллиона сумов кредитов, в результате трудоустроено и занялись бизнесом более 425 тысяч женщин.

Так, Наргиза Бекмуратова из Янгиарыкского района, обеспечившая занятость 300 женщин в текстильной сфере, в прошлом году открыла вторую фабрику и создала еще 100 рабочих мест. В 2025 году на международном конкурсе в Анкаре она одержала победу в номинации «Предпринимательница, создавшая наибольшее количество рабочих мест для женщин».

Таких наших инициативных женщин и девушек я считаю созидателями Нового Узбекистана. И готов их всемерно поддерживать.

Поэтому в нынешнем году 166 тысяч женщин будут обучены современным профессиям и предпринимательству, еще 100 тысяч – IT. Наряду с этим для налаживания среди них предпринимательства на дому мы приступим к реализации программы «Даромадли аёл» («Доход для женщин»). Благодаря ей при содействии ведущих предпринимателей будет обеспечена занятость 50 тысяч женщин в направлениях надомничество, ремесленничество, птицеводство, пчеловодство и приусадебное хозяйство.

Кроме того, в рамках программы «Хамрох» («Сопровождение») на осуществление 3 тысяч проектов женщин будут выделены средства в размере 1 триллиона сумов.

В целом в текущем году мы наметили обеспечить доходом 1,5 миллиона женщин, 400 тысяч из них привлечь к бизнесу, на что будет направлено более 25 триллионов сумов.

За эту работу ответственны заместители Премьер-министра Дж.Кучкаров, З.Махкамова, министр занятости и сокращения бедности Б.Зохидов, председатель Центрального банка Т.Ишметов, хокимы областей.

### **Дорогие соотечественники!**

Сегодня в высших учебных заведениях страны обучаются более 904 тысяч девушек, что составляет 54 процента от общего числа студентов.

Всех нас, безусловно, радует, что в прошлом году 60 наших девушек поступили в самые престижные вузы мира. Примечательно также, что среди стажеров-исследователей и обучающихся в докторантуре 8,5 тысячи, или 61 процент, составляют женщины.

Достойны особого внимания успехи участвующих в сегодняшнем мероприятии Индиры Сатниязовой из Кегейлийского района, Вазиры Файзуллаевой из Бухары, Машхуры Кудратовой из Навои, достигнутые на международных предметных олимпиадах, признание авторитетной компанией «Microsoft» своим послом в Узбекистане победительницы ряда международных стартап-конкурсов Дилафруз Журабоевой из Бувайдинского района.

С нового учебного года для женщин и девушек из нуждающихся семей мы в 2 раза – до 4 тысяч – увеличим количество квот на получение государственного образовательного гранта.

Студенткам, обучающимся в магистратуре на основе системы совместного образования с вузами, входящими в топ-300, сумма контракта также будет оплачиваться государством.

Теперь для поддержки инновационных идей женщин ежегодно будут проводиться стартап-конкурсы по не менее чем 10 направлениям. При этом по каждому направлению победительнице будет выделен грант до 500 миллионов сумов из Инновационного фонда.

Обучение профессиям девушек, окончивших 11-й класс школы и поступивших в государственные техникумы, будет полностью осуществляться на основе государственного гранта.

Думаю, эти новые условия откроют перед нашими женщинами и девушками большие возможности.

### **Уважаемые друзья!**

Наша стратегическая задача – создать среду, непримиримую к притеснениям и насилию по отношению к женщинам и детям.

На этой неделе я подписал важный Указ. Отныне мы будем еще решительнее бороться с любыми проявлениями насилия и притеснения в отношении женщин и детей на основе строгой системы.

Хотел бы остановиться еще на одном вопросе. В настоящее время в учреждениях исполнения наказания отбывают срок 2 589 женщин. Эти женщины, совершившие преступления в силу разных обстоятельств, по незнанию, также являются гражданами страны. И мы должны серьезно подумать об их социальной реабилитации, становлении полноправными членами общества.

У 1 239 отбывающих наказание женщин имеется среднее образование, но нет ни профессии, ни навыков. Из них 443 выразили желание учиться в высших образовательных учреждениях. Поэтому мы начнем реализацию программы «Янги хаёт» («Новая жизнь») по адресной работе с такими женщинами.

Министерство внутренних дел совместно с Агентством профессионального образования и Министерством занятости и сокращения бедности организуют обучение отбывающих наказание женщин по 3-6-месячным профессиональным программам, с последующей выдачей им сертификатов.

Мы создадим для осужденных женщин возможность сдавать экзамены, поступать в вузы и учиться дистанционно. Для поступивших на учебу по контракту будет выделена беспроцентная ссуда с условием возврата после отбывания наказания и трудоустройства.

### **Дорогие женщины!**

Новый Узбекистан сегодня уверенно входит в новый этап своего развития. Мы поставили перед собой важнейшие цели, достижение которых послужит обеспечению благополучия человека, его чести и достоинства. Ведь счастье каждого начинается в семье, а семья становится

крепкой прежде всего благодаря женщине. Достойное будущее поколение может сформироваться только в такой среде.

Несомненно, в этой связи решающее значение имеет духовно-нравственное воспитание наших девушек. Благодаря советам и напутствиям бабушек и матерей у них формируются такие прекрасные качества, как доброта, милосердие, достоинство, порядочность.

Девочки, воспитанные в подобных семьях, своим прилежным поведением, добродетелями и отношением к жизни всегда были примером для сверстниц.

Сегодня хорошее воспитание актуально как никогда. В этой связи хочу обратиться ко всем нашим почтенным женщинам, которые выстояли в дни самых трудных испытаний, полностью посвятили свою жизнь семье, детям.

Не случайно 2026 год мы объявили *Годом развития махалли и всего общества*. Все мы видим, насколько напряженной становится ситуация в мире. В этой сложной обстановке мы еще глубже осознаем, каким бесценным богатством являются мир и спокойствие в нашей стране. Сохранить их – священный долг каждого из нас.

Убежден, что в этих условиях наши заботливые бабушки и матери, благословляющие на добрые дела, станут для нас примером того, как беречь мир и стабильность в стране и воспитывать в семьях, у детей и внуков чувство благодарности за это величайшее благо.

#### **Уважаемые участники торжества!**

Получать удовлетворение от результатов своего труда, быть удостоенным внимания и признания – это большое счастье для человека.

Накануне нынешнего замечательного праздника я подписал Указ о присвоении почетных званий, награждении орденами и медалями нашего государства группы женщин, которые вносят достойный вклад в развитие страны. Также по традиции еще 28 девушек, проявляющих активность в учебе, творчестве, науке, спорте и общественной жизни, удостоены Государственной премии имени Зульфии. От имени всего нашего народа еще раз поздравляю награжденных.

**Дорогие женщины!**

В последние годы мы вместе с вами, со всем нашим народом осуществили поистине великие дела.

Самоотверженным, добросовестным трудом мы добиваемся признания и уважения всего мира. Самое важное, в каждой сфере и отрасли формируется собственная школа Нового Узбекистана.

*Важнейшей задачей для нас являются укрепление нашего единства, еще более сплоченный труд во имя достижения высоких рубежей в нынешнее непростое время.*

*Моя самая большая мечта – чтобы Новый Узбекистан стал страной, где женщины довольны своей жизнью, счастливы, живут в мире и благополучии.*

Убежден, что вместе с вами – самоотверженными, целеустремленными, трудолюбивыми женщинами, вместе со всем нашим народом мы обязательно достигнем этих благородных целей.

В завершение своего выступления еще раз от всей души поздравляю женщин Узбекистана с наступающим прекрасным праздником.

*Желаю всем вам здоровья, счастья, мира и благополучия вашим семьям.*

**УзА. 2026 год 7 марта.**

*Юрт байроғин ҳар жойгамас,  
Кўнглиннга эк. Кўксингни ўй.  
Ишлов бергин, юмшатиб тур,  
Илдиз отсин, кўрсатсин бўй.*

*То бу байроқ, Ватан, нурлар  
Ич-ичингга кетсин кириб,  
Токи ганим – ватанхўрлар  
Ололмасинлар суғуриб.*

**Ҳалима ХУДОЙБЕРДИЕВА,  
Ўзбекистон халқ шоири**

***Қонун олдида ҳамма тенг<sup>1</sup>!***

Мухтарам Президент Шавкат Миромонович Мирзиёев ўтган йили 26 декабрда Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига йўллаган Мурожаатномасида: *Коррупция – давлат тараққиётига тўсиқ бўладиган, адолат ва қонун устуворлигини издан чиқарадиган, жамиятда ишонч муҳитини заифлаштирадиган энг жиддий таҳдид.*

*Коррупцияга йўл қўйиши эса – ислохотларимизга хиёнатдир. Бу иллатга қарши курашиши бўйича 2026 йилни “фавқулодда ҳолат”, деб эълон қиламиз...*

**Давлатнинг ҳар бир сўм маблағи, ресурси бўйича шахсий жавобгарлик кучайтирилади.**

*“Лавозимим, унвоним бор, менга ҳеч ким тегмайди”, деганлар адашади. Қонун олдида ҳамма тенг!*

Дарҳақиқат, Малака ошириш институти нашри Ахборотномасида бу иллатга қарши курашиш борасида бир қатор тадқиқотчилар, профессор-ўқитувчилар, амалиётчи инспекторлар ўзларининг ғоявий-мафкуравий фикрлари ҳамда ҳарбий-сиёсий тафаккурларини ҳурматли тингловчиларга ҳавола қилдилар.

Коррупция балосининг турли шакл-шамойилларини муаллифлар ўз мақолаларида қиёсий-таҳлилий ифода этишда, айрим жиҳатларига алоҳида урғу беришди.

**Мухтарам журналхон!** 16-саҳифадан 45-саҳифани ўз ичига олган тўртта танқидий ва таҳлилий мақола билан яқиндан танишиб, айрим мулоҳазалар ҳамда фикрларингизни билдирасиз, деган умиддамиз.

**Таҳририят**

<sup>1</sup> Халқ сўзи. 2025 йил 27 декабрь.

**Abdijabbor ABJALOV,**  
*MOI Maxsus-kasbiy fanlar kafedrası professori, s.f.b.f.d. (PhD), podpolkovnik*

## **KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SIYOSATINING AYRIM USTUVOR YO‘NALISHLARI XUSUSIDA**

*Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a‘zolari, ta‘bir joiz bo‘lsa, “Halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz.*

**Shavkat MIRZIYOYEV**

Korrupsiya hozirgi jamiyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid soluvchi global muammolardan biri. U nafaqat iqtisodiy rivojlanish sur‘atlarini pasaytiradi, balki davlat boshqaruviga bo‘lgan ishonchni zaiflashtiradi, ijtimoiy adolat tamoyillarini buzadi. Shu bois O‘zbekiston Respublikasi yangi davrida korrupsiyaga qarshi kurashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirdi.

Ma‘lumki, korrupsiya jamiyatni rivojlanishiga qarshi qaratilgan harakat sifatida har qanday jamiyat va davlatda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni chuqurlashtirishga sabab bo‘ladigan omil sifatida baholanadi.

Har bir davlat korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va ob‘ekti sifatida alohida olingan korrupsionerga emas, balki ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarni bartaraf qilish va profilaktik oldini olish choralarida namoyon bo‘ladi. Hozirgi glabollashuv davrida korrupsiya muammosi jahonning deyarli har bir mamlakatida mavjudligini ko‘rish mumkin. Ammo bu - barcha davlatlarda ham korrupsiya bir xil degan ma‘noni anglatmaydi.

Korrupsiyaning vujudga kelish sabablari turli mamlakatlarda turli xil bo‘lib, tarixiy rivojlanish bosqichi hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning mavjudligi hamda taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Davlat va jamiyatning rivojiga, xalqning adolatga bo‘lgan ishonchiga jiddiy putur yetkazadigan xavf –

korrupsiya xavfining oldini olish va unga qarshi kurashish borasidagi ishlar Respublikamizda ham izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Ushbu masalada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yilning 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasida “... afsuski, jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi. Tadbirkorlar hanuzgacha yer ajratish, kadastr, qurilish, litsenziya, bojxona, bank, davlat xaridlari kabi sohalarda korrupsiyaga duch kelayotgani, Prezident nomiga kelib tushayotgan ko‘plab murojaatlar ham, matbuot va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar ham yaqqol ko‘rsatib turibdi.”<sup>1</sup> deb ta’kidladilar.

Haqiqatdan ham, korrupsiyaga qarshi kurashish va unga barham berish yuzasidan davlat organlari tomonidan turli normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Shu bilan birga, iqtisodiyotni yanada o‘stirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minlash hamda korrupsiya ko‘rinishlarining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo‘yicha yangi tizimli choralar ko‘rilishini taqozo qilmoqda.

Korrupsiya va jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan jinoiy guruhlar o‘zlarining jamiyat, davlat va fuqarolarga katta moddiy zarar va iqtisodiyotga putur yetkazishi, fuqarolarda davlatga ishonchsizlik ruhini uyg‘otishi bilan xavfli sanaladi. Jinoyat huquqida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi iboralari davlat idoralarida ishlaydigan mansabdor shaxslarning yoki davlat xizmatchilarining uyushgan guruh, shuningdek, boshqa jinoyatchi shaxslar bilan o‘zaro til biriktirib jinoyat sodir etishi yoki ularni jinoyat sodir etish uchun sharoit yaratib berishini anglatadi. Shu sababli korrupsiya, manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq jinoyatlarni o‘rganish uchun bir qator mansabdorlik jinoyatlarini hamda mansabdor shaxslarning xizmat sohasini tahlil qilish lozim.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalariga yo‘llagan Murojaatnomasi. 2021-y. Toshkent. Xalq so‘zi. 29 dekabr.

Jinoyatlar orasida korrupsiya va uning ko‘rinishi sifatida manfaatlar to‘qnashuvi o‘ta xavfli hisoblanib, insonning hayotiga, sog‘lig‘iga, mulkka, davlat barqarorligiga, shuningdek, bir qancha muhim ob‘ektlarga zarar yetkazishi bilan jamiyatimizga katta xavf tug‘diradi. Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli choralar amalga oshirilmoqda. Islohotlarni amalga oshirish doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlari himoya qilinishini, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini, jamoat va parlament nazoratini ta‘minlash mexanizmlari takomillashtirildi, shuningdek, huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatining huquqiy asoslari isloh qilindi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni yanada o‘stirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta‘minlash hamda korrupsiya ko‘rinishlarining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo‘yicha yangi tizimli choralar ko‘rilishini taqozo qilmoqda.

Korrupsiya - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish<sup>2</sup>.

Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganlaridek, **«korrupsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar qanchalik harakat qilmasin, xalqimiz bu jirkanch illatga murosasiz bo‘lmas ekan, ta‘sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatmas ekan, bu baloga qarshi samarali kurashni tashkil eta olmaymiz. Bu illat bilan nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, balki har bir jamoa jiddiy kurashishi kerak. Shuning uchun har bir davlat idorasida jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘z ichki dasturlari bo‘lishi shart»<sup>3</sup>.**

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi” qonuni. Xalq so‘zi. 2017-yil 3-yanvar, O‘RQ-419 3-moddasi.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiya bayrami tantanalaridagi 2018-yil 7-dekabrda nutqidani. Xalq so‘zi. 2018 yil 8 dekabr.

Manfaatlar to‘qnashuvi - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatdir<sup>4</sup>.

Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati – bu davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va jamiyatning boshqa sub’yektlari tomonidan korrupsiyaning oldini olish, uni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimidir. Korrupsiyaviy omillar - huquqni qo‘llovchilarga asossiz ravishda ko‘rib chiqishning keng doirasini yoki umumiy qoidalardan chiquvchi istisnolarni asossiz qo‘llash imkoniyatini belgilovchi, jismoniy va yuridik shaxslarga noaniq, bajarilishi qiyin bo‘lgan va (yoki) og‘irlashtirilgan talablarni, shuningdek, huquqni tartibga solishdagi bo‘shliqlarni o‘z ichiga olgan loyihalarning normalaridir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi” BMT Bosh Assambleyasining 2003-yil 31-oktyabrdagi qarori bilan qabul qilingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi ushbu “Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi”ga 2008-yilda qo‘shilgan.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish maqsadida 2017-yil 3-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi – davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kuch va imkoniyatlarini birlashtirib, yaxlit tizimni yaratish imkonini berdi.

*Mazkur qonunning 5-moddasiga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida:*

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;
- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-

---

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni. Xalq so‘zi. 2024-yil 5-iyun, O‘RQ-931 3-moddasi.

sharoitlarni bartaraf etish, javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash belgilandi. Qonunning 26-moddasiga ko'ra: *“Davlat organlarining xodimlari ularni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko'ndirish maqsadida biror-bir shaxs o'zlariga murojaat etganligiga doir barcha holatlar to'g'risida, shuningdek davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o'xshash huquqbuzarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan har qanday faktlari haqida o'z rahbarini, yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart. Ushbu majburiyatni bajarilmasligi javobgarlikka sabab bo'ladi”* – deyilgan.

*Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:*

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish asosiy ichki hujjatlarni mavjudligi;
2. Korrupsiya xavfini aniqlash va baholash;
3. “Yuqoridan quyiga munosabat”. Yuqori darajada rahbarlik namunasi;
4. Aniqlangan qoidabuzarliklarga chora-ko'rish va javobgarlikka tortish;
5. Korrupsiyaga qarshi choralar, aniqlangan korrupsiya xavflarini minimallashtirish;
6. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun javobgar shaxslar va bo'linmalar;
7. Monitoring, nazorat va hisobdorlik;
8. Axborot, aloqa va maslahatlar nazarda tutiladi.

Davlat organlari va muassasalarining rahbarlari, shuningdek, ushbu organlari va muassasalar tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari o'ziga bo'ysunuvchilar, fuqarolar va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda halol, adolatli va mustaqil xulq-atvor namunasi bo'lishlari kerak. Shuningdek, 2024-yilning 5-iyun kuni O'zbekiston Respublikasining **“Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”**gi Qonuni qabul qilindi hamda ushbu qonun bilan manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi, qonun tatbiq etiladigan tashkilotlar, ularning huquq va majburiyatlari, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha cheklovlar o'rnatildi.

– Agentlik manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organi etib belgilandi;

– manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar berish, deklaratsiya taqdim etish, reestr yuritish, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash mexanizmlari joriy etildi;

– manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilik talablarini

bajarmaganlik uchun ma'muriy javobgarlik (MJtK 193<sup>4</sup>-modda) belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2025-yil 21-aprel kunidagi PF-71-son farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2025-yil 30-dekabr kunidagi PF-270-son farmoniga ko'ra, quyidagilar korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishning 2030-yilgacha bo'lgan ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:

a) davlat organlari va tashkilotlari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning professional va samarali tizimini tashkil etish;

b) korrupsiya oqibatlari bilan kurashishdan ko'ra korrupsiyaviy omillarni barvaqt aniqlash va preventiv mexanizmlarni joriy etish orqali tizimli korrupsiyaviy holatlarni oldini olish;

v) raqamli texnologiyalar, shu jumladan, sun'iy intellektni joriy qilishni hamda ulardan samarali foydalanishni kengaytirish;

g) davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ochiqlik siyosatini izchil davom ettirish va muntazam takomillashtirib borish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinishi mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida qo'yilgan yana bir muhim qadamlardan biri bo'ldi. Ushbu farmonga asosan, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilishi belgilandi.

Mazkur farmonga asosan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish hamda amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat notijorat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat

organi hisoblanishibelgilangan bo‘lib, ish faoliyatini qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida olib borishi, boshqa davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshirishi belgilab qo‘yilgan. Agentlik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunadi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari oldida hisobot beradi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor tomonidan boshqariladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Agentlik direktorini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish to‘g‘risidagi farmonlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlanishi hamda agentlikning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari, huquqlari kabi masalalar belgilab berilishi mazkur farmon orqali tartibga solingan.

2020-yil 29-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-4761-son qarori qabul qilindi.

Respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish sohasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash borasida milliy qonunchilik asoslari yaratilib, mazkur qonunchilik davr talabi va O‘zbekiston Respublikasi xalqaro-huquqiy majburiyatlaridan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirilish zarur va u xalqaro hamkorligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Muhtaram Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qatar amiri shayx Tamim bin Hamad Ol-Soniy 2023-yil 19-dekabr kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro mukofotni topshirish marosimida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Toshkent shahrida bo‘ladi. Qatar amiri tashabbusi bilan ta‘sis etilgan mukofot 2016-yildan buyon har yili global miqyosda korrupsiyaga qarshi kurashga qo‘shgan hissasining e‘tirofi sifatida taniqli jamoat arboblari, ekspertlar va jurnalistlar taqdirlab kelinmoqda. Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 1–2-oktyabr kunlaridagi Qatarga davlat tashrifi davomida, eng avvalo, siyosat, savdo-iqtisodiyot, investitsiya va madaniy-gumanitar sohalarda erishilgan kelishuvlarning amalga oshirilishi ko‘rib

chiqilgan edi. Prezident 2023-yil 15-dekabr kuni Qatar qonun ustuvorligini ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha markazi Vasiylik kengashi raisi Al Muhsin al-Mariy boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Darhaqiqat, huquqiy yordam ko'rsatishga doir ikki tomonlama xalqaro shartnomalarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, bu boradagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari ro'yxatini yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Korrupsiyaga qarshi kurash muntazam va kompleks tarzda olib borilib, ijtimoiy xayotning barcha sohalarini, ayniqsa davlat boshqaruvi va iqtisodiyotni qamrab olmog'i darkor. Bu borada albatta katta e'tibor korrupsiyani oldini olish chora tadbirlariga qaratilishi bilan bir vaqtda jinoiy-huquqiy choralar majmuiga ham e'tibor qaratishimiz joiz. Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan qonunlar milliy qonunchiligimizning korrupsiyaga qarshi kurashuvchi jihatlarini jiddiy kuchayishiga olib keldi. Ayniqsa 2014-yilda qabul qilingan "Davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi, "Ijtimoiy sherikchilik to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasiga kiradi. Lekin bu yo'nalishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar ko'lami yanada keng.

Korrupsion jinoyatlarni maxsus profilaktika qilish, bu boradagi maxsus qonunchilikni takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyotini samaradorligini oshirish, mansabdor shaxslarni huquq va majburiyatlarini aniq belgilab berish, shuningdek, boshqaruv faoliyatini uslubiy jihatdan ta'minlashni talab etadi. Bunday sharoitda, korrupsiyaga oid qonunchilikdagi salbiy ko'rinishlarni bartaraf etish, yanada keng ko'rinishdagi ijtimoiy-huquqiy nazoratni kuchaytirish zaruriyati tug'iladi. 2025-yil 26-dekabrda Shavkat Mirziyoyev tomonidan Oliy Majlis va xalqimizga qilingan Murojaatnomada korrupsiyaga qarshi kurash ustuvor vazifa sifatida belgilanib, *"Korrupsiya – davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid. Korrupsiyaga yo'l qo'yish esa islohotlarimizga xiyonatdir! Bu illatga qarshi kurashish bo'yicha 2026-yilda "favqulodda holat" e'lon qilamiz. Barcha idoralarda komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazoratga mas'ul o'rinbosar lavozimi joriy etiladi. Hisob palatasining vakili faoliyati yo'lga*

*qo'yiladi. Davlatning har bir so'm mablag'i, resursi bo'yicha shaxsiy javobgarlik kuchaytiriladi<sup>5</sup>*, – deb ta'kidlandi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar keng qamrovli, maqsadli va tizimli xarakterga ega. Ularning asosiy maqsadi – korrupsiyani faqat jazolash orqali emas, balki uning kelib chiqish sabablarini yo'q qilish orqali bartaraf etishdir. Shaffoflik, qonun ustuvorligi, jamoatchilik nazorati va raqamli texnologiyalar bu yo'lda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Islohotlarning izchil davom etishi esa mamlakatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, mamlakatning korrupsiyaga qarshi kurash siyosati davlat boshqaruvining ochiqligi, shaffofligi va javobgarligini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar majmuasidan iborat. Yaratilgan huquqiy baza, institutsional tizimlar va jamoatchilik ishtirokining kengayishi korrupsiyaga qarshi kurashda sezilarli natijalarga erishilishini ta'minlamoqda. Kelgusida raqamli boshqaruvni yanada takomillashtirish, fuqarolik nazoratini kuchaytirish hamda xalqaro tajribani chuqur joriy etish orqali korrupsiyaga qarshi siyosatning samaradorligi yanada oshadi.

## REZYUME

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash siyosatining mazmun-mohiyati, davlat tomonidan olib borilayotgan institutsional va huquqiy islohotlar, korrupsiya profilaktikasi, jamoatchilik nazorati, shuningdek xalqaro standartlar bilan uyg'unlashuv masalalari yoritildi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan strategik dasturlar, vakolatli organlar faoliyati hamda samaradorlikka erishish uchun zarur bo'lgan tamoyillar tahlil qilindi. Maqola korrupsiya xavf-xatarlarini kamaytirishga qaratilgan taklif va xulosalar bilan yakunlandi.

---

<sup>5</sup> 2025-yil 26-dekabrda Shavkat Mirziyoyev tomonidan Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnoma. Xalq so'zi. 2025-yil 27-dekabr.

\*\*\*\*\*

В данной статье раскрываются сущность и содержание политики Республики Узбекистан по противодействию коррупции, институциональные и правовые реформы, проводимые государством, профилактика коррупции, общественный контроль, а также вопросы гармонизации с международными стандартами. Анализируются принятые стратегические программы по борьбе с коррупцией, деятельность уполномоченных органов и принципы, необходимые для достижения эффективности. Статья завершается предложениями и выводами, направленными на снижение рисков коррупции.

\*\*\*\*\*

This article highlights the essence and content of the anti-corruption policy in the Republic of Uzbekistan, the institutional and legal reforms carried out by the state, corruption prevention, public oversight, as well as issues of harmonization with international standards. It analyzes the strategic programs adopted to combat corruption, the activities of authorized bodies, and the principles necessary to achieve effectiveness. The article concludes with proposals and recommendations aimed at reducing corruption risks.

**“ЎЗБЕКИСТОН – 2030”  
СТРАТЕГИЯСИ ХАЛҚ  
МАНФААТЛАРИГА ХИЗМАТ  
ҚИЛУВЧИ, ОЧИҚ, ИЗЧИЛ ВА  
АМАЛИЙ ДАСТУР  
СИФАТИДА МАМЛАКАТ  
ТАРАҚҚИЁТИДА МУТЛАҚО  
ЯНГИ САҲИФАНИ  
ОЧМОҚДА.**

**Gulsanam RO‘ZIYEVA,**  
*Malaka oshirish instituti Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasi dotsenti, s.f.b.f.d.,*  
*(PhD), podpolkovnik*

**KORRUPSIYA VA MANFAATLAR TO‘QNASHUVI –  
MA’NAVIYATGA TAHDID DEMAK**

*Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot  
bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir.*

**Shavkat MIRZIYOYEV**

So‘ngi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli choralar ko‘rilmoqda. Tub islohotlarni amalga oshirish doirasida, birinchi navbatda fuqarolarning huquq hamda manfaatlari himoya qilinmoqda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ochiqligi, jamoat va parlament nazoratini ta‘minlash mexanizmlari takomillashtirmoqda, shuningdek, davlat organlari huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishning huquqiy asoslari isloh qilinmoqda.

Korrupsiya jamiyatning ma’naviy asoslarini izdan chiqaruvchi omillardan biridir. Agar jamiyatda korrupsiya keng tarqalgan bo‘lsa, bu holat fuqarolarda adolatsizlik tuyg‘usini kuchaytiradi. Halol mehnat orqali muvaffaqiyatga erishish o‘rniga noqonuniy yo‘llar orqali maqsadga erishish holatlari ko‘payadi. Bunday vaziyatda yosh avlod ongida ham noto‘g‘ri tasavvurlar shakllanishi mumkin. Halollik va adolat kabi qadriyatlar o‘rnini manfaatparastlik va befarqlik egallashi jamiyat uchun katta xavf tug‘diradi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat huquqiy, balki ma’naviy masala ham hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashning og‘irligi hamda o‘ta murakkabligi shu bilan belgilanadiki, bu jinoyat nafaqat hufyona, balki sub’ektlar o‘rtasida kelishuvga asosan sodir etiladi. Aksariyat hollarda, ushbu holat yuzasidan tegishli hokimiyat organlariga shikoyat berilmaydi. Sababi g‘ayriqonuniy kelishuvdan ikkala tomon ham manfaatdor bo‘ladi. Hatto pora so‘rash holatlari ustidan ham

kamdan-kam holatda shikoyat qilinadi. Chunki insonlar korrupsiyaga qarshi kurashish jarayoniga ishonchsizlik bilan qaraydilar. Buning uchun esa milliy va xorijiy tajriba bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan ob‘ektiv va sub‘ektiv asoslar mavjud.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yilning 24-yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasida shunday fikrlarni bildirganlar: *“... afsuski, jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi. Tadbirkorlar hanuzgacha yer ajratish, kadastr, qurilish, litsenziya, bojxona, bank, davlat xaridlari kabi sohalarda korrupsiyaga duch kelayotgani, Prezident nomiga kelib tushayotgan ko‘plab murojaatlar ham, matbuot va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar ham yaqqol ko‘rsatib turibdi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a‘zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak”<sup>1</sup>* deb ta’kidladilar.

So‘nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Byudjet va Bojxona kodekslari (yangi tahrirda), «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida», «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida», «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida», «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida», «Elektron hukumat to‘g‘risida», «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida» qabul qilingan qonunlar shular jumlasidandir. Hozirgi vaqtda jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy muammolari markazida korrupsiyaga qarshi kurash muammosi ayniqsa muhim o‘rin egallaydi. Bu hol bir necha omillar bilan belgilanadi:

*birinchidan*, aholining turli qatlamlari o‘rtasida tengsizlik, tabaqalanish kuchayib borayotgan paytda davlat amaldorlari tomonidan mansab mavqeini suiiste‘mol qilish holatlari davlat organlari va hokimiyat obro‘sigacha putur etkazadi. Amalga oshirilayotgan islohotlarni, jamiyatni demokratlashtirish va

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi. 25.01.2020.

yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonlarining obro'sizlanishiga olib keladi;

*ikkinchidan*, iqtisodiy mazmuni resurslarni taqsimlash jarayonining deformatsiyalanishidan iborat bo'lgan korrupsiya iqtisodiyotning rivojlanishi va mustahkamlanishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi;

*uchinchidan*, korrupsiya, boshqa ko'pgina salbiy ijtimoiy hodisalar singari, o'zining keng ildiz otishiga zamin yaratadi, ya'ni, u bo'lg'usi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tartibga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan birgalikda, bunda korrupsiya qancha chuqur ildiz otgan bo'lsa, unga qarshi kurashish va uning oqibatlarini bartaraf etish, shuningdek, korrupsiyaning ba'zi bir sabablari tugatilgan bo'lsa ham, shuncha qiyinlashadi;

*to'rtinchidan*, mamlakatdagi korrupsiya darajasi siyosiy omilgina bo'lib qolmasdan, balki qarzlarni berish, chet el investitsiyalarini amalga oshirish shartlari va hokazolarga ta'sir ko'rsatuvchi muhim iqtisodiy omil hisoblanadi.

Shu bois ham, bugungi kunda korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda qonunlarga rioya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Muhtaram Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi **“Erkin va obod, demokratik jamiyatni barchamiz birgalikda barpo etamiz”** mavzusidagi ma'ruzasida: *“Jamiyatimizda korrupsiyaga, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekanligi to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur”*<sup>2</sup>, deb ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi **“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”**gi qonunida: manfaatlar to'qnashuvi - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yohud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari

<sup>2</sup>.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. J-1. - T: «O'zbekiston». 2017. 141-b.

o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat (3-m.)- deb belgilab qo'yilgan<sup>3</sup>.

Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda davlat xizmatchilari o'z rahbarini darhol xabardor qilishi kerak. Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotni olgan rahbar uni tartibga keltirish bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rishi shart.

*Manfaatlar to'qnashuvining ko'rinislari:*

1. Lobbizm (ingliz. lobby – kuluar, koridor) rasmiy vakillar bilan norasmiy shaxslarning o'zaro uchrashib, rasmiy qarorlar qabul qilishdagi siyosiy ta'sirning o'ziga xos turi.

2. Proteksionizm (lot. ko'maklashish) ma'lum bir shaxslarni lavozimga tayinlashga ko'maklashish;

3. Nepotizm (lot. nepos jiyani) qarindosh-urug'chilik, hududiy yoki etnik prinsiplar asosida davlat tuzilmalarida yoki boshqa tuzilmalarda tor guruhchilik manfaatlari bilan ish ko'rish.

4. Rahnamolik, favoritizm (fr. favorit) himoya ostidagi ayrim xodimlarni yaqin olish va qo'llab-quvvatlash.

5. Kronizm (ingliz. xamfikir, tanish-bilishchilik, guruhbozlik) lavozimlarni tanish-bilishchilik asosida do'stlarga berish.

6. Klientelizm (ingl. clientelism, lot. clientela - mijoz) – yuqori lavozimdagi mansabdor shaxs va unga xayrixoh bo'lgan shaxslar (mansabdor shaxslar, tadbirkorlar, siyosiy guruhlar).

7. Pantuflyaj (fran. shippakni almashtirish) - davlat xizmatchisi davlat sektoridan ketib, xususiy sektorga ishga joylashishi nazarda tutiladi.

*Jismoniy va yuridik shaxslarga noaniq, bajarilishi qiyin bo'lgan va (yoki) og'irlashtirilgan talablarni o'z ichiga olgan korrupsiyaviy omillar:*

a) huquqni qo'llovchiga tegishli bo'lgan huquqni amalga oshirish uchun unga yuklatiladigan talablarning mavjudligi:

jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini cheklashga qaratilgan va (yoki) yuklatilishi qonun hujjatlari normalari bilan asoslantirilmagan talablarning o'rnatilishi;

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi" qonuni. Xalq so'zi. 2024-yil 5-iyun, O'RQ-931 3-moddasi.

bajarish uchun ehtiyoj bo'lmagan majburiyatlarning jismoniy va yuridik shaxslarga yuklatilishi;

jismoniy va yuridik shaxslarga qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan hujjatlar, axborotni taqdim qilish majburiyatining yuklatilishi;

ega bo'layotgan huquqqa muvofiq bo'lmagan alomatlarga (kasbiy, mulkiy, ijtimoiy) muvofiq bo'lish majburiyatlarining mavjudligi;

b) jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan huquqlarni amalga oshirishning qat'iy tartibga solinishining mavjud emasligi;

v) barqaror bo'lmagan, ikki ma'noli tushunchalardan foydalanish yoki qo'llanilayotgan atamalarning tushunchasi, ilmiy asoslantirilishi va ishonchligining mavjud emasligi;

g) huquqiy munosabatlarning bir guruh sub'ektlariga nisbatan boshqalarni teng bo'lmagan, kamsituvchi ahvolga soluvchi afzalliklarning belgilanishi lozim.

*Huquqni tartibga solishdagi bo'shliqlar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy omillar:*

a) ma'muriy tartib-tamoyillarning mavjud emasligi yoki to'liq emasligi, ya'ni organlar tomonidan tegishli harakatlarni bajarish tartibining mavjud emasligi, jumladan:

qarorlarni qabul qiluvchi va qonun hujjatlari talablarini bajaruvchi organning mavjud emasligi;

organning harakatlari va vakolatlarining tartibga solinmaganligi;

vakolatlarni bajarish prosessual tartibining belgilanmaganligi;

organlar tomonidan ma'muriy tartib-taomillarni bajarish uchun asoslarning mavjud emasligi yoki noaniqligi;

qabul qilinayotgan qarorni asoslab berish majburiyatining mavjud emasligi; amalga oshirilishining aniq mexanizmiga ega bo'lmagan normalarning mavjudligi;

b) organlarning javobgarligi, shuningdek, ularning harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi normalarning mavjud emasligi;

v) organlarning faoliyati ustidan nazorat qilishning shakllari va turlariga ko'rsatmaning mavjud emasligi;

g) organlarning faoliyati to'g'risidagi hamda ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning so'rovlari yuzasidan ma'lumotlarni taqdim qilish tartibi

to'g'risidagi axborotni (qonun bilan qo'riqlanadigan sirni tashkil etuvchi axborotlar bundan mustasno) oshkor etishni nazarda tutuvchi normalarning mavjud emasligi;

d) tegishli harakatlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan organni loyihaaning mazmunidan belgilashning imkoniyati mavjud emasligi;

ye) normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda qoldirish;

j) huquqni qo'llovchilarda huquqlar mavjud bo'lganda majburiyatlarning mavjud emasligi yohud huquqlar mavjud bo'lmaganda majburiyatlarning mavjudligi;

z) tegishli vakolatlar mavjud bo'lmaganda, qonun hujjatlaridagi bo'shliqlarning qonunosti hujjatlari yordamida to'ldirilishi.

Manfaatlar to'qnashuvi qonun hujjatlarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasini tashkil etish orqali ham bartaraf etiladi. Qonun hujjatlarini tayyorlash, muhokama qilish, ekspertizadan o'tkazish va qabul qilish jarayonida fuqarolar va tadbirkorlarning, eng avvalo, davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga, shuningdek, korrupsiya tusidagi huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish darajasi, davlat va jamiyat manfaatlarining ifodalanishi bir so'z bilan aytganda korrupsion holatlarni oldini olishni taqozo etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilinishida antikorrupsiyaviy ekspertizaning o'rni muhim ahamiyatga egadir.

Antikorrupsiyaviy ekspertizaning huquqiy maqomini takomillashtirish yuzasidan bir qancha qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ushbu muhim jarayonni o'tkazish va uning nazariy-amaliy jihatlarini o'rganish va ulardan samarali foydalanishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasida normativ-huquqiy hujjat loyihasining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini tashkil etish huquqiy asoslari bir qator qonunlarda o'z aksini topgan. Jumladan, "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi qonunida (2006-yil 11-oktyabr) va "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida" (yangi tahriri) qonunida (2012-yil 24-dekabr) normativ-huquqiy hujjat loyihasining ekspertizasi vazifalari hamda normativ-huquqiy hujjat loyihasining huquqiy ekspertizasi tushunchasi belgilab berilgan.

Xalqaro va milliy amaliyotda normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyaga sabab bo'ladigan omillarni aniqlashga;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan loyihani qabul qilish oqibatlarini umumiy baholashga;

normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash jarayonida korrupsiya xususiyatiga ega xavflarning yuzaga kelishi ehtimolini prognoz qilishga;

korrupsiyaga sabab bo'lgan, aniqlangan omillarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishga va choralar ko'rishga yo'naltirilgan jarayondan iborat bo'ladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan faoliyatning tegishli yo'nalishlari bo'yicha o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonunining 21-moddasiga muvofiq, "davlat organlarining xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi kerak<sup>4</sup>", deb e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksning 79-moddasiga binoan: "O'zaro yaqin qarindosh yoki quda-anda bo'lgan shaxslarning (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'il va qizlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va bolalari), basharti ulardan biri ikkinchisiga bevosita bo'ysunib yoki uning nazorati ostida xizmat qiladigan bo'lsa, bir davlat korxonasida birga xizmat qilishlari taqiqlanadi"-deyilgan.

Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va tartibga solish quyidagicha amalga oshiriladi:

xodimning manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha qarorlarni qabul qilish va muhokama qilish jarayonida qatnashishdan ixtiyoriy ravishda voz kechish o'z-o'zini rad etishini tasdiqlash;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun xodimning majburiyatlarini o'zgartirish yoki qayta ko'rib chiqish;

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi" qonuni. Xalq so'zi. 2017-yil 3-yanvar, O'RBQ-419 21-moddasi.

xodimning shaxsiy manfaatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlardan foydalanishini cheklash;

xodimni ma'lum bir davlat xarid ishtirokchisi bilan xodim uchun qarorlarni qabul qilish jarayonidan chetlashtirish;

xodimni manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq bo'lmagan mehnat funksiyalarini bajarishni nazarda tutadigan lavozimga o'tkazish;

xodimni ma'lum bir lavozim vazifadan ozod etish.

2025-yil 26-dekabr kuni Shavkat Mirziyoyev tomonidan Oliy Majlis va xalqimizga qilingan Murojaatnomada korrupsiyaga qarshi kurash ustuvor vazifa sifatida belgilanib, *“Korrupsiya – davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid. Korrupsiyaga yo'l qo'yish esa islohotlarimizga xiyonatdir! Bu illatga qarshi kurashish bo'yicha 2026-yilda “favqulodda holat” e'lon qilamiz. Barcha idoralarda komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazoratga mas'ul o'rinbosar lavozimi joriy etiladi. Hisob palatasining vakili faoliyati yo'lga qo'yiladi. Davlatning har bir so'm mablag'i, resursi bo'yicha shaxsiy javobgarlik kuchaytiriladi<sup>5</sup>”*, – deb ta'kidlandi.

Korrupsiya jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi va fuqarolarning davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchini kamaytiradi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Korrupsiya kuchli bo'lgan jamiyatlarda iqtisodiy imkoniyatlar adolatli taqsimlanmaydi, davlat resurslari samarali foydalanilmaydi.

Shuningdek, korrupsiya investitsiya muhitini ham yomonlashtiradi, iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi. Natijada jamiyat taraqqiyoti sekinlashadi va fuqarolarning turmush darajasi pasayadi. Korrupsiya nafaqat iqtisodiy, balki ichki ma'naviy tahdid sifatida jamiyatning barqarorligini buzadi. Shuning uchun davlat va jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashishda ham qonuniy, ham ma'naviy chora-tadbirlarni uyg'unlashtirishi lozim. Maqolada keltirilgan tavsiyalar amalga oshirilsa, jamiyatda axloqiy qadriyatlar mustahkamlanadi va korrupsiya darajasi sezilarli darajada kamayadi.

---

<sup>5</sup> 2025-yil 26-dekabr kuni Shavkat Mirziyoyev tomonidan Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnoma. Xalq so'zi. 2025-yil. 27-dekabr.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi jamiyat ma’naviyatiga jiddiy tahdid soluvchi omillardir. Ular nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki ijtimoiy barqarorlik va adolat tamoyillariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashish davlat, jamiyat va har bir fuqaroning umumiy vazifasiga aylanishi zarur. Jamiyatda halollik, adolat va qonuniylik tamoyillarini mustahkamlash orqali korrupsiyaning oldini olish va sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish mumkin. Faqat shundagina barqaror rivojlanish va adolatli jamiyat qurish yo‘lida muhim natijalarga erishiladi.

### REZYUME

Ushbu maqolada korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasi, uning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy oqibatlari hamda mamlakatdagi ichki barqarorlikka ta’siri tahlil qilindi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali usullari va aholi ongini shakllantirishdagi roli ko‘rib chiqildi. Maqola ilmiy manbalar asosida yozilgan bo‘lib, nazariy va amaliy jihatlarni o‘z ichiga oldi.

\*\*\*\*\*

В данной статье анализируются понятия коррупции и конфликта интересов, их социальные, экономические и духовно-нравственные последствия, а также влияние на внутреннюю стабильность страны. Кроме того, рассматриваются эффективные методы противодействия коррупции и их роль в формировании общественного сознания населения. Статья подготовлена на основе научных источников и охватывает как теоретические, так и практические аспекты.

\*\*\*\*\*

This article analyzes the concepts of corruption and conflict of interest, their social, economic, and moral consequences, as well as their impact on the internal stability of the country. It also examines effective methods of combating corruption and their role in shaping public awareness among the population. The article is based on scientific sources and covers both theoretical and practical aspects.

**Шокир АЛБЕКОВ,**

*Старший преподаватель цикла физической подготовки*

*Институт повышения квалификации, майор*

## **КОРРУПЦИЯ В СПОРТЕ: ПРИЧИНЫ, ПОСЛЕДСТВИЯ И МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ**

Коррупция остаётся одной из наиболее острых социально-правовых проблем современного общества. Её влияние охватывает многие сферы государственной и общественной жизни, в том числе спорт. Спорт как социальный институт традиционно ассоциируется с честной конкуренцией, укреплением здоровья и международным сотрудничеством, однако коррупционные проявления подрывают доверие, наносят экономический и репутационный ущерб, а также угрожают устойчивому развитию отрасли [1].

В Узбекистане десятый год уделяется пристальное внимание развитию спорта, популяризации массовой физической активности и созданию современной спортивной инфраструктуры по всей территории Республики. Однако случаи коррупции в спортивной сфере, включая махинации с финансами, договорные матчи и неправомерное влияние на результаты соревнований, выявили необходимость усиления правового регулирования и мер противодействия.

Актуальность рассматриваемой проблемы подтверждается результатами деятельности органов государственной власти Республики Узбекистан. С 2025 года вопросы борьбы с коррупцией дважды рассматривались на высшем государственном уровне с участием Главы государства, по итогам чего были определены приоритетные направления дальнейшей работы. В течение года принято 5 нормативно-правовых актов, направленных на совершенствование механизмов предупреждения коррупции. В рамках антикоррупционной экспертизы 342 проекта нормативно-правовых актов выявлено 499 коррупциогенных факторов, что свидетельствует о сохраняющихся системных рисках в механизмах регулирования различных сфер государственного управления, включая спорт [2].

Наша цель всесторонний анализ коррупционных проявлений в спортивной среде, выявление причин и последствий этих явлений, а также формирование рекомендаций по повышению эффективности борьбы с коррупцией в спорте.

### ***Понятие и сущность коррупции в спорте:***

*Коррупция в спорте представляет собой использование служебного положения для получения личной выгоды, что выражается через взятничество, договорные матчи, незаконное финансирование, хищение средств спортивных организациях и другие формы противоправной деятельности [1].*

Согласно международному анализу, коррупция в спортивной сфере может принимать различные формы: манипуляции результатами матчей, мошенничество с контрактами и финансами, nepotизм и конфликт интересов при распределении ресурсов и должностей. Эти нарушения напрямую подрывают принципы честной игры и спортивной этики [3]. На национальном уровне государства предпринимают шаги по укреплению правового поля. Так, в Республике Узбекистан были внесены поправки в Уголовный кодекс, предусматривающие уголовную ответственность за взятки и договорные матчи, с реальными санкциями вплоть до лишения свободы [4].

***Причины коррупции в спортивной сфере:*** а) *Социально-экономические факторы.* Одной из ключевых причин коррупции является высокая концентрация финансовых ресурсов в спортивной индустрии и отсутствие достаточных механизмов общественного контроля. Государственные и частные инвестиции, гранты, спонсорские контракты создают значительный финансовый поток, который при ненадлежащем контроле становится благодатной почвой для хищений и злоупотреблений. б) *Слабость управленческих механизмов.* Недостаточная прозрачность в управлении средствами, слабый внутренний аудит спортивных организаций, а также непрозрачность кадровых процессов способствуют коррупционным проявлениям. В отсутствие механизмов открытого контроля и подотчетности возрастает риск злоупотребления полномочиями со стороны руководителей [3]. в) *Низкий уровень правовой*

культуры и этики. Отсутствие чётких стандартов этического поведения, нехватка образовательных программ по антикоррупционной деятельности среди спортсменов, тренеров и административного персонала также увеличивают вероятность возникновения коррупционных схем. Недостаточная правовая грамотность населения и участников спортивной среды ослабляет социальный иммунитет общества к такого рода правонарушениям [1].

**Проявления коррупции в спорте:** а) *Договорные матчи и манипулирование результатами.* Одним из наиболее распространённых проявлений коррупции является договорной матч - ситуация, когда результат спортивного соревнования заранее определяется не спортивными достижениями, а финансовыми или организационными мотивами. Такие действия наносят огромный ущерб репутации спорта и подрывают доверие болельщиков. б) *Злоупотребление финансами и взяточничество.* Финансовые хищения, присвоение бюджетных средств, неправомерные выплаты и получение взяток за оказание влияния на решения спортивных органов - ещё одна широко распространённая форма коррупции. Эти действия не только нарушают закон, но и лишают спортсменов и федерации необходимых ресурсов для развития.

Анализ практики противодействия коррупции в 2025 году показал, что в сфере государственных закупок выявлены нарушения на сумму 673,3 млрд сумов в 192 процедурах. По ряду фактов материалы направлены в правоохранительные органы. Учитывая, что спортивная отрасль активно финансируется из государственного бюджета (строительство спортивных сооружений, закупка инвентаря, организация соревнований), указанные риски являются потенциально актуальными и для спортивной сферы [2]. в) *Манипуляции с кадровыми назначениям и контрактами.* Коррупционные схемы могут проявляться при распределении должностей, подписании контрактов или предоставлении привилегий отдельным участникам. Принятие решений на основе личных интересов, а не профессиональных качеств приводит к неэффективному управлению спортивными организациями [3].

### ***Последствия коррупции в спортивной среде:***

Коррупция в спорте оказывает многоуровневое негативное влияние. Во-первых, она подрывает доверие общества к спортивным институтам, снижает интерес болельщиков и инвесторов к спортивным мероприятиям [1]. Во-вторых, коррупция способствует утрате моральных ориентиров среди молодёжи, для которой спорт часто является примером образцовых ценностей – честности, дисциплины и справедливости.

Экономические последствия включают значительные финансовые потери, нецелевое расходование бюджета и снижение эффективности использования ресурсов. Коррупция также препятствует развитию массового спорта и укреплению здоровья нации, так как средства направляются не на повышение качества подготовки спортсменов или строительства инфраструктуры, а на удовлетворение частных интересов [5].

### ***Меры противодействия коррупции в спорте:***

*а) Законодательное регулирование.* Одним из ключевых направлений борьбы с коррупцией является совершенствование уголовно-правового регулирования. В Узбекистане были внесены статьи в Уголовный кодекс, предусматривающие ответственность за взятки и подкуп участников и организаторов соревнований, а также за договорные матчи, что отражает международные практики борьбы с коррупцией [4].

В 2025 году рабочими группами в 97 районах и городах 14 регионов изучены причины бюрократии и бытовой коррупции на 2 450 объектах социальной сферы. В рамках концепции формирования «территорий, свободных от коррупции», а также внедрения так называемого «Андижанского опыта» проводится системная работа по формированию атмосферы нетерпимости к коррупции. Подобные механизмы профилактики могут быть применены и в спортивной сфере - в частности, при реализации региональных программ развития спорта [2].

*б) Повышение прозрачности и контроля.* Эффективные антикоррупционные механизмы требуют прозрачности финансовых потоков, обязательной отчетности спортивных организаций и независимого аудита. Внедрение цифровых платформ для мониторинга

расходов и контрактов также способствует минимизации коррупционных рисков [6].

в) *Образовательные и профилактические меры.* В 2025 году полностью обновлены руководители внутренних контрольных подразделений 117 государственных органов и организаций. Усиление внутреннего контроля является ключевым элементом антикоррупционной политики и может рассматриваться как эффективный инструмент предупреждения коррупционных рисков в спортивных федерациях и организациях [2].

Кроме того, профилактика коррупции требует активной информационно-разъяснительной работы: проведение тренингов по этике и правовым аспектам для спортсменов, тренеров, административного персонала; внедрение образовательных программ в систему подготовки кадров. Такой подход формирует устойчивую антикоррупционную культуру и повышает правовую грамотность участников спортивного процесса [3].

Значит, коррупция в спорте представляет собой многоаспектную проблему, затрагивающую юридические, социальные и экономические сферы. Её проявления - от договорных матчей до злоупотреблений финансами и кадровых назначений - наносят ущерб развитию спортивной отрасли и доверия общества. Системный подход к борьбе с коррупцией должен включать совершенствование законодательства, повышение прозрачности управления, развитие образовательных программ и формирование этической культуры в спорте. Только комплексные меры способны обеспечить эффективное противодействие коррупции и укрепление справедливости и честности в спортивной среде.

#### **ИСПОЛЬЗОВАННЫЙ СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. Lotfi R., Essaoudi M., Corruption in Sport: Who corrupts whom, where, when, why and how? // International Journal of Information Technology and Applied Sciences, Vol. 6 (1), 2024. p. 11-21.
2. Агентство по противодействию коррупции Республики Узбекистан. Итоги деятельности за 2025 год и приоритетные задачи на 2026 год. – Официальный сайт: <https://anticorruption.uz>

3. Global Corruption Report: Sport. Transparency International. 2016.
4. Закон Республики Узбекистан от 4 ноября 2024 года ЗРУ-988 «О внесении дополнений в Уголовный кодекс Республики Узбекистан в целях предотвращения коррупции в сфере спорта».
5. Пахомова Ю.В., Наролина Т.С. Введение в проектную деятельность. Практикум. Воронеж, 2021. Стр.18.
6. Турдиев А.С. Инновационные подходы к мониторингу благосостояния населения на основе цифровых платформ. // Экономика и социум, №11 (138), 2025. С. 952-960.

### РЕЗЮМЕ

Мақолада спорт соҳасидаги коррупция ижтимоий-ҳуқуқий ҳодиса сифатида таҳлил қилинди ҳамда унинг спорт тармоғи ривожига ва жамиятнинг ҳуқуқий маданиятига салбий таъсири ёритилди. Спорт ташкилотларидаги коррупциявий ҳолатларнинг асосий шакллари, уларнинг олдини олиш механизмлари ҳамда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг бу борадаги ўрни кўрсатилди.

\*\*\*\*\*

В статье рассматриваются проблемы коррупции в сфере спорта как социально-правового явления, оказывающего негативное влияние на развитие спортивной отрасли и формирование правовой культуры общества. Проанализированы основные формы коррупционных проявлений в спортивных организациях, механизмы их предупреждения и роль правоохранительных органов в обеспечении прозрачности и законности в данной сфере.

\*\*\*\*\*

The article examines corruption in the field of sports as a socio-legal phenomenon that negatively affects the development of the sports sector and the formation of legal culture in society. The main forms of corrupt practices in sports organizations, mechanisms for their prevention, and the role of law enforcement agencies in ensuring transparency and legality are analyzed.

**Saparbay ALLAMBERGENOV,**  
*Malaka oshirish instituti dotsenti, podpolkovnik, yuridik fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)*

## **KORRUPSIYANING OLDINI OLISHDA KASB MADANIYATI VA XIZMAT INTIZOMINING O'RNI**

Korrupsiya zamonaviy jamiyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid soluvchi ijtimoiy-huquqiy hodisa hisoblanadi. U davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytiradi, fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini susaytiradi va iqtisodiy rivojlanishni cheklaydi. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi xalqaro miqyosda ham, milliy darajada ham ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jumladan, yer yuzida tinchlik va xavfsizlikni saqlash, inson huquqlarini himoya qilish hamda mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashuvchi, shuningdek 193 ta a'zo davlatlarni birlashtirgan BMTning "Korrupsiyaning oldini olish, aybdorlarni jinoiy javobgarlikka tortish, xalqaro hamkorlik va aktivlarni qaytarish" bo'yicha qabul qilgan yagona xalqaro huquqiy hujjati – Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasidir. Ushbu hujjat 2003-yilda qabul qilingan bo'lib 2005-yildan kuchga kirgan.

Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi qo'shilganidan<sup>1</sup> so'ng milliy qonun hujjatlarini qabul qilishga va ushbu sohada keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishga turtki bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda alohida qayd etish joizki, amalga oshirilib kelinayotgan mazkur huquqiy choralar bilan bir qatorda, korrupsiyaning oldini olishda inson omili – xususan, davlat xizmati sohasida **davlat xizmatchilarining faoliyatida kasb - madaniyati va xizmat intizomi hal qiluvchi** ahamiyatga ega. Darvoqe, korrupsiya ma'nosi va uning kelib chiqishi mumkin bo'lgan omillari haqida qisqacha to'xtalishni lozim topdik.

**Korrupsiya** – davlat xizmatida mansab yoki xizmat vakolatlaridan shaxsiy yoki boshqa shaxslarlar manfaatlari yo'lida foydalanishdir. Ilmiy adabiyotlarda korrupsiya nafaqat huquqbuzarlik, balki institutsional inqiroz belgisi sifatida ham baholanib kelinmoqda. Demak, Korrupsiya quyidagi omillar natijasida kelib chiqishi mumkin:

---

<sup>1</sup> Elektron manba: <https://lex.uz/docs/1369505> - murojaat qilingan sana - 01.03.2026.

- aholining huquqiy ong va madaniyatining pastligi sababli;
- davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida shaffoflik, oshkoralik va jamoatchilik nazorati sub'ektlarining yetarli emasligi sababli;
- davlat xizmatchilari faoliyatida kasb madaniyati va xizmat intizomining sustligi;
- davlat xizmatchilari tomonidan kasbiy etika qoidalariga qat'iy rioya qilinmasligi va hokazo.

Bu, o'z navbatida, korrupsiyaga qarshi kurashishda faqatgina jazo choralarini qo'llash bilan emas, balki **profilaktik va ma'naviy-axloqiy mexanizmlar** orqali ham amalga oshirilishini taqoza etadi.

**Kasb madaniyati** – bu, muayyan kasb egasining kasbiy bilim, malaka, axloqiy qadriyatlar va huquqiy ong asosida shakllangan faoliyat uslubidir. Davlat xizmatida kasb madaniyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- qonun ustuvorligiga qat'iy rioya qilish;
- adolat va xolislik printsipiga amal qilish;
- manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik;
- fuqarolarga hurmat bilan munosabatda bo'lish va hokazo.

Kasb madaniyati yuqori darajada shakllangan davlat xizmatchisi korrupsion takliflarga nisbatan barqaror immunitetga ega bo'ladi. Chunki u o'z faoliyatini nafaqat huquqiy, balki axloqiy mezonlar asosida ham baholaydi.

**Xizmat intizomi** – bu, davlat organlari va tashkilotlarda belgilangan ichki tartib-qoidalar, xizmat burchlari va mas'uliyat me'yorlariga qat'iy rioya qilish tizimidir. **Xizmat intizomining mustahkamligi quyidagi omillar orqali belgilanishi mumkin:**

- xizmat vazifa va vakolatlarining aniq taqsimlanishi;
- ichki nazorat mexanizmlarining samaradorligi;
- javobgarlikning muqarrarligi;
- oshkora va shaffof qaror qabul qilish jarayonlari bilan bog'liqligi nazarda tutiladi.

Intizomning susayishi esa, vakolatlarni suiiste'mol qilishga sharoit yaratadi. Shu bois, xizmat intizomi korrupsiyaning oldini olishda institutsional filtr vazifasini bajaradi, deb e'tirof etsak mubolag'a bo'lmaydi.

Kasb madaniyati ichki (shaxsiy) omil, xizmat intizomi esa, tashqi (tashkiliy) omil sifatida e'tirof etsak bo'ladi. Ularning uyg'unligi esa quyidagi samarali natijalarni ta'minlashga xizmat qilishi mumkin:

- *qonun hujjatlarining ustuvorligini ta'minlash;*
- *davlat xizmati, shu jumladan, davlat xizmatchilarining obro'si (emiji)ni oshirish;*
- *davlat xizmati faoliyatiga fuqarolarning ishonchlarini mustahkamlash;*
- *turli xil korrupsion xavf-xatarlarning kamayishi va hokazo.*

Agar xizmat intizomi kuchli, ammo kasbiy axloq zaif bo'lsa, davlat xizmatchilari nazorat yo'q joyda qonunbuzarlikka moyil bo'lish ehtimolidan xoli bo'lmaydi. Aksincha, kasb - madaniyati yuqori bo'lgan joyda esa davlat xizmatchisi nazoratsiz holatda ham qonun hujjatlariga xilof xatti-harakatlardan tiyilishi tabiiy.

Zamonaviy yondashuvga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurashishda jazo choralari qo'llashdan ko'ra uning profilaktikasiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu borada quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- 1) davlat xizmatchilari uchun muntazam etika-estetika treninglarini tashkil etish;
- 2) davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha ta'sirchang chora-tadbirlarni tizimli joriy etish;
- 3) davlat xizmatining barcha faoliyatini raqamlashtirish orqali inson omilini qisqartirish;
- 4) xizmat intizomini baholashning shaffof mezonlarini joriy etish va hokazo.

Nazarimizda, davlat xizmati faoliyatida korporativ madaniyatni<sup>2</sup> shakllantirish korrupsiyaga qarshi barqaror muhit yaratishga xizmat qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shunday qilib, korrupsiyaga qarshi kurashishda faqat huquqiy javobgarlik choralari bilan cheklanmasdan uning barvaqt oldini olishda tizimli va kompleks yondashuv asosida tegishli samarali chora-tadbirlarni joriy etishni taqozo etadi. Kasb madaniyat davlat xizmatchilarining ichki axloqiy pozitsiyasini mustahkamlasa, xizmat intizomi esa tashkiliy tartib va nazorat mexanizmlarini

---

<sup>2</sup> **Izoh:** *Korporativ madaniyat* – bu, tashkilot (idora, kompaniya, muassasa) ichida shakllangan qadriyatlar, me'yorlar, an'analar, ish uslublari va xodimlarning o'zaro munosabat tizimidir. U jamoaning "ichki muhiti"ni belgilaydi va xodimlar qanday fikrlashi, qaror qabul qilishi va harakat qilishiga ta'sir ko'rsatadi.

ta'minlaydi. O'ylaymizki, yuqorida qayd etilgan fikr mulohazalarimizni huquqni qo'llash vakolatiga ega bo'lgan soha vakillari hamda jamoatchilik tuzilmalari tomonidan o'rganiladi.

### REZYUME

Mazkur maqolada korrupsiyaga qarshi kurashish tizimida kasb madaniyati va xizmat intizomining o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Korrupsiyaning institutsional sabablari, uning davlat boshqaruvi samaradorligiga salbiy ta'siri, kasbiy etika va intizom orqali profilaktik mexanizmlarni kuchaytirish masalalari yoritildi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi siyosatning huquqiy asoslari va amaliyotdagi ahamiyati ko'rib chiqildi.

\*\*\*\*\*

В данной статье представлен научно-теоретический анализ роли профессиональной культуры и служебной дисциплины в системе борьбы с коррупцией. Осветлены институциональные причины коррупции, её негативное влияние на эффективность государственного управления, а также укрепление превентивных механизмов посредством профессиональной этики и дисциплины. Рассмотрены также правовые основы антикоррупционной политики и её практическое значение.

\*\*\*\*\*

This article presents a scientific and theoretical analysis of the role of professional culture and service discipline in the fight against corruption. It highlights the institutional causes of corruption, its negative impact on public administration effectiveness, and the strengthening of preventive mechanisms through professional ethics and discipline. It also examines the legal foundations of anti-corruption policy and its practical implications.

*Ilmiy maqolalar*

**Sardor SAKIYEV,**  
*Malaka oshirish instituti Ilmiy kotibi, mayor*

**ICHKI ISHLAR XODIMLARINI KASBIY XALQCHIL ETIB  
TARBIYALASHDA PEDAGOGIK IMKONIYATLAR  
HAMDA AYRIM TAKLIFLAR**

*Yangi O'zbekistonni barpo etishda  
zamonaviy bilim va yuksak ma'naviyatga ega  
bo'lgan kadrlar hal qiluvchi o'rin tutadi.*

**Shavkat MIRZIYOYEV**

Hozirgi paytda mamlakatimizda fuqarolarning qonun ustunligini ta'minlash va jamoat xavfsizligini mustahkamlash, huquq hamda erkinliklarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor vazufalaridan hisoblanadi. Bu vazifalarni samarali amalga oshirish uchun ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligi, ma'naviy-axloqiy fazilatlar va sadoqati alohida ahamiyatga ega. Shu bois mazkur tizim uchun yuksak bilim, vatanparvarlik va fidoyilik ruhida tarbiyalangan kadrlarni tayyorlash dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqda. Bu borada muhtaram Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: *"Ichki ishlar organlari xodimi – bu avvalo xalqning tinchligi va xavfsizligini ta'minlaydigan fidoyi insondir."* Ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilayotgan fidoiy inson kasbiy faoliyati o'ta yuqori darajadagi mas'uliyat, tezkor qaror qabul qilish va murakkab vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishni talab qiladi. Shuning uchun ularni tayyorlash jarayonida pedagogik imkoniyatning samarali usul va vositalaridan foydalanish, kasbiy qadriyatlarini shakllantirish hamda xizmatga sadoqat tuyg'usini singdirish muhim hisoblanadi.

Ma'lumki, ichki ishlar organlarida maxsus va oliy ta'lim jarayonining asosini professor-o'qituvchilar faoliyati tashkil etadi. Ushbu faoliyat ularning mo'ljallangan natijalar va erishish usullarini rejalashtirish hamda modellashtirish, ishlab chiqilgan reja va modellarni amalga oshirish hamda xodimlarning faoliyati va xatti-harakatlarini boshqarishni o'z ichiga oladi.

Professor-o‘qituvchilar boshqaruv faoliyati tizimning holati va uning samaradorligini tavsiflovchi axborotlariga asoslangan<sup>1</sup>.

Bizning fikrimizcha, huquqni muhofaza qilish organlarida o‘qituvchilar ta‘lim jarayonini boshqarish va so‘zlash uchun foydalanadigan butun bir rag‘batlantirish tizimi mavjud. Unda ularga ta‘lim jarayonini boshqarish bo‘yicha qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni olish imkonini beruvchi maxsus aloqa tarmog‘i mavjud.

Pedagogik lug‘atlarga kirib borgan texnologiya tushunchasi pedagogik nazariya va amaliyotda yangi yo‘nalishlarni keltirib chiqardi. Hatto “aniq pedagogika”ning zamonaviy tushunchalari ham paydo bo‘ldi. Biroq, har bir o‘qituvchi-pedagog (keng ma‘noda) barcha talablarga javob beradigan ideal shaxsni shakllantirishi mumkin bo‘lgan ta‘lim texnologiyasini ishlab chiqishi hali uzoq. Bugungi kunda biz faqat ta‘lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish elementlari haqida gapirishimiz mumkin, ulardan foydalanish huquqni muhofaza qilish organlarida ta‘lim jarayonini samaraliroq qiladi. Huquqni muhofaza qilish organlarida xodimlarni o‘qitishning hozirgi amaliyoti, bizning fikrimizcha, o‘tish bosqichida - o‘qituvchilar hali yaxshi tashkil etilgan ilmiy texnologiyadan foydalanmaydilar, balki individuallikka qaratilgan ta‘lim vazifalariga intuitiv yondashuvdan asta-sekin uzoqlashmoqdalar. Ularda tasdiqlangan, foydali texnologik yutuqlarni amalga oshirish istagi va harakatlarni birlashtirish va standartlashtirish istagi sezilarli.

Amaliy texnologiyalarda yaxlit ta‘lim jarayoni g‘oyasi kompleks yondashuv orqali amalga oshiriladi. Bu maqsadlar, vazifalar, mazmun, usullar va ta‘lim ta‘siri va o‘zaro ta‘sir shakllarining birligini anglatadi. Ichki ishlar organlarida zamonaviy ta‘lim texnologiyalari quyidagi majburiy talablarni bajaradigan kompleks yondashuvni amalga oshiradi:

Ular xodimlarga uch yo‘nalishda ta‘sir qiladi: **ong, his-tuyg‘ular va hulq-atvor**. Ijobiy natijaga ichki ishlar organlari xodimining shaxsini o‘qitish (tashqi pedagogik ta‘sir) va o‘z o‘zini tarbiyalashning organik uyg‘unligi orqali erishiladi.

---

<sup>1</sup> Гумеров Р.Г. Педагогическое управление образовательным процессом. Монография. – Казань: Изд-во, 2018. – С. 76–80.

Oldindan belgilangan shaxsiy xususiyatlar muayyan ta'lim faoliyati tizimi orqali rivojlantiriladi. Bu faoliyatlar qat'iy ravishda keng qamrovli bo'lishi, aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va kasbiy rivojlanish vazifalarini bir vaqtning o'zida uzluksiz integratsiyalashgan jarayonda amalga oshirishni talab qilishi kerak.

Ta'lim sohasidagi barcha mavjud ijtimoiy institutlar va birlashmalarning, birinchi navbatda ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san'at, huquqni muhofaza qilish tizimi va boshqalarning say-harakatlarini birlashtirish va muvofiqlashtirish kompleks yondashuvning muhim shartidir.

Integratsiyalashgan yondashuv ichki ishlar organlari xodimlarini o'qitish va boshqarish jarayoniga tizimli yondashuvni o'z ichiga oladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili tizimi**

Huquqni muhofaza qilish xodimlari vatanparvarlik tarbiyasining shakllanishi va rivojlanishini tavsiflash uning nazariya va amaliyotdagi genezisini tarixiy va pedagogik tahlil qilishni, ya'ni tarixshunosligini taqdim etishni talab qiladi. Vatanparvarlik tarbiyasi masalasiga oid ellikdan ortiq ilmiy ishlarning tahlili umuman vatanparvarlik tarbiyasi muammolarini chuqur o'rganishni ko'rsatdi. Biroq, ayrim ijtimoiy guruhlarning, masalan, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari tomonidan vatanparvarlik tarbiyasining xususiyatlari hali to'liq o'rganilmagan. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining vatanparvarlik tarbiyasi asoslarini tarixiy va pedagogik tahlil qilish ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Masalan, M.A. Mazurning asarlarida huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining vatanparvarlik tarbiyasini o'rganishda, eng avvalo, tarixshunoslik nuqtai nazaridan "*vatanparvarlik madaniyati*" tushunchasi muhim ilmiy kategoriya sifatida tahlil qilinadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, vatanparvarlik madaniyati shaxsning ijtimoiy qadriyatlari, fuqarolik mas'uliyati hamda davlat va jamiyat manfaatlariga sadoqatini ifodalovchi ma'naviy-axloqiy fazilatlar majmuini anglatadi. Shu bilan birga, ushbu tushuncha huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida Vatanga sadoqat, xizmat burchiga mas'uliyat bilan yondashish va jamiyat xavfsizligini ta'minlashga tayyorlik kabi

sifatlarning shakllanishida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi<sup>2</sup>. O.G. Berdiyev Ichki ishlar vazirligida bir necha yil xizmat qilgan tor toifadagi mutaxassislarining, ya'ni Migratsiya xizmati xodimlarining fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasini tarixiy va pedagogik jihatdan tahlil qilib, ushbu sohada shakllangan tajriba, tarbiyaviy yondashuvlar hamda ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'sirini ilmiy asosda yoritadi.<sup>3</sup>

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ichki ishlar organlari xodimining yaxlit shaxsini shakllantirishga kompleks yondashuvda ushbu barcha shartlarning umumiyligi hisobga olinishi kerak. Ta'lim texnologiyasining asosiy birligi ichki ishlar organlari professor-o'qituvchilarining ta'lim faoliyatidir. Ta'lim faoliyati - bu o'qituvchilarning muayyan faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish usuli. Uning asosiy ajralib turadigan xususiyatlari zarurat, foydalilik va amalga oshirish imkoniyatidir, chunki ta'lim jarayoni uzluksiz ta'lim harakatlari zanjiridan iborat. Ta'lim harakatlari o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir shakllari, vositalari va usullarini birlashtiradi<sup>4</sup>.

Har qanday ta'lim faoliyatida quyidagi bosqichlar ajratiladi:

1) *maqsadlarni belgilash (vaziyatni tahlil qilish va maqsadlarni shakllantirish);*

2) *harakatlarni rejalashtirish;*

3) *harakatlarni tashkil etish va tayyorlash;*

4) *harakatni bevosita amalga oshirish;*

5) *erishilgan natijalarni tahlil qilish.*

Ularning batafsil xususiyatlari ta'lim jarayoni texnologiyasining asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Ichki ishlar organlarida ichki ishlar uchun maqsadlarni belgilash va rejalashtirishning eng muhim manbalaridan biri bu ta'lim faoliyati olib boriladigan ta'lim holatidir. Bu holat mamlakat va butun dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy voqealar, milliy bayramlar, yubileylar, mintaqaviy va mahalliy tadbirlar; rivojlanayotgan shaxs turining zarur fazilatlarini va

---

<sup>2</sup> Мазур М.А. **Патриотическое воспитание сотрудников правоохранительных органов.** Монография. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2016. – С. 45–49.

<sup>3</sup> Бердиев О.Г. **Ички ишлар вазирлиги миграция хизмати ходимларининг фуқаролик-ватанпарварлик тарбияси: тарихий-педагогик таҳлил** // – Тошкент, 2021. – Б. 52–57.

<sup>4</sup> Деркач А.А. **Акмеология: учебное пособие.** – М.: РАГС, 2004. – С. 210–215.

xususiyatlarining rivojlanishi va ma'lum bir davrda ichki ishlar organlari ishining umumiy yo'nalishi bilan belgilanadi.

Dominant ta'lim maqsadi (odatda kasbiy va axloqiy rivojlanish maqsadi) aniq harakatlarning maqsadlarini belgilaydi. Ushbu harakatlarning har biri umumiy ta'lim yondashuvlaridan biriga mos keladigan asosiy g'oyani ta'kidlaydi. Maqsadlarni belgilash bosqichida o'qituvchilarning vazifasi ta'lim vaziyatini ko'rib chiqish, o'zlarining ta'lim faoliyatini dominant maqsad bilan uyg'unlashtirish, jamoa va uning alohida a'zolarining ta'lim olish darajasini baholash va keyin o'quvchilarning kelajakdagi faoliyatida ko'zda tutilgan ta'sirlar tizimini idrok etishga tayyorligini batafsil pedagogik tahlil qilishdir. Olingan ma'lumotlarni qayta ishlagandan so'ng, ta'lim faoliyatining maqsadi quyidagi algoritm yordamida shakllantiriladi: jamoa va shaxslarning holati, o'qituvchilar va xodimlarning imkoniyatlari, shuningdek, maqsad va aniq vazifalarni aniqlash.

### **Tahlil va natijalar**

Ichki ishlar organlarining o'qituvchilar tarkibi quyidagi tavsiyalarni hisobga olsalar, rejalashtirish muvaffaqiyatli bo'ladi.

1. Professor-o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasiga tayanib, ularning yoshi va shaxsiy xususiyatlarini iloji boricha hisobga oling. Vazifalarning o'ta murakkabligi, o'qituvchining tushunarsiz niyatlari va nima, nima uchun va qanday qilish kerakligini noaniq tushunish ta'lim ishlarini rasmiy mashqqa aylantiradi. Keyingi vazifaga qiziqishni uyg'otish qiyin bo'ladi.

2. Tarbiyaviy faoliyat jamoaviy faoliyatdir, rejalashtirish jamoaviy xarakterga ega bo'lishi kerak.

3. Rejalashtirish usullari va rejalashtirish metodologiyasini bilish zarur.

Tashkiliyatsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi. Faqatgina tashkiliylik bilan butun kompleks - ichki ishlar organlari o'qituvchilari va talabalari hamda resurslar - hayotiy jarayonni shakllantirishi mumkin. Faoliyatni tashkil etishning umumiy nazariyasi texnologiyaga asoslangan va ichki ishlar organlaridagi barcha toifadagi o'qituvchilar tomonidan ichki ishlarni tashkil qilishda hisobga olinishi kerak bo'lgan oltita qoidani taklif qiladi:

Kelgusi ishning maqsadini aniq tariflash, boshidan oxirigacha butun harakatning umumiy ko'rinishi (nimaga erishish kerak?). Har bir bo'ysunuvchi

uchun vazifalarning aniq ta'rifi (ularga qanday operatsiyalar orqali erishish mumkin?). Kelgusi ish uchun zarur bo'lgan hamma narsani tayyorlash (unga qanday yordam bilan erishish mumkin?). Natijalarni o'lchash uchun ishlash standartlarini belgilash (qancha natijalarga erishildi?).

Mas'uliyatni taqsimlash, oluvchi va hisobot berish vaqti (maqsadga erishishni qanday rag'batlantirish kerak?).

Ijrochilarga tashkiliy tizimni yaratish vositasi sifatida ko'rsatma berish (unga qanday erishish mumkin?).

Ushbu bosqichda ta'lim rahbarlari uchun tavsiyalar orasida quyidagilar mavjud.

Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda ishtirok etgan har bir kishining huquq va majburiyatlarini aniq belgilang. Vakolatlar chegaralarini belgilash juda tavsiya etiladi: o'z ishining natijalari uchun mas'ul bo'lgan har bir shaxs ma'lum bir shaxs oldida hisobot beradi. Vakolat bitta rahbar qo'lida to'planishi kerak; ikki tomonlama hokimiyatga yo'l qo'yilmaydi.

Har bir tarbiyaviy faoliyat a'zosiga ularning qobiliyatlari va istaklariga eng mos keladigan bitta funksiyani tayinlang.

Topshiriqlarni majburlamang;  
o'rganish ixtiyoriydir.

Shuni yodda tutingki, ba'zi xodimlar tashkiliy ko'nikmalarga ega emaslar. O'qituvchi uchun tushunarli va oson bo'lgan narsa talaba uchun oddiy emas. Osondan qiyingacha qoidasiga amal qilish va muvaffaqiyatga ishonchni saqlab qolish muhimdir.

Talabalaringsizga tashkilot kuchni o'n barobar oshirishi haqidagi fikrni o'rgating.

O'qituvchi loyiha to'liq yakunlanmaguncha uni nazorat qilishi kerak. Tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirish bosqichida ular ko'plab muhim daqiqalarga duch kelishadi.

U ishning rejalashtirilgan dasturining amalga oshirilishini kuzatib boradi, tayyorlangan ssenariy asosida uning borishini so'zlaydi va dispetcherlik funksiyalarini bajaradi.

Jamoani va alohida talabalarni kuzatib boradi, Tarbiyaviy faoliyat talabalarda ma'lum fazilatlarini rivojlantirishini yodda tutadi va keyingi ishlar uchun strategiyani belgilaydi.

Tashkiliy masalalarning aniq hal qilinishini ta'minlaydi.

Xodimlarni o'zining mavjudligi bilan cheklamaydi va ularning fikr va his-tuyg'ularini erkin ifoda etishlariga to'sqinlik qilmaydi.

Noto'g'ri xatti-harakatlarni qachon va qanday tuzatish kerakligi juda nozik savol: tahlilni kechiktirish kerakmi yoki darhol tuzatishlar kiritish kerakmi?

Sodir bo'lgan barcha narsalarni hujjatlashtirish va xotirjam va vazminlik bilan javob berish juda muhimdir.

Tarbiyaviy faoliyatning yakuniy bosqichida natijalar umumlashtiriladi. Guruh muhokamasi yoki ayrim pedagogik tahlil bo'lishi mumkin. Ushbu bosqichda maqsad muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarning sabablarini aniqlashdir. O'qituvchi quyidagi savollarga izchil javob berib, tasdiqlangan Tarbiyaviy faoliyat tahlil doirasiga amal qilishi tavsiya etiladi:

Tarbiyaviy faoliyatni tayyorlash va amalga oshirishning barcha jihatlari rejada aks ettirilganmi?

dastur mazmuni mo'ljallangan maqsadga mos keladimi yoki yo'qmi;

tashkilot darajasi mo'ljallangan maqsadlar, vazifalar va talablarga javob beradimi yoki yo'qmi;

rejalashtirilgan barcha choralar resurslar bilan yetarli darajada qo'llab-quvvatlanganmi;

ishning qaysi qismlari yaxshiroq ishladi, nima uchun;

ta'lim ishlari vaqt o'tishi bilan barqarormi?

kim va nima uchun muddatlarni o'tkazib yuborgan;

Tarbiyaviy faoliyat tizimni ifodalaganmi yoki u bo'shashgan bog'langan fragmentlar va qismlar to'plami edi;

yangilik samaradorligi bormidi;

o'quv ishining hissiy ranglanishi uning niyatiga mos keldimi;

ishning sifatidan, xodimlarning unga bo'lgan munosabatidan va bu ularni qanday masalalar haqida o'ylashga majbur qilganidan qoniqasizmi?

Tarbiyaviy faoliyatda ishtirok etgan jamoaning har bir a'zosi qanday bahoga loyiq?

o'quvchilarning xatti-harakati qanday edi;

nima uchun ba'zi xodimlarning muayyan pedagogik harakatlarga salbiy munosabat bildirish holatlari bo'lgan;

Keyingi tarbiyaviy faoliyatda nimadan voz kechish kerak va qanday yangi narsalarni kiritish kerak.

Tahlil qilishda hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, bog'liqliklarni, o'zaro ta'sirning eng samarali shakllarini izlash va sabab va oqibatlarini topish kerak.

Bu ichki ishlar organlaridagi o'quv jarayoni texnologiyasining algoritmi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

Ichki ishlar organlarida ta'lim texnologiyalarini yaratish va joriy etishdagi qiyinchiliklar bir qator ta'lim xususiyatlari bilan izohlanadi:

Keng va tor ma'noda tushunilgan ta'lim har bir aniq holatda noaniq ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim yaxlit xususiyatga ega; uni tarkibiy qismlarga ajratish qiyin, ya'ni o'qituvchining harakatlari uchun biror bir algoritm yaratish qiyin.

Ichki ishlar organlari xodimi ta'lim jarayonida ham o'qituvchi-tarbiyachining ta'sir ob'yekti, ham turli huquqni muhofaza qilish faoliyatining sub'yekti hisoblanadi.

Ta'lim ko'p faktorli jarayondir: ko'plab omillar, jumladan, o'z-o'zidan paydo bo'ladigan omillar, ichki ishlar organlarining ta'lim apparati faoliyatiga va ularning xodimlarining faoliyatiga o'z tuzatishlarini kiritadi.

Ta'limning uchta tarkibiy qismidan ikkitasi (o'qituvchi, talaba, jarayon) tirik odamlardir; ular sodir bo'ladigan barcha narsani ma'lum bir tarzda o'zlashtiradilar va ularning harakatlarini oldindan aytish qiyin; "ta'limga qarshilik" paydo bo'lishi mumkin, bu ma'lum darajada amalda o'zini namoyon qiladi.

Ta'lim hayot bilan chambarchas bog'liq: ta'lim bilan shug'ullanuvchilarning mantig'i va pozitsiyasi ularning shaxsiy va pedagogik nuqtai nazariga qarab qarama-qarshi bo'lishi mumkin; qarama-qarshiliklar ta'limni professional darajada, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati bilan bog'liq holda, kundalik yoki ilmiy darajada tushunishdan ham kelib chiqishi mumkin.

Ichki ishlar organlarining turli professor-o'qituvchilari o'rtasidagi ta'lim tushunchalaridagi farqlar va natijada u yoki bu xodimga yondashuvda turlicha o'qitish va tarbiya usullari.

Ta'limning maqsad va vazifalari ko'pincha mavhum kategoriyalar bilan bog'liq: "munosabatlar", "ma'naviyat", "sevgi", "o'zini-o'zi anglash", ular o'qituvchilar faoliyatida har doim ham ma'qullanmaydi va qo'llab-quvvatlanmaydi.

Ta'lim nazariyasi va metodologiyasi hissiyotsiz bo'lishi mumkin emas, chunki xodimlarga nisbatan sezgir munosabat o'qituvchining eng muhim fazilati bo'lib, uning ta'limdagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Ularning harakatlari ko'pincha sezgi asosida amalga oshiriladi.

Avval ta'kidlab o'tilganidek, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari uchun mavjud o'quv amaliyoti o'tish bosqichida – murabbiylar hali yaxshi shakllangan ilmiy metodologiya bilan ishlamayptilar, balki individuallikka qaratilgan o'quv vazifalariga intuitiv yondashuvdan asta-sekin uzoqlashmoqdalar. Tasdiqlangan, foydali texnologik yutuqlarni joriy etish tendentsiyasi, shuningdek, talablarni birlashtirish va standartlashtirish istagi sezilarli.

Ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish ma'lum bir pedagogik pozitsiyaga, ya'ni ma'lum bir ta'lim kontseptsiyasini va uni o'z pedagogik tajribasida amalga oshirish, uni yanada takomillashtirish va hamkasblarga etkazish uchun mos metodologiyani e'lon qilishga olib keladigan tanlovlar tizimiga asoslanadi.

Shunday qilib, o'qituvchi quyidagi tanlovlarni amalga oshiradi:

- Ta'limning asosiy paradigmasiga bo'lgan munosabatingizni aniqlash zarurati; Ta'lim tushunchasi va mohiyatining o'zi uchun aniq formulasi (ko'plab zamonaviy ta'riflardan);

- Ta'limning maqsadlari va strategik vazifalarini aniq shakllantirish;
- Taktik vazifalarni tanlashda aniqlik, rejalashtirishning aniqligi;
- Usullar va texnikalar tizimini tanlash, ta'lim vositalarini tanlash;
- Ta'lim mazmunini tanlash.

Maqsad va vazifalarni eng to'liq amalga oshiradigan ta'limning tashkiliy shakllari tizimini tanlash.

Talabalar bilan munosabatlar uslubi va ohangini tanlash.

Shunday qilib, ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi bilan ishlashda ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari, birinchi navbatda, ichki ishlar organlarida ta'lim ishlarining maqsad va vazifalari, uning mazmunini

o‘ziga xos xususiyatlari, usul va texnikalarning o‘ziga xos xususiyatlari, amalga oshirish shakllari va vositalari bilan belgilanadi.

### **Xulosa va takliflar**

Olib borilgan keng qamrovli tadqiqotlar va tahliliy natijalarga ko‘ra quyidagi kengaytirilgan xulosa va takliflarni keltirish mumkin:

*Birinchi*dan, IIO xodimlarida kasbiy sadoqatni shakllantirish – bu shunchaki axloqiy suhbatlar yig‘indisi emas, balki shaxsning qadriyatlar tizimini qayta qurishga yo‘naltirilgan kompleks pedagogik jarayondir. Ushbu jarayonda xodimning shaxsiy manfaatlari bilan davlat manfaatlarining dialektik birligini ta‘minlash muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

*Ikkinchi*dan, pedagogik imkoniyatlarni kengaytirish uchun ichki ishlar organlari tizimida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda “Virtual xizmat keyslari”ni joriy etish lozim. Bu orqali xodimlar murakkab axloqiy-huquqiy vaziyatlarda sadoqat va qonuniylikni qanday saqlab qolishni simulyatsion tarzda o‘rganadilar.

*Uchinchi*dan, xodimlarning ma‘naviy qiyofasini shakllantirishda “ajdodlar merosi – kasbiy tayanch” tamoyili asosida buyuk sarkardalar va davlat arboblarning hayoti va faoliyatini o‘rganishga qaratilgan maxsus kurslarni tizimlashtirish zarur.

*To‘rtinchi*dan, sadoqatni tarbiyalashda jamoaviy pedagogikaning roli beqiyosdir. Korporativ ruhni shakllantirish, bir-biriga o‘zaro ishonch va yelkadoshlik hissini uyg‘otish orqali xizmat intizomini buzishga nisbatan “jamoaviy immunitet”ni hosil qilish mumkin.

*Beshinchi*dan, xodimlarni rag‘batlantirish tizimida nafaqat moddiy, balki ma‘naviy-pedagogik omillarga (masalan, ota-onasiga tashakkurnoma, mahalla ahliga ijobiy tavsifnoma) ustuvorlik berish kasbiy sadoqatning barqarorligini ta‘minlaydi.

Umumiy yakuniy xulosa shuki, pedagogik imkoniyatlardan samarali foydalanib, aniq va to‘g‘ri tarbiyalangan ichki ishlar xodimi – huquqiy davlatning eng ishonchli himoyachisi va posboni hamda xalqchil hamkor do‘sti deb atasak, ayni muddao, mubolag‘a bo‘lmaydi.

**REZYUME**

Maqolada ilmiy adabiyotlar tahlili asosida O‘zbekistonda shakllanishining turli davrlariga xos bo‘lgan ichki ishlar organlari xodimlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning tarixiy va pedagogik asoslari aniqlangan. Vatanparvarlik tarbiyasining mohiyatini, uning maqsadlari, vazifalari va mazmunini tushunishga turli yondashuvlar taqdim etilgan. Ichki ishlar organlari xodimlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash genezisining muallif tomonidan vatanparvarlikka yo‘naltirilgan ta’lim jarayonidagi sifat o‘zgarishlarini tavsiflovchi talqini taklif qilingan.

\*\*\*\*\*

В статье на основе анализа научной литературы определены историко-педагогические основы патриотического воспитания сотрудников органов внутренних дел, характерные для разных периодов их формирования. Представлены различные подходы к пониманию сущности патриотического воспитания, его целей, задач и содержания. Автор предлагает интерпретацию генезиса патриотического воспитания сотрудников органов внутренних дел, характеризуя качественные изменения в образовательном процессе, направленном на формирование патриотизма.

\*\*\*\*\*

The article, based on the analysis of scientific literature, identifies the historical and pedagogical foundations of patriotic education of internal affairs officers, characteristic of different periods of the formation . Various approaches to understanding the essence of patriotic education, its goals, objectives and content are presented. The author offers an interpretation of the genesis of patriotic education of internal affairs officers, characterizing the qualitative changes in the educational process aimed at patriotism.

**Zafarbek BOBOQULOV,**  
*Malaka oshirish instituti bosh inspektori, podpolkovnik*

## **CHIN YURTI POLITSIYA TIZIMIDA XIZMAT INTIZOMINI TA'MINLASHNING AYRIM JIHATLARI VA AHAMIYATI**

Har qanday davlatning barqaror rivojlanishi, qonun ustuvorligi va jamoat xavfsizligini ta'minlashda huquq-tartibot organlari muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, politsiya tizimi davlat va jamiyat o'rtasidagi muhim institutsional ko'prik vazifasini bajaradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, politsiya xodimlarining kasbiy madaniyati, axloqiy fazilatlari va xizmat intizomi nafaqat huquqiy tizim samaradorligini, balki jamiyatning davlat organlariga bo'lgan ishonch darajasini ham belgilab beradi. Chunonchi, Xitoy Xalq Respublikasida huquq-tartibotni ta'minlash tizimida Xalq politsiyasi markaziy o'rin tutadi. Ushbu tizim davlat xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, Xitoy politsiyasi faqatgina jazolovchi yoki nazorat qiluvchi organ sifatida emas, balki davlat barqarorligi va ijtimoiy adolatni ta'minlovchi strategik institut sifatida qaraladi.

Politsiya faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish maqsadida 1995 yil 28 fevralda Xitoy Xalq Respublikasining **“Xalq politsiyasi to'g'risida”**gi qonuni qabul qilingan. Ushbu qonun politsiya faoliyatining asosiy tamoyillari, vazifalari, vakolatlari, shuningdek politsiya xodimlarining huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. Shu bilan birga, mazkur hujjat politsiya xodimlarining kasbiy madaniyati, xizmat intizomi va axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi muhim huquqiy asos hisoblanadi.

Xitoyda politsiya xodimlarining kasbiy madaniyati davlat boshqaruvining umumiy falsafasi, milliy an'analar va zamonaviy huquqiy normalar uyg'unligi asosida shakllangan. Bu tizimda politsiya xodimi faqatgina qonun ijrochisi sifatida emas, balki jamiyatga xizmat qiluvchi, fuqarolarning ishonchini qozona oladigan va yuqori axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan davlat xizmatchisi sifatida qaraladi. Shu bois Xitoy huquqiy tizimida politsiya xodimlarining xizmat intizomi va kasbiy madaniyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Xitoyda politsiya madaniyatini toʻliq tushunish uchun bir qator muhim konseptual jihatlariga eʼtibor qaratish lozim. Ular orasida “xalqqa xizmat qilish” tamoyili, qonun ustuvorligi va xizmat intizomi, hamda zamonaviy boshqaruv va axloqiy qadriyatlar uygʻunligi alohida ahamiyatga ega.

**Birinchi navbatda** Xitoy politsiyasi faoliyatining asosiy gʻoyaviy poydevori “xalqqa xizmat qilish” tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyil davlat boshqaruvi falsafasida muhim oʻrin tutadi va politsiya faoliyatida ham oʻz aksini topgan. Xitoy politsiyasi nomidagi “Xalq politsiyasi” (人民警察) atamasi bevosita politsiya faoliyatining asosiy maqsadi — xalq manfaatlariga xizmat qilish ekanligini ifodalaydi.

Mazkur tamoyilga koʻra, politsiya organlari faqat qonunni ijro etuvchi organ emas, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi institut hisoblanadi. 1995 yilgi Qonunning 3-moddasida politsiya organlari oʻz faoliyatida ommaning qoʻllab-quvvatlashiga tayanishlari, fuqarolar bilan hamkorlik qilishlari va jamoatchilik bilan uzviy aloqada boʻlishlari lozimligi taʼkidlangan. Bu esa politsiya va aholi oʻrtasida oʻzaro ishonch va hamkorlik munosabatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Ikkinchi muhim jihat** — qonun ustuvorligi va xizmat intizomi tamoyilidir. Xitoyda politsiya xodimlarining faoliyati qatʼiy huquqiy normalar asosida amalga oshiriladi. Politsiya xizmatining samaradorligi, birinchi navbatda, uning intizomi va masʼuliyati bilan belgilanadi. Shu sababli politsiya tizimida xizmat intizomiga rioya qilish davlat siyosati darajasida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Qonun politsiya tizimida axloqiy va xizmat intizomi normalarini huquqiy jihatdan mustahkamladi. Qonunning 1-moddasida taʼkidlanganidek, politsiya organlarini qonun asosida boshqarish, ular faoliyati ustidan qatʼiy nazorat oʻrnatish va shaxsiy tarkib sifatini oshirish davlat xavfsizligi hamda ijtimoiy barqarorlikning muhim kafolati hisoblanadi. Bu norma politsiya xodimlaridan nafaqat professional bilim va koʻnikmalarni, balki yuqori darajadagi intizom va masʼuliyatni talab qiladi.

**Uchinchi muhim jihat** — zamonaviy boshqaruv va axloqiy qadriyatlar uygʻunligidir. Xitoy politsiyasi tizimida milliy anʼanalar, konfutsiychilik axloq falsafasi va zamonaviy huquqiy davlat prinsiplari oʻzaro uygʻunlashgan. Bu esa politsiya xodimlarining faoliyatida nafaqat huquqiy bilimlar, balki yuksak maʼnaviy fazilatlar ham muhim oʻrin tutishini taʼminlaydi. Umuman olganda,

politsiya xodimi jamiyat uchun namuna bo'lishi lozim bo'lgan davlat xizmatchisi sifatida qaraladi. U o'z xizmat vazifalarini bajarishda adolatlilik, halollik, mas'uliyat va intizom kabi axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi talab etiladi. Shu bilan birga, politsiya xodimlari aholi bilan muloqot qilish madaniyatiga ega bo'lishlari, fuqarolar huquq va erkinliklarini hurmat qilishlari va o'z xizmat vazifalarini yuqori kasbiy madaniyat asosida amalga oshirishlari zarur.

Darvoqe, Xitoy Xalq Respublikasida politsiya xodimlarining kasbiy madaniyati va xizmat intizomi davlat boshqaruvining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Uning konseptual asoslari "xalqqa xizmat qilish", qonun ustuvorligi, qat'iy xizmat intizomi va yuksak axloqiy qadriyatlar kabi prinsiplarga tayanadi. Mazkur tamoyillar politsiya tizimining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash bilan birga, jamiyatda qonunga hurmat va davlat institutlariga ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xitoy Xalq Respublikasi politsiyasi to'g'risidagi qonunining tarkibiy tuzilishi juda tizimli va mantiqiy ketma-ketlikda ishlab chiqilgan. U jami 8 ta bob va 52 ta moddadan iborat bo'lib, politsiya faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oladi. Mazkur qonun tuzilishi jihatidan "**Vazifa — Vakolat — Majburiyat — Kafolat — Nazorat**" zanjirini tashkil etadi. Bu tizim politsiyaning ham samarali ishlashini, ham qonun doirasida qolishini ta'minlaydi. Xitoy Xalq Respublikasida politsiya xodimlarining kasbiy madaniyati va xizmat intizomi "Xalq politsiyasi to'g'risida"gi qonunga muvofiq to'rtta o'zaro bog'liq tizimli yo'nalishga ajratish mumkin. *Jumladan:*

**Birinchisi kasbiy madaniyat va odob-axloq qoidalari.** Xitoy Xalq Respublikasida politsiya xodimlarining xizmat madaniyati va odob-axloq me'yorlari huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo'lib, ularning asosiy talablari **Qonunining III bobida (20–21-moddalar)** belgilab berilgan. Ushbu normalar politsiya xodimlarining xizmat davomidagi xulq-atvori, jamiyat bilan munosabati va kasbiy etikasini tartibga soladi. Xitoy qonunchiligiga ko'ra, politsiya xodimi nafaqat qonunni amalga oshiruvchi davlat xizmatchisi, balki jamiyat uchun axloqiy namuna bo'lishi lozim bo'lgan shaxs sifatida qaraladi. Shu sababli politsiya xodimlaridan yuqori darajadagi kasbiy madaniyat, yuksak ma'naviy fazilatlar va fuqarolarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish talab etiladi. Qonun politsiya xodimlarining axloqiy fazilatlarini bir necha asosiy prinsiplar orqali belgilab beradi. Xususan:

**Adolat va xolislik prinsipi** - politsiya xodimining kasbiy faoliyatida eng muhim talablardan biri hisoblanadi. Xitoy qonunchiligiga muvofiq, politsiya xodimi qonunni amalga oshirish jarayonida shaxsiy manfaatlardan, shaxsiy munosabatlardan yoki tashqi ta'sirlardan mutlaqo mustaqil bo'lishi kerak. Adolat prinsipi politsiya faoliyatida barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini ta'minlashga qaratilgan. Politsiya xodimi har qanday holatda qonun talablariga asoslanib qaror qabul qilishi, mansab vakolatlaridan shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalanmasligi lozim. Xolislik politsiya xodimining kasbiy nufuzini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Agar politsiya xodimi qaror qabul qilishda xolis va adolatli bo'lsa, bu jamiyatda davlat organlariga nisbatan ishonchni mustahkamlaydi.

**Xushmuomalalik va muloqot madaniyati** - politsiya xodimining aholi bilan munosabati uning kasbiy madaniyatining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Xitoy qonunchiligiga ko'ra, politsiya xodimi fuqarolar bilan muloqot qilishda vazmin, xushmuomala va madaniyatli bo'lishi shart. Xizmat vazifalarini bajarish jarayonida politsiya xodimi fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi, ularga nisbatan qo'pol yoki haqoratli munosabatda bo'lmasligi lozim. Xushmuomalalik faqatgina axloqiy talab emas, balki politsiya faoliyati samaradorligini oshiruvchi omil ham hisoblanadi. Fuqarolar bilan madaniyatli va hurmat asosida muloqot qilish orqali politsiya organlari aholining ishonchini qozonadi va jamoatchilik bilan hamkorlikni mustahkamlaydi.

**Milliy an'analar va urf-odatlariga hurmat** - Xitoy Xalq Respublikasi ko'p millatli va ko'p madaniyatli davlat hisoblanadi. Shu sababli politsiya xodimlari faoliyatida aholining milliy an'analari, urf-odatlari va turmush tarziga hurmat bilan munosabatda bo'lish alohida ahamiyatga ega. Qonun politsiya xodimlaridan fuqarolarning madaniy qadriyatlarini hisobga olishni, ularning urf-odatlari va diniy e'tiqodlariga hurmat bilan qarashni talab qiladi. Bu tamoyil ayniqsa turli millat va madaniyat vakillari yashaydigan hududlarda jamoat tartibini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. An'analarga hurmat bilan munosabatda bo'lish politsiya organlari va aholi o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlaydi.

**Kasbiy madaniyatning jamiyat uchun ahamiyati** - Xitoyda politsiya xodimlarining kasbiy madaniyati va axloqiy fazilatlari davlat siyosati darajasida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Politsiya xodimlari jamiyatda qonun

ustuvorligini ta'minlovchi asosiy institutlardan biri bo'lgani uchun ularning xulq-atvori va xizmat madaniyati butun huquq-tartibot tizimining nufuziga ta'sir ko'rsatadi. Yuksak kasbiy madaniyatga ega politsiya xodimi jamiyatda qonunga hurmatni kuchaytiradi, fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini oshiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun Xitoyda politsiya xodimlarini tayyorlash jarayonida nafaqat huquqiy bilimlar, balki axloqiy tarbiya, xizmat etikasi va muloqot madaniyatiga ham katta e'tibor qaratiladi.

**Ikkinchisi, xizmat intizomi va qat'iy taqiqlar.** Politsiya organlarining samarali faoliyat yuritishi, avvalo, ulardagi xizmat intizomi darajasiga bog'liq. Xitoy Xalq Respublikasida politsiya tizimida intizomga alohida e'tibor qaratiladi va u politsiya xizmatining asosiy ustuni sifatida baholanadi. Xizmat intizomi politsiya xodimlarining xizmat vazifalarini qonun asosida, qat'iy tartib va mas'uliyat bilan bajarishini ta'minlovchi muhim mexanizm hisoblanadi. Xitoy qonunchiligida politsiya xodimlarining xizmat intizomi va ular uchun belgilangan taqiqlar **Qonunining 22-moddasida** mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu modda politsiya xodimlari uchun bir qator qat'iy cheklovlar va taqiqlarni belgilaydi. Bu taqiqlar ko'pincha "qizil chiziqlar" deb ataladi, ya'ni ularni buzish politsiya xodimi uchun og'ir intizomiy jazo yoki hatto jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin. Politsiya xodimlari qonun va xizmat intizomi talablariga rioya qilishlari, davlat va jamiyat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishlari shart. Shu nuqtai nazardan, qonun politsiya xodimlariga bir qator faoliyat turlarini qat'iy taqiqlaydi. Jumladan:

**Siyosiy intizom** – Xitoy davlat boshqaruv tizimida siyosiy barqarorlik va davlat manfaatlarini himoya qilish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli politsiya xodimlari siyosiy intizomga qat'iy rioya qilishlari shart. Qonunga ko'ra, politsiya xodimlari davlat obro'siga putur yetkazuvchi bayonotlar berish, davlat siyosatini ochiq tanqid qilish yoki davlat manfaatlariga zid bo'lgan harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega emas. Shuningdek, ularga noqonuniy namoyishlar yoki ommaviy tartibsizliklarda ishtirok etish qat'iy taqiqlanadi. Bu talab politsiya organlarining siyosiy betarafliigi va davlat manfaatlariga sodiqligini ta'minlashga qaratilgan.

**Shaxsiy daxlsizlikni buzishga yo'l qo'ymaslik** - politsiya faoliyatida inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish muhim tamoyillardan biri

hisoblanadi. Shu sababli Xitoy qonunchiligi politsiya xodimlariga fuqarolarning shaxsiy daxlsizligiga tajovuz qilishni qat'iy taqiqlaydi. Qonunga muvofiq, politsiya xodimlari tomonidan qiynoqlarga solish, jismoniy jazo berish, fuqarolarga nisbatan zo'rvonlik ishlatish yoki ularni tahqirlash kabi harakatlar mutlaqo man etilgan. Shuningdek, noqonuniy tintuv o'tkazish, fuqarolarni asossiz ravishda hibsga olish yoki ularning huquqlarini cheklash ham qonun buzilishi hisoblanadi. Bu normalar fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

**Iqtisodiy jinoyatlar va manfaatlar to'qnashuvi** - politsiya xodimlarining halolligi va pokligi huquq-tartibot tizimiga bo'lgan jamoat ishonchining asosiy omili hisoblanadi. Shu sababli Xitoy qonunchiligi politsiya xodimlarining iqtisodiy faoliyatiga nisbatan ham qat'iy cheklovlar belgilaydi. Qonunga ko'ra, politsiya xodimlariga pora olish, mansab vakolatlaridan foydalanib shaxsiy manfaat orttirish, reket yoki boshqa noqonuniy iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish qat'iy taqiqlanadi. Bundan tashqari, politsiya xodimlariga tijorat tashkilotlarida ishlash, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish yoki shaxsiy biznes yuritish ham man etiladi. Bu taqiqlar manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga qaratilgan.

**Davlat va xizmat sirlarini saqlash** - politsiya organlari faoliyatida davlat xavfsizligi va jamoat tartibi bilan bog'liq muhim ma'lumotlar mavjud bo'ladi. Shu sababli politsiya xodimlari davlat va xizmat sirlarini saqlash bo'yicha qat'iy majburiyatga ega. Qonunga ko'ra, politsiya xodimi xizmat vazifalarini bajarish jarayonida olingan maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilishga haqli emas. Davlat sirlari, jinoiy ishlar bo'yicha ma'lumotlar, operativ ma'lumotlar yoki xizmat faoliyatiga oid boshqa maxfiy ma'lumotlarni tarqatish qonunbuzarlik hisoblanadi. Davlat va xizmat sirlarini saqlash politsiya xodimining muhim xizmat majburiyatlaridan biri hisoblanadi.

**Xizmat intizomining ahamiyati** - Chin politsiyasi tizimida xizmat intizomi politsiya organlarining barqaror va samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydigan asosiy omil hisoblanadi. Intizomga qat'iy rioya qilish orqali politsiya organlari o'z vazifalarini samarali amalga oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, xizmat intizomi politsiya

xodimlarining shaxsiy mas'uliyatini oshiradi va ularning kasbiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

### **Uchinchi, yuqori turuvchi organlarning buyruqlariga bo'ysunish**

Politsiya tizimida xizmat intizomini ta'minlashda boshqaruv ierarxiyasi va buyruqlar tizimi muhim o'rin tutadi. Xitoy Xalq Respublikasida politsiya organlari markazlashgan boshqaruv tamoyili asosida faoliyat yuritadi. Bu esa politsiya tizimida xizmat intizomi, tezkorlik va samaradorlikni ta'minlashda yuqori turuvchi rahbariyatning buyruqlariga bo'ysunish prinsipini muhim ahamiyatga ega qiladi. **Qonuning 32-moddasiga** muvofiq, politsiya xodimi xizmat vazifalarini bajarish jarayonida yuqori turuvchi rahbariyat tomonidan berilgan buyruq va qarorlarni so'zsiz bajarishi shart. Bu norma politsiya tizimida qat'iy xizmat intizomini ta'minlash, xizmat vazifalarini muvofiqlashtirish va huquq-tartibotni ta'minlashda tezkor qaror qabul qilish imkoniyatini yaratishga qaratilgan.

Politsiya organlari ko'p hollarda favqulodda vaziyatlar, jinoyatchilikka qarshi kurashish, ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish yoki jamoat xavfsizligini ta'minlash kabi tezkorlikni talab qiladigan sharoitlarda faoliyat yuritadi. Bunday vaziyatlarda xizmatchilarning buyruqlarni kechiktirmasdan va aniq bajarishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli politsiya tizimida boshqaruv ierarxiyasiga rioya qilish xizmat intizomining asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, qonun politsiya xodimiga ma'lum darajada fikr bildirish huquqini ham beradi. Agar xodim berilgan buyruqni noto'g'ri yoki samarasiz deb hisoblasa, u o'z fikri va taklifini rahbariyatga bildirishi mumkin. Bu politsiya tizimida qaror qabul qilish jarayonida amaliy tajribaga ega xodimlarning fikrlarini inobatga olishga xizmat qiladi.

Qonunga ko'ra, agar politsiya xodimi rahbariyat buyrug'ini bajarsa va bu buyruqning natijasida muayyan salbiy oqibatlar yuzaga kelsa, asosiy javobgarlik buyruqni bergan rahbar zimmasiga yuklanadi. Bu norma politsiya xodimlarini asossiz ayblovlardan himoya qilishga xizmat qiladi.

Biroq politsiya tizimida faqatgina so'zsiz bo'ysunish tamoyili emas, balki qonun ustuvorligi ham muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, qonun politsiya xodimlarini noqonuniy buyruqlarni bajarishga majbur qilmaydi. Qonunning 33-moddasiga muvofiq, agar politsiya xodimi berilgan buyruq

qonun talablariga zid deb hisoblasa, u ushbu buyruqni bajarishdan bosh tortish huquqiga ega.

Bunday holatda politsiya xodimi noqonuniy buyruq haqida yuqori turuvchi rahbariyatga yoki tegishli nazorat organlariga xabar berishi lozim. Bu mexanizm politsiya tizimida qonun ustuvorligini ta'minlash, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish holatlarining oldini olish va xizmat intizomini huquqiy asosda mustahkamlashga xizmat qiladi.

### **To'rtinchisi, nazorat va javobgarlik mexanizmlari**

Politsiya organlarining faoliyati samarali va qonuniy bo'lishi uchun ular ustidan doimiy nazorat amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Xitoy Xalq Respublikasida politsiya faoliyati ustidan nazorat qilish tizimi bir nechta bosqichdan iborat bo'lib, u ichki nazorat, tashqi nazorat va jamoatchilik nazorati kabi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Bu tizim politsiya xodimlarining xizmat vazifalarini qonun asosida bajarishini ta'minlash, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish holatlarining oldini olish va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

**Ichki nazorat tizimi** - Xitoy politsiyasi tizimida ichki nazorat muhim o'rin tutadi. Ichki nazorat deganda politsiya organlari tizimi ichida yuqori turuvchi organlar tomonidan quyi bo'g'inlar faoliyati ustidan amalga oshiriladigan tekshiruv va nazorat tushuniladi. Ichki nazorat tizimi politsiya organlari faoliyatida intizomni mustahkamlash, xizmat samaradorligini oshirish va qonun talablariga rioya etilishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ichki nazorat politsiya tizimida rahbarlarning mas'uliyatini ham oshiradi, chunki har bir rahbar o'z qo'l ostidagi xodimlar faoliyati uchun ma'lum darajada javobgar hisoblanadi.

**Tashqi nazorat organlari** - politsiya organlari faoliyati ustidan nazorat faqat ichki tizim bilan cheklanib qolmaydi. Xitoyda politsiya faoliyati ustidan tashqi davlat organlari tomonidan ham nazorat amalga oshiriladi. Bunday nazorat, asosan, xalq prokuraturasi va ma'muriy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Xalq prokuraturasi politsiya organlarining jinoyat ishlarini yuritish jarayonida qonun talablariga rioya qilishini nazorat qiladi. Ma'muriy nazorat organlari esa politsiya organlarining xizmat faoliyati, xizmat intizomi va davlat xizmati qoidalariga rioya etilishini tekshirib boradi. Bu organlar politsiya

xodimlarining xizmat vazifalarini qonuniy va halol bajarishini ta'minlashga qaratilgan nazoratni amalga oshiradi.

**Jamoatchilik nazorati** - politsiya organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati ham muhim ahamiyatga ega. Qonun fuqarolarga politsiya xodimlarining noqonuniy harakatlari yoki xizmat vazifalarini noto'g'ri bajarishi holatlari bo'yicha shikoyat qilish huquqini beradi. Qonunning 46-moddasiga muvofiq, har bir fuqaro yoki tashkilot politsiya xodimi ustidan shikoyat qilish huquqiga ega. Bu shikoyatlar tegishli davlat organlari tomonidan zudlik bilan qabul qilinishi va tekshirilishi shart. Jamoatchilik nazorati politsiya organlari va aholi o'rtasida ishonchli munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Fuqarolarning nazorat jarayonida ishtirok etishi politsiya faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini ta'minlaydi.

**Intizomiy javobgarlik va jazo choralari** - politsiya xodimlari tomonidan qonun talablari yoki xizmat intizomi qoidalari buzilgan taqdirda, ularga nisbatan intizomiy yoki jinoiy javobgarlik choralari qo'llaniladi.

Intizomiy jazolar politsiya xodimining sodir etgan qonunbuzarligi yoki xizmat intizomiga zid harakatining og'irlik darajasiga qarab belgilanadi. Bunday jazo choralari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- *hayfsan berish;*
- *rasmiy ogohlantirish;*
- *lavozimini pasaytirish;*
- *xizmatdan chetlatish;*
- *davlat xizmatidan bo'shatishda qo'llaniladi.*

Agar politsiya xodimining harakatlari jinoyat alomatlariga ega bo'lsa, unga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilishi va sud orqali jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Bu holatda politsiya xodimi boshqa fuqarolar kabi qonun oldida teng javobgarlikka ega bo'ladi. Intizomiy va jinoiy javobgarlik mexanizmlari politsiya organlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlash, xizmat intizomini mustahkamlash va mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

**Yuqorida keltirilgan tahlillardan ko'rinib turibdiki,** Xitoy Xalq Respublikasida politsiya xodimlarining kasbiy madaniyati va xizmat intizomi davlat boshqaruvi tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Politsiya organlari jamoat xavfsizligini ta'minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlash va

fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini himoya qilishda markaziy o‘rin tutadi. Shu bois politsiya xodimlarining kasbiy tayyorgarligi, axloqiy fazilatlarini va xizmat intizomi davlat siyosati darajasida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qonun politsiya faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Ushbu qonun politsiya organlarining vazifalari, vakolatlari, majburiyatlari va faoliyat tamoyillarini belgilab berish bilan birga, politsiya xodimlarining kasbiy madaniyati, xizmat intizomi va axloqiy qiyofasini shakllantirishga ham huquqiy asos yaratadi.

Taxlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Xitoy politsiyasida kasbiy madaniyat va xizmat intizomi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan to‘rtta asosiy yo‘nalish orqali ta‘minlanadi. Jumladan:

**Birinchi yo‘nalish** – politsiya xodimlarining kasbiy madaniyati va axloqiy fazilatlarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lib, u adolat, xolislik, xushmuomalalik va fuqarolarga hurmat kabi tamoyillarga asoslanadi. Bu talablar politsiya faoliyatida jamiyat bilan o‘zaro ishonch va hamkorlik munosabatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Ikkinchi yo‘nalish** – politsiya xodimlarining xizmat intizomi va ular uchun belgilangan qat‘iy taqiqlar bilan bog‘liqdir. Qonun politsiya xodimlariga pora olish, vakolatlarni suiiste‘mol qilish, fuqarolarga nisbatan zo‘ravonlik qo‘llash, davlat sirlarini oshkor qilish va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish kabi harakatlarni qat‘iy taqiqlaydi. Bu cheklovlar politsiya faoliyatida halollik, adolat va mas‘uliyat prinsiplarini ta‘minlashga qaratilgan.

**Uchinchi muhim yo‘nalish** – politsiya tizimida boshqaruv ierarxiyasi va yuqori turuvchi organlar buyruqlariga bo‘ysunish prinsipi bilan bog‘liqdir. Politsiya xodimlari xizmat vazifalarini bajarishda rahbariyat tomonidan berilgan qonuniy buyruqlarni so‘zsiz bajarishlari lozim. Shu bilan birga, qonun politsiya xodimlariga noqonuniy buyruqlarni bajarmaslik huquqini ham beradi. Bu esa politsiya tizimida xizmat intizomi bilan bir qatorda qonun ustuvorligini ham ta‘minlaydi.

**To‘rtinchi yo‘nalish** politsiya faoliyati ustidan amalga oshiriladigan nazorat va javobgarlik mexanizmlari bilan bog‘liq. Xitoyda politsiya organlari faoliyati ustidan ichki nazorat, prokuror nazorati va jamoatchilik nazorati kabi ko‘p bosqichli mexanizmlar amal qiladi. Ushbu tizim politsiya xodimlari tomonidan qonun buzilishlarining oldini olish, mansab vakolatlarni suiiste‘mol

qilish holatlarini cheklash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Xitoy Xalq Respublikasida politsiya xodimlarining kasbiy madaniyati va xizmat intizomi huquqiy, institutsional va axloqiy mexanizmlar uyg'unligi asosida shakllantirilgan. Bu tizim politsiya faoliyatining samaradorligini ta'minlash, jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlash va fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini oshirishda muhim ahamiyatga egadir.

### REZYUME

Mazkur maqolada Xitoy Xalq Respublikasi politsiya tizimida xizmat intizomini ta'minlanishining ahamiyati tahlil qilingan. "*Xalq politsiyasi to'g'risida*" gi qonun asosida politsiya xodimlarining huquq va majburiyatlari, xizmat intizomi hamda kasbiy axloq tamoyillari o'rganilgan. Shuningdek, politsiya faoliyatida qonuniylik, adolat va jamoat xavfsizligini ta'minlashda kasbiy madaniyatning ahamiyati yoritilgan.

\*\*\*\*\*

В данной статье анализируется важность обеспечения служебной дисциплины в полицейской системе Китайской Народной Республики. На основе Закона "О народной полиции" изучены права и обязанности сотрудников полиции, принципы служебной дисциплины и профессиональной этики. Также освещается важность профессиональной культуры в обеспечении законности, справедливости и общественной безопасности в деятельности полиции.

\*\*\*\*\*

This article analyzes the importance of ensuring service discipline in the police system of the People's Republic of China. Based on the Law "On the People's Police," the rights and obligations of police officers, the principles of service discipline and professional ethics were studied. The importance of professional culture in ensuring legality, justice, and public safety in police activities is also highlighted.

- *Саломатлик – туман бойлик*

**Ражаббой МАШАРИПОВ,**  
*Малака ошириш институти Махсус-касбий фанлар кафедраси*  
*профессори, тиббий фанлар доктори*

### **ИЧКИ ИШЛАР ХОДИМЛАРИДА “СОҒЛОМ ТУРМУШ” ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ЎРНИ**

Мамлакатимизда аҳоли саломатлигини янада мустаҳкамлаш учун халқимиз онги ва маданиятига соғлом турмуш тарзини сингдириш ўта муҳим бурчимиздир. Халқимизни ижтимоий муҳофазаси ва оила манфаатини ҳимоя қилиш, жамиятимизда аёлларнинг мавқеини ошириш ҳамда соғлом авлодни вояга етказиш ҳукуматимиз сиёсатининг устувор йўналишларидан ҳисобланади. Муҳтарам юртбошимизнинг ташаббуси билан Олий ва халқ таълими ҳамда тиббиёт тизимларида изчиллик билан олиб борилаётган туб ислохотлар самараси яққол кўзга ташланмоқда. Бу ёшларимизга таълим бериш ва тарбиялашга, оналар ва болалар соғлигини муҳофаза қилишга, ҳар бир оилада соғлом турмуш тарзини шакллантириб, сихат-саломатлигини яхшилашга ҳамда соғлом авлодни тарбиялаш учун изчил ва тинимсиз фаолият кўрсатиш самарадорлигидир.

Дунёга келаётган фарзанд жисмонан соғлом, етук, билимдон, кучли-иродали, садоқатли, бенуқсон, ҳар жиҳатдан тўқис бўлиб туғилса, бу нафақат ота-она ва оила аъзоларига, балки жамиятга ҳам туганмас бахт ва шодлик келтиради. Зеро, мамлакат келажаги кўп жиҳатдан ана шундай баркамол ёш авлодга боғлиқ. Шу боис ҳомиланинг бенуқсон эканлигини олдиндан аниқлаш, ўғилми-қизми 7-хафталигида билиш мақсадида она ва бола скрининг текширув марказлари яхши йўлга қўйилган.

Соғлом фарзанд дунёга келишига замин ҳозирлайдиган ишлардан яна бири репродуктив саломатликни яхшилашга эришишдир. Ҳозирги кунда соғлиқни сақлаш тизими ва ижтимоий ҳаётнинг барча жабҳаларида ана шу масалага жиддий эътибор қаратилмоқда. Вазирлар Маҳкамасининг “Никоҳланувчи шахсларни тиббий кўрикдан ўтказишни ташкил этишга оид чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори бу борада жуда муҳим дастурий амал бўлмоқда. Унга кўра, ёш келин-куёвлар оила қуришдан олдин тиббий

кўриқдан ўтказилади. Бу албатта, ота-оналар саломатлигини мустаҳкамлаш, никоҳлаш оннда соғлом фарзанд дунёга келишини таъминлаш, келажак авлод камолоти учун салбий таъсир этадиган баъзи хатолар ва оғир саломатлик муаммоларининг олдини олишга хизмат қилади.

Соғлом турмуш тарзини аҳоли онгига сингдириш ва шакллантириш учун куйидаги ўнта сир-синоатини ҳавола қиламиз:

1. *Ақл кучи;*
2. *Нафас олиш кучи;*
3. *Жисмоний машқлар кучи;*
4. *Тўғри овқатланиш сири;*
5. *Кулги сири;*
6. *Дам олиш сири;*
7. *Қоматни тўғри тутуш сири;*
8. *Ташиқи муҳит кучи;*
9. *Ишонч кучи;*
10. *Муҳаббат кучи.*

APPLE компаниясининг асосчиси миллиардер Стив Джобс 56 ёшида ошқозон рак касаллиги туфайли вафот этган. Унинг васиятини келтирамиз:

Тадбиркорлик оламида юқори натижаларга эришдим. Бошқаларнинг назарида менинг ҳаётим омад ва муваффақиятлардан иборат. Лекин, менинг ишдан бошқа хурсандчилигим деярли йўқ эди. Бойлик бу мен ўрганиб қолган ҳаётим таянчи, холос. Мен ҳозирги ҳолатимда, яъни касал бўлиб ётганим ҳолда ҳаётимни сарҳисоб қилмоқдаман. Ва шуни тушуниб етдимки, бойликларим маъносиз?! Айниқса, ўлим олдида улар арзимас нарса. Сиз пул бериб ҳайдовчи ёки машина сотиб олишингиз мумкин. Пул ишлаб қандайдир эҳтиёжингиз учун бирор нарса сотиб олишингиз мумкин. Лекин касалликнинг оғриғини бошқа одам ҳис этишини сотиб ололмайсиз. Моддий нарсаларни сотиб олиш мумкин, лекин, ҳаётни сотиб олишингиз имкони йўқ. Йиллар ўтиб улғайганимиз сари биз ақлли бўла бошлаймиз. Қариганимизда тушуниб етамизки, 300\$ лик соат ҳам, 30\$ лик соат ҳам бир хил вақтни кўрсатади. 3000\$ лик машина ҳам, 30000\$ лик машинани ҳайдасак ҳам ўша манзилга борамиз ва йўллар бир хил. Уйингиз 2 сотих бўладими, 12 сотих бўладими уйда ҳеч ким йўқ... Барибир ёлғизсиз. Сизнинг ҳаёт мазмунингиз ва бахтингиз дунё матохларидан ташкил топмаган. Бизнес классда учсангиз ҳам, эконоом классда учсангиз ҳам – агар самолёт қуласа сиз ҳам ҳамма билан бирга қулайсиз. Гапларимни

тушунаётган бўлсангиз сизнинг дўстларингиз ёки гаплашиш учун ақлли йўлдошингиз бўлса – бу ҳақиқий БАХТ дегани.

**Сизларга бешта тавсияни ҳавола қиламан:**

– *Фарзандларингизни бой бўлиши учун вояга етказманг. Уларни бахтли бўлиши учун тарбияланг. Шунда улар улғайгач, нарсаларнинг қадрини тушуна бошлашади, қийматини эмас.*

– *Сизни яхши кўрганлар сизни ҳеч қачон ташлаб кетмайди. Ташлаб кетиши учун 99 та сабаб бўлса ҳам, бирга қолиши учун сабаб топиб, сизни тарк етмайди.*

– *Одам бўлиш билан инсон бўлишининг фарқи бор.*

– *Агар бирор жойга тез бормоқчи бўлсангиз Ўзингиз, ёлғиз тезлашинг. Агар узоқларга кетмоқчи бўлсангиз ақлли йўлдошингиз билан бирга кетинг.*

– *Дунёнинг 6 та энг зўр шифокорларини айтаман: қуёш нури, дам олиш, жисмоний машқлар, пархез, ўзига ишонч ва содиқ дўстлар. Буларни маҳкам ушланг ва ҳаётдан завқланиб яшанг.*

Соғлом турмуш тарзи кенг маъноли тушунча бўлиб, у унумли меҳнат, фаол дам олиш, бадантарбия ва спорт билан шуғулланиш, организмни чиниқтириш, шахсий гигиенага риоя қилиш, оқилона овқатланиш, зарарли одатлардан ўзини тийиш, ҳар йили шифокор кўригидан ўтиб туриш ва шу каби бошқа кўплаб таркибий қисмлардан иборатдир. Умуман **турмуш тарзи** деганда тарихий тараққиёт жараёнида шаклланган инсонлар хатти-ҳаракатининг, фаолиятининг мажмуи кўриниши тушунилади. Аниқ тарихий тараққиёт жараёнига асосланган урф-одатлар вақт мобайнида такрорланиб туради. Улар, ўз навбатида, эҳтиёж бўлиб қолган ҳаракатларни, одатларни, турмуш характери юзага келтиради. Алоҳида шахс турмуш тарзининг комплекс кўрсаткичлари қаторига турмуш характери, турмуш даражаси, турмуш услуги киради.

**Турмуш даражаси** деганда, одамларнинг овқатланиши, маълумоти, иш билан таъминланганлиги, иш шароити, яшаш шароити, ижтимоий таъминланганлик, дам олиши, кийиниши, бўш вақтдан фойдаланиши ҳуқуқлари тушунилади.

**Саломатликни мустаҳкамлаш** — инсонга ўз саломатлигини яхшилаш ва назорат қилишга имкон яратувчи жараёндир. Соғлом турмуш

тарзини тарғиб этишнинг муҳим йўналишларига қуйидагилар киради: шахсий гигиена; дам олиш гигиенаси; оптимал ҳаракат режими; жисмоний тарбия ва спорт; стресслар, зўриқишлар билан оқилона курашиш; организмни чиниқтириш; психогигиена; тиббий-ижтимоий фаоллик; саломатликни сақлашни таъминловчи омилларни тарғиб этиш; меҳнат гигиенаси; рационал овқатланиш; атроф-муҳит гигиенаси; саломатликка зарар етказувчи хавф омиллари Жаҳон Соғлиқни сақлаш ташкилотининг (ЖССТ) таърифича: саломатлик – бу нафақат касаллик ва жисмоний камчиликларнинг бўлмаслиги, балки соғлом, жисмоний, руҳий ва ижтимоий ҳолатга эга бўлишлиқдир. Шахс, инсон саломатлиги - бу нафақат касаллик, хасталик, ёки жисмоний камчиликларнинг йўқлигигина, эмас, балки, инсоннинг барча аъзо ва органлари фаолиятининг ташқи табиий ва ижтимоий муҳит билан гармоник мутаносиблиги, инсоннинг ижтимоий, биологик ва руҳий ҳолатининг уйғунлигидир. *Соғлом турмуш тарзи тарафдорларининг фикрича, одамларнинг соғ-саломат бўлишининг, фаол меҳнат қилишининг, узоқ умр кўриши ҳамда бахтли ва саодатли яшашнинг қуйидаги шартлари бор*

***Биринчи шарт:*** Овқатланишни тўғри ташкил қилиш.

***Иккинчи шарт:*** Жисмоний фаоллик, ҳаёт – ҳаракатдадир.

***Учинчи шарт:*** Кун ва ишни биологик режимлар асосида ташкил қилиш.

***Тўртинчи шарт:*** Руҳий осойишталик ёки асабий мувозанатни таъминлаш.

***Бешинчи шарт:*** Ичкиликбозлик, кашандалик ва гиёҳвандлик каби одатлардан ўзини тийиш.

***Олтинчи шарт:*** Озода-орасталикка риоя қилиш, атроф-муҳитга бўлган муносабат масаласи.

Овқатланишни тўғри ташкил қилиш. Тўғри, рационал овқатланиш ва энергетик балансни сақлаш кўпгина ноинфекцион касалликларнинг профилактикаси учун пойдевор ҳисобланади.

***Рационал овқатланиш*** деганда, инсоннинг жинси, ёши, иш характери ва бошқа омилларни ҳисобга олган ҳолда, фаол узоқ умр кўриш, юқори жисмоний ва ақлий иш қобилияти, ташқи муҳит зарарли

омилларига қаршилиқни оширувчи ва соғлиқни сақлашга ёрдам берувчи физиологик тўла қийматли овқатланиш тушунилади.

**Соғлом овқатланиш** – урф-одат, анъанани ҳисобга олиб турли аҳоли гуруҳларининг рационал овқатланишида илмий асосланган, эҳтиёжни қондиришни таъминлайдиган, касалликлар профилактикаси ва соғлиқни мустаҳкамлашга ёрдам берадиган турли овқат маҳсулотларини истеъмол қилишга асосланиши керак.

### **Жисмоний фаоллик, ҳаёт – ҳаракатдадир**

Ички ишлар ходимларининг бир ойлик малака оширишида ўтаётган семинарлар, инсон кундалик ҳаётида жисмоний машқлар, спорт ўйинлари, баданни чиниқтирувчи муолажалар билан кўпроқ шуғулланса, унинг танасидаги физиологик ва биологик жараёнлар тезлашади. Оқибатда кайфияти кўтарилади, ишчанлиги ортади. Шубҳасиз, бу саломатликни мустаҳкамлашга хизмат қилади.

Ҳозирги вақтда иқтисодий ривожланган давлатларда жисмоний куч талаб қиладиган иш анча камайган. Урбанизация, автоматизациянинг ривожланиши одам ҳаёт тарзини кам ҳаракатли қилиб қўйди. Ваҳоланки, миллион йиллар олдин эволюция жараёнида инсоннинг асосий машғулоти овчилик, ўсимлик ва мевалар йиғишдан иборат бўлган. Жисмоний фаоллик соғлом турмуш тарзининг асосий калитли шартларидан бири.

## **РЕЗЮМЕ**

Мақолада ички ишлар ходимларини нафақат жисмоний келишган, балки унинг соғлиғи ҳамда ҳаёт давомийлиги оқилона таҳлил қилинган.

\*\*\*\*\*

В статье сделан умный анализ о здоровье долгожительство красивых и сильных сотрудников внутренних дел.

**Islom AHMEDOV,**  
*Malaka oshirish instituti Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasi boshlig‘i*  
*o‘rinbosari, dotsent, polkovnik*

## **MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI TARIXIGA DOIR**

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi haqida" Qarori bilan O'zbekiston SSR ittifoq – respublika Ichki ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga aylantirildi<sup>1</sup>. Ushbu sana mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun tarixiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Shu bois 2006-yil 6-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlari kunini belgilash to'g'risida"gi O'RQ-65-son Qonuniga asosan, 25-oktabr O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlari kuni etib belgilandi<sup>2</sup>.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning natijasi va istiqboli uni amalga oshiruvchi kadrlarning malakasi va kasbiy tayyorgarligiga chambarchas bog'liqdir. Ichki ishlar organlari uchun malakali kadrlar tayyorlash sohasida o'tkazilayotgan tub islohotlar jarayonini yoritish bilan bir qatorda o'ylaymizki, soha xodimlarini malakasini oshirish ta'lim tizimining qisqacha tarixini ham yoritish maqsadga muvofiqdir. Chunki, soha xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim tizimi joriy etilishi ichki ishlar organlari uchun malakali kadrlar tayyorlash sohasidagi islohotlarning boshlang'ich nuqtasi bo'lib hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish harbiy ta'lim tizimi o'ziga xos tarixga ega. Mazkur ta'lim tizimi dastlab, 1967-yilda sobiq Ittifoq Jamoat tartibini saqlash vazirligi Oliy militsiya maktabining Toshkent shahridagi sirtqi tayyorlov bo'limida jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shahar, tuman ichki ishlar

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi haqida"gi qarori. Xalq so'zi. 1991 yil 26 oktyabr.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 6-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlari kunini belgilash to'g'risida"gi O'RQ-65-son Qonuni. Xalq so'zi. 2006 yil 7 dekabr.

bo‘limlarining boshliqlari va ularning o‘rinbosarlari bilan jinoyatchilikka qarshi kurashni takomillashtirish masalalari bo‘yicha malaka oshirish o‘quv yig‘inlari tashkil etilgan. Ushbu malaka oshirish o‘quv yig‘inlari uchun zarur o‘quv dasturlari, mavzular rejalari va metodik materiallar ishlab chiqilib, jalb etilgan tinglovchilar 2–3 ta o‘quv guruhlariga taqsimlangan holda o‘qitilgan...

O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetiga ega bo‘lishi bilan uzviy bog‘liq tarzda 30 turdagi xizmat toifasi bo‘yicha 1700 nafar xodimni bir o‘quv yilida o‘qitish zaruriyati yuzaga kelgan. Fakultet jamoasi ushbu vazifani hal etishga mas’uliyat bilan yondashgan va ta’lim jarayoni xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishlarida tashkil etilgan.

Mustaqillikning 1991–1993-yillari davomida fakultet faoliyatini yanada yaxshilash va jinoyatchilikka qarshi kurash muammolari tadqiqotini yo‘lga qo‘yish maqsadida 11 nafar shaxsiy tarkibdan iborat Jinoyatlarning oldini olish va ochish kafedrasini tashkil etilgan. Aynan shu yillarda o‘quv-metodik fondni yangilash va davlat tiliga o‘tkazish uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Ichki ishlar organlari xodimlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash o‘quv kurslari uchun 42 ta o‘quv dasturi ishlab chiqilgan. Tasdiqlangan dastur asosida fakultetning asosiy o‘quv-metodik jamg‘armasi ilk bor davlat tilida tayyorlangan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 2-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Akademiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 447-son Qarori bilan, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Oliy va o‘rta maxsus militsiya maktablari negizida ichki ishlar organlari mutaxassislarini tayyorlash va boshliqlar tarkibi xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Akademiyasi tashkil etilgan.<sup>3</sup> Akademiya tarkibida Ichki ishlar organlarining rahbar va boshliqlar tarkibini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish fakulteti deb nomlanib, uning tarkibidagi Yuridik va Maxsus fanlar kafedralari tashkil etilgan.

Ushbu davrda Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv-moddiy bazasi mustahkamlandi. Zamon talablaridan kelib chiqib, o‘quv rejalari va dasturlari takomillashtirildi. O‘quv rejalarida har bir kursda muayyan muddat amaliyot

---

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 2-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Akademiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 447-son Qarori. Xalq so‘zi. 1994 yil 3 sentyabr.

o'tash zarurligi ko'zda tutildi. Bu esa, o'quv jarayonining amaliyot bilan hamohang bo'lishini ta'minlab, olingan bilimlarni amalda sinab ko'rish va ko'nikmalar hosil qilish imkoniyatini yaratdi. Xususan, o'quv jarayoni O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida tashkil etildi.

2004-yilning 27-sentabrida O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi qayta tashkil etilganligi munosabati bilan Institut yangi shtat birligiga ega bo'lgan IIO ofitserlari malakasini oshirish fakultetiga aylantirildi. O'sha davrda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi qoshidagi Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurash Departamentining operativ xodimlari bilan alohida o'quv kurslari tashkil etilgan.

2004-2018-yillar davomida fakultetda ilg'or xorijiy tajribalarga tayangan holda o'quv jarayoni blok-modulli tizim asosida samarali tashkil etilgan. Ichki ishlar vazirligi topshirig'iga asosan Respublikaning barcha shahar-tuman IIB boshliqlari, ularning xizmat sohalari bo'yicha o'rinbosarlari bilan maxsus malaka oshirish o'quv kurslari tashkil etilgan. O'quv jarayonida bevosita Ichki ishlar vaziri, uning o'rinbosarlari, Bosh boshqarma va boshqarma boshliqlari kelib o'quv mashg'ulotlarini olib borishda ishtirok etgan.

2018-2021-yillar davomida Ichki ishlar organlari ofitserlar tarkibining xizmat faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida, bilimlarni yangilash va chuqurlashtirish, sohadagi so'nggi yangiliklar, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini etkazish va xorijiy huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidagi ilg'or tajribalar bilan tanishtirish orqali, ularning kasbiy bilim, o'quv, ko'nikma va mahoratlarini yuksaltirishga qaratilgan faoliyat amalga oshirila boshlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5076-son qaroriga asosan Malaka oshirish institutiga yuridik shaxs maqomi berildi.<sup>4</sup> **Shuning bilan birga, mazkur qaror bilan ichki ishlar organlarining uzluksiz o'quv-karera jarayoni tizimi quyidagi tartibda yo'lga qo'yildi:**

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5076-son qarori. Xalq so'zi. 2021-yil. 16-aprel.

*boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik;*  
*maxsus kasbiy tayyorgarlik;*  
*qayta tayyorlash;*  
*malaka oshirish;*  
*oliy ta'lim;*  
*boshqaruv kadrlarini tayyorlash;*  
*oliy ta'limdan keyingi ta'limda o'qish;*

*xizmat, jangovar va jismoniy hamda ma'naviy ma'rifiy tayyorgarligi nazarda tutiladi*<sup>5</sup>. Jumladan, IIV Malaka oshirish instituti tomonidan 2023-yilning 12 oyi davomida 15 006 nafar (2021 yilda – 30 173; 2022 yil – 37 901) xodimlar o'z bilim va ko'nikmalarini oshirdilar. Shu bois ham muhtaram Prezident: “Yangi O'zbekistonni barpo etishda zamonaviy bilim va yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan kadrlar hal qiluvchi o'rin tutadi”<sup>6</sup> – degan purma'no fikrlari ayni muddaodir.

Mazkur holat hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida” 2023-yil 20-yanvardagi PQ–10-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida vazirlik 2023-yil 28-fevraldagi “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l-patrul va patrul-post xizmati bo'linmalari xodimlarini “**Fuqarolar bilan ishlash moduli**” bo'yicha uzluksiz o'qitish tizimini tashkil etish to'g'risida”gi 98-son buyrug'i qabul qilindi.<sup>7</sup>

### **Modul bo'yicha uzluksiz o'qitish jarayoni professional kadrlarga qo'yiladigan talablar asosida quyidagilarga:**

xodimlarning fuqarolar bilan muloqot jarayonida kasbiy mahorati, intellektual salohiyati, muomala madaniyatini oshirish hamda psixoemotsional ruhiy barqarorligini saqlash bo'yicha zarur amaliy ko'nikmalarini oshirish;

zamonaviy ta'lim va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida situatsion mashg'ulotlar orqali xodimlarda nostandart va murakkab sharoitlarda

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2021-yil 27-avgustdagi 310-sonli “Ichki ishlar organlarida uzluksiz o'quv-karera jarayoni tizimini tashkil etish to'g'risida”gi buyrug'i. Xalq so'zi. 2021-yil 28-avgust.

<sup>6</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T., “O'zbekiston”. 2022. 136-b.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023-yil 28-fevraldagi 98-sonli “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l-patrul va patrul-post xizmati bo'linmalari xodimlarini “Fuqarolar bilan ishlash moduli” bo'yicha uzluksiz o'qitish tizimini tashkil etish to'g'risida”gi buyrug'i.

tezkor qaror qabul qilish hamda vaziyatni real baholashga doir kasbiy kompetentlikni shakllantirish;

xodimlarning murakkab vaziyatlarda jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar va o'qotar qurolni qo'llash jarayonida zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini amalda yuqori darajada qo'llay olish mahoratini rivojlantirish;

ta'lim jarayonida nazariya bilan amaliyotni integratsiya qilish orqali sodir etilishi mumkin bo'lgan nojo'ya xatti-harakatlar, suiiste'molchilik, korrupsiya va tizim obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi nizoli vaziyatlarning barvaqt oldini olish yo'naltirildi.

Muxtasar qilib aytganda, ichki ishlar organlari uchun malakali kadrlar tayyorlashning shakllanishi mazkur sohada tub islohotlarni o'z vaqtida va samarali amalga oshirish orqali xodimlarining zamonaviy bilim olishlari, malaka va ko'nikmalarini oshirishlari ta'minlanadi, ularning huquqiy ongi hamda tafakkuri, fuqarolar bilan muloqot jarayonida kasbiy mahorati, intellektual salohiyati, muomala madaniyatini oshiradi.

## REZYUME

Maqolada mamlakatimiz ijtimoiy hayotida muhim davlat organi ichki ishlar organlari uchun malakali kadrlar tayyorlashning tashkil topishi va rivojlanishi tarixiy jihatdan tahlil qilingan.

\*\*\*\*\*

В статье рассматривается становление исторической организации подготовки квалифицированных кадров для органов внутренних дел, которые являются важным государственным органом в общественной жизни нашей страны.

\*\*\*\*\*

The article discusses the historical organization and formation of the training of qualified personnel for the internal affairs bodies, which are an important state body in the social life of our country.

**Muhammadrusul UMMATOV,**  
*Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent, podpolkovnik*

## **DALILLARNING MAQBULLIGINI TA'MINLASHDA BA'ZI TERGOV HARAKATINING AHAMIYATI**

Diyorimizda inson, uning huquqiy va erkinliklari oliy qadriyat deb e'lon qilingan bo'lib, inson hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash va ularga rioya qilish barcha davlat organlari va mansabdor shaxslarning asosiy majburiyatlari sifatida belgilangan. Jamiyat hayotida adolatning qaror topishiga xizmat qiluvchi isbotlash jarayoni faoliyati, ayniqsa, dalillar va ularni aniqlash, to'plash va baholash jarayoni jinoyat protsessining markaziy masalalari hisoblanadi.

Har qanday nazariy kashfiyot, ishlab chiqilgan qonun va bildiriladigan fikr uning amaliyotda qanday foydalanishi va samarasiga, uning asosligi va haqqoniyligi darajasiga qarab belgilanadi. Shuning uchun ham har qanday ilmiy tadqiqotning amaliy faoliyat jarayonlari mazmuni bilan asoslangan va emperik bazaga tayangan bo'lishi talab etiladi [1]. Jinoyat protsessida to'plangan dalillarning maqbulligini ta'minlash jinoyat protsessining eng dolzarb muammoli masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga ko'ra ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday haqiqiy ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi. Bu ma'lumotlar guvohning, jabrlanuvchining, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko'rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy dalillar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqa hujjatlar bilan aniqlanadi (JPK 81-m.).

Tanib olish uchun ko'rsatish natijalari bo'yicha rasmiylashtiriladigan tergov va sud harakatining bayonnomasi dalil vazifasini o'taydi. Biroq ushbu dalil belgilangan tartibda to'plangan va JPKning 88, 90, 92-94-moddalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq bo'lsagina, ular maqbul deb e'tirof etiladi [2].

Tanib olish uchun ko'rsatish natijalari bo'yicha olingan dalillar ham JPKning 95-moddasida nazarda tutilgan tartibda ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtai nazaridan baholanishi lozim. Maqbul bo'lmagan dalillar o'z-o'zidan yuridik kuchga ega bo'lmaydi [3] va ulardan JPK 82-84-moddalarida nazarda tutilgan holatlarni isbotlash uchun foydalanish hamda ayblov asosiga qo'yish mumkin emas [4].

Tanib olish uchun ko'rsatish natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlar qonunga xilof usullar orqali yoki jinoyat protsessi ishtirokchilarini qonun bilan kafolatlangan huquqlaridan mahrum qilish yoki bu huquqlarni cheklash yo'li bilan yoxud JPKning 125-131-moddalari talablari buzilgan holda olingan bo'lsa, shu jumladan:

1) jinoyat protsessi ishtirokchilariga yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llagan holda;

2) ularni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) yo'li bilan;

3) gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining himoyaga bo'lgan huquqlari, shuningdek tarjimon xizmatlaridan foydalanish huquqi buzilgan holda;

4) jinoyat ishi bo'yicha protsessual harakatning mazkur jinoyat ishini yuritishni amalga oshirish huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan bajarilishi natijasida;

5) noma'lum manbadan yoxud jinoyat ishini yuritish jarayonida aniqlash mumkin bo'lmagan manbadan;

6) jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining surishtiruvdagi, dastlabki tergovdagi sudda dalillar majmui bilan o'z tasdig'ini topmagan ko'rsatuvlaridan olingan bo'lsa, ular dalil sifatida maqbul emas deb topiladi.

Faktik ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanishning maqbul emasligi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning o'z tashabbusi bilan yoki ishtirokchilarning iltimosnomasi bo'yicha aniqlanadi. Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya dalillarning maqbul emasligi to'g'risidagi masalani hal qilayotganida har bir holatda yo'l qo'yilgan buzilish nimada aniq

ifodalanganligini aniqlab olishi va asoslantirilgan qaror qabul qilishi shart (JPK 95<sup>1</sup>-m., 2-q.).

Qayd etish joizki, tanib olish uchun ko'rsatish natijasida olingan dalil maqbullik talabiga to'la javob berish uchun JPKning 125-131-moddalari va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 2018 yil 24 avgustdagi 24-sonli qarorida belgilab berilgan talablarga javob berishi lozim. Ushbu talablardan eng muhimi sifatida dalilning qonunda belgilangan tartibda olinishi alohida diqqatga sazovor bo'lib, bundan har qanday holda chekinish dalilni kelgusida sud tomonidan nomaqbul deb topilishiga [5] va dalil deb topilmasligiga sabab bo'lib qolishi mumkin. JPKning 127-moddasida shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish tartibi belgilangan bo'lib, fikrimizcha ushbu norma ham ayrim huquqiy bo'shliqlardan holi emas. Masalan, surishtiruvchi yoki tergovchi oddiy so'roq davomida tanib oluvchiga narsalarni yoki shaxslarning fotosuratlarini ko'rsatib ularni tanish tanimasligini so'rashi mumkin. Bunday holatlarda mazkur ish yuzasidan kelgusida tanib olish uchun ko'rsatishning o'tkazilishi maqsadga muvofiq hisoblanmaydi va bu holda olingan ma'lumotlar maqbul dalil sifatida ishga qo'shilmasligi lozim.

Biroq, ushbu masalalarning JPKning 127, 128 va 129-moddalarida alohida belgilanmaganligi tanib olish uchun ko'rsatish natijasida olingan dalilning qonunda belgilangan tartibda olinganligini inkor etishga asos bo'la olmaydi. Shu bois, JPKdagi mazkur huquqiy bo'shliq o'zining yechimini topishi lozim deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, JPK normalarida shaxsni yoki narsani tanib olish uchun ko'rsatishning tanib oluvchi oldingi so'rog'ida bergan ko'rsatmalaridagi holatlar, belgi va alomatlar bo'yicha qayta o'tkazilishiga yo'l qo'yilishi yoki qo'yilmasligi masalasi ham tartibga solinmasdan qolgan.

Holbuki, tanib olish uchun ko'rsatish natijasida olingan ma'lumotlarning maqbulligi masalasi boshqa tergov harakatlarinikidan birmuncha farq qiladi va u tiklab bo'lmaydigan hamda kelgusida maqbulligini ta'minlash maqsadida ma'lumotlarni JPK talablariga amal qilgan holda qayta to'plab bo'lmaydigan (tiklashning imkoni yo'q [6]) dalillarni shakllantiradigan hamda dalillarni to'plash jarayonida aniqlangan kamchiliklarni deyarli bartaraf etib bo'lmaydigan [7] tergov harakati sirasiga kiradi.

Chunki, tanib olish o'tkazilib, uning natijalari rasmiylashtirilganidan keyin, uni yana qayta o'tkazish ish bo'yicha haqqoniy ma'lumotlarni to'plash imkonini bermaydi va to'plangan dalillar ishonchlilik [8] talabiga javob bermay qolishi bilan birga dalilning maqbulligiga [9] ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi

Xorijiy davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligining ushbu masalalarga oid normalari o'rganilganda quyidagi o'ziga xos jihatlar borligini kuzatish mumkin:

1) Rossiya Federatsiyasi JPKning 193-moddasi (tanib olish uchun ko'rsatish)ning uchinchi qismida shaxsni bir xil belgilari bilan yana takroriy ravishda o'sha belgilaridan tanib olish uchun ko'rsatishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan [10].

2) Moldova Respublikasi JPKning 116-moddasi (shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish)ning beshinchi qismida tanib olish uchun bir shaxsni aynan bir belgilari bilan takroran tanib olish uchun ko'rsatishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan [11];

3) Ukraina Respublikasi JPKning 228-moddasi (shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish)ning birinchi qismida shaxsni tanib oluvchiga oldindan ko'rsatish va tanib olish yoki olmasligi mumkin bo'lgan holatlarni oldindan ko'rsatib aniqlab olish yoki bu shaxsning belgilari haqida boshqa ma'lumotlarni tanib oluvchiga ko'rsatish taqiqlanishi, shuningdek ushbu moddaning oltinchi qismida tanib olish uchun ko'rsatish fotosurat va video yozuv materiallaridan foydalangan holda o'tkazilganda shaxsni qayta tanib olish uchun ko'rsatishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan [13];

Demak, yuqorida keltirib o'tilgan fikrlar va tahlillardan xulosa qilganda tanib olish uchun ko'rsatish natijasida olingan ma'lumotning maqbulligini ta'minlash uchun uni olish bilan bog'liq protsessual mexanizmlar talab darajasida bo'lishi maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatmoqda.

JPKning 95-moddasi (dalillarga baho berish)ning ikkinchi qismida dalillar jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan mavjud holatlar haqidagi xulosalarni tasdiqlovchi, rad etuvchi yoki shubha ostiga oluvchi faktlar yoki narsalar to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirgan taqdirdagina ishga aloqador deb e'tirof etilishi belgilangan.

Bunda to'plangan dalillar jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan mavjud

holatlar haqidagi xulosalarni tasdiqlasa yoki rad etsa uni ishga aloqadorligini baholash borasida muammolar kelib chiqmasligi mumkin [13].

Tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatini o'tkazishga vakolatli sub'ektlar tanib olish uchun ko'rsatish natijasida olingan dalillarning ishonchliligiga ham alohida e'tibor qaratishlari lozim.

JPKning 95-moddasi (dalillarga baho berish)ning to'rtinchi qismida tekshiruv natijasida haqiqatga muvofiq ekanligi aniqlangan dalillar ishonchli deb hisoblanishi belgilangan bo'lib, bunda ishga aloqador bo'lgan boshqa dalillar to'planishi, to'plangan yangi dalillar esa tanib olish uchun ko'rsatish natijasida olingan dalillarni tasdiqlashi yoki rad etishi mumkin bo'ladi. Tanib olish uchun ko'rsatish natijasida olingan dalillarni baholash JPKning 95-moddasining birinchi qismida belgilangan protsessual qoidalarga asosan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan amalga oshirilib, ushbu jarayonda mazkur sub'ektlar dalilni sinchkovlik bilan, to'la, har tomonlama va xolisona ko'rib chiqishga asoslangan holda qonunga va huquqiy ongga amal qilib o'zlarining ichki ishonchlari bo'yicha baholashlari lozim.

Tanib olish uchun ko'rsatish natijasida olingan dalillarni maqbulligi bo'yicha baholashda ushbu tergov harakatini o'tkazishdan oldin amalga oshirilgan so'roq qilishning natijalari ham inobatga olinishi lozim. Chunki, JPKning 125-moddasiga ko'ra tanib olish uchun ko'rsatish guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining biror shaxs yoki narsa to'g'risidagi ko'rsatuvini tekshirib ko'rish uchun o'tkazilishi va 125-moddasiga ko'ra tanib oluvchi tanib olish lozim bo'lgan shaxs yoki narsaning belgilari, alomatlari, xususiyatlari to'g'risida oldindan so'roq qilinishi lozimligi belgilangan bo'lib, agarda guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uni so'roq qilish jarayonida biror shaxs yoki narsani tanib olishi mumkinligini aytmasa yohud ishga aloqador shaxs yoki narsaning belgilari, alomatlari, xususiyatlari uning xotirasida saqlanib qolmaganligini aytsa ushbu tergov harakatini o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanmaydi. Bunday holda o'tkazilgan tanib olish uchun ko'rsatishning natijalari bo'yicha rasmiylashtirilgan bayonnoma nomaqbul deb topilishi tabiiy.

Sud-tergov amaliyotining tahlili ko'rsatishicha tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakati natijasi bo'yicha olingan dalillarning nomaqbul deb topilishi ushbu tergov harakatini o'tkazgan vakolatli sub'ektlar tomonidan

so‘roq bayonnomasiga qalbaki (soxta) ma’lumotlarni kiritishi sabab bo‘lgan holatlar ham uchraydi. Masalan, Toshkent viloyat sudi kassatsiya instansiyasi sudlov hay’atida ko‘rilgan bir jinoyat ishida uchragan bo‘lib, ish holatlariga ko‘ra B.U. ismli shaxs Toshkent viloyati bojxona boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari lavozimida ishlab kelgan davrda, mansabdor shaxs bo‘la turib, mansab vakolatini suiste‘mol qilib, o‘zining qo‘l ostidagi xodimi U.A. ismli shaxsdan bahosi 800.000 so‘m bo‘lgan bir dona charmdan ishlangan ofis kreslosi va 350.000 so‘mlik chinni servis to‘plamini pora tariqasida olganlikda ayblangan.

Ish holatlariga ko‘ra jabrlanuvchi deb topilgan U.A. ismli shaxsni so‘roq qilgan tergovchi uni ham javobgarlikka tortish bilan qo‘rqitib, jismoniy va ruhiy tazyiq o‘tkazganligi, so‘roq qilish bayonnomasini qalbakilashtirganligi hamda shundan kelib chiqqan holda charmdan ishlangan ofis kreslosi chinni servis to‘plami tanib olish uchun ko‘rsatganligi, U.A. ismli shaxs tergovchining tazyiqiga chiday olmasdan uning aytganidek ko‘rsatilgan narsalarni tanib olganligi, shu tariqa olingan dalil ayblovning asosiga qo‘yilganligi aniqlanganligi tufayli ushbu dalillar nomaqbul deb topilgan hamda B.U. ismli shaxs oqlangan [14].

Sud-tergov amaliyotidan yuqorida keltirilgan misoldan ko‘rinib turganidek, tanib olish uchun ko‘rsatishdan avval o‘tkaziladigan so‘roq qilish tergov harakati bayonnomasi ham o‘z ichiga faqat haqiqiy ma’lumotlarni olishi lozimligi ham maqsadga muvofiqdir. Agarda tanib oluvchi so‘roq davomida o‘zining ko‘rsatuvlarida «ko‘rsam tanib olarman», «hozir eslay ololmayapman» kabi ikkilanadigan (aniq qaror qabul qila olmaydigan [15]) va shubhali ko‘rsatuvlar bergan taqdirida tanib olish uchun ko‘rsatishni o‘tkazish maqsadga muvofiq emas.

Vaholangki, Ukraina Respublikasi JPKning 229-moddasi (narsani tanib olish uchun ko‘rsatish)da belgilangan majmuaviy belgilaridan tanib olish uchun ko‘rsatishning tartibiga oid protsessual qoidalar [16] JPKda belgilanmagan. Bu esa bunday turdagi tanib olish uchun ko‘rsatishning natijalarini kelgusida nomaqbul dalil sifatida baholashga asos bo‘ladi.

O‘rganilgan jinoyat ishlari tahlili ko‘rsatishicha, sud-tergov amaliyotida ayrim holatlarda ochilmagan jinoyat ishlari bo‘yicha jinoyat ishlarini yuritishga vakolatli mansabdor shaxslar tomonidan daliliy ashyolarni qalbakilashtirish va

bu ashyolarni tanib olish uchun ko'rsatgan holda nomaqbul dalillar to'plash holatlari ham uchrab turganligini ko'rish mumkin.

Masalan, Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanida Z.Sh. ismli shaxsning xonadoni hovlisida bo'lgan, jami og'irligi 100 kg bo'lgan 2 qop «kunjara» yem mahsuloti o'g'irlab ketilgan. Ushbu jinoyat ishi bo'yicha ayblanuvchi sifatida jalb qilingan R.R. ismli shaxsga jinoyat ishini yuritayotgan tergovchi va boshqa xodimlar tomonidan tazyiq o'tkazilib iqrorlik ko'rsatuvi yozdirib olingan hamda so'roq bayonnomasi qalbakilashtirilib tanib oluvchiga ham uning o'zidan olingan ikkita qop ko'rsatilgan va bayonnoma tuzilgan. Sud jarayonida ushbu holatlar aniqlanib ashyoviy dalil deb ishga qo'shilgan ikkita qop va tanib olish uchun ko'rsatish bayonnomasi nomaqbul dalil deb topilgan va R.R. ismli shaxs oqlangan [17].

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turganidek, tanib olish uchun ko'rsatish natijasida to'plangan dalillarni maqbulligini ta'minlashda tergovchi sinchkovlik bilan, to'la, har tomonlama va xolisona yondashmagan hamda qonunga va huquqiy ongga amal qilmagan holda dalillarga baho bergan. Kelgusida sud-tergov amaliyotida bu kabi xato va kamchiliklar kuzatilmashligi uchun surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud JPK talablariga og'ishmay rioya etishlari shart hisoblanadi.

Keltirilgan fikrlarni tahlil qilish orqali tanib olish uchun ko'rsatish natijasida olingan dalillarning maqbulligini ta'minlash uchun fikrimizcha shaxsni, narsani yoki uning foto-video tasvirini oldindan tanib oluvchiga ko'rsatish va tanib olish yoki olmasligi mumkin bo'lgan holatlarni ko'rsatib aniqlab olish yoki bu shaxsning belgilari haqida boshqa ma'lumotlarni tanib oluvchiga ko'rsatish, shuningdek bir shaxsni aynan bir belgilari bilan takroran tanib olish uchun ko'rsatishning taqiqlanishi oid protsessual qoidani JPKga kiritilishi, shuningdek tanib olish uchun ko'rsatishni o'tkazish JPKda belgilangan tartib va talablarga og'ishmay rioya etilgan holda o'tkazilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

**ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ**

1. Рашидов Б.Н. Гаров эҳтиёт чорасини қўллашда вужудга келаётган муаммолар ва уларнинг бартараф этишга доир айрим мулоҳазалар // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси ахборотномаси. – 2012. – № 2. Б.38.

2. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Далиллар мақбуллигига оид жиноят-процессуал қонуни нормаларини қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида»ги 2018 йил 24 августдаги 24-сонли қарори // <https://lex.uz/docs/3895986>.

3. Аубакирова А.А. Допустимость доказательств в уголовном процессе Республики Казахстан. – Вестник ЮУрГУ. – Серия «Право», 2014. – Т.14. – №3. – С. 18-20.

4. Ражабов Б.А. Жиноят процессида далилларни тўплаш, текшириш ва баҳолаш: Монография – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2019. – Б. 98.

5. Курзинер Е.Э. Актуальные вопросы доказывания в уголовном судопроизводстве Российской Федерации: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Челябинск, 2009. – С. 7.

6. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Далиллар мақбуллигига оид жиноят-процессуал қонуни нормаларини қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида»ги 2018 йил 24 августдаги 24-сонли қарори // <https://lex.uz/docs/3895986>.

7. Абросимов И.В. Актуальные вопросы обеспечения допустимости и достоверности доказательств в уголовном судопроизводстве: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – М., 2007. – С. 10.

8. Сморгунова М.Е. Теоретические основы и практика проверки досудебных доказательств в уголовном процессе: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Нижний Новгород, 2004. – С. 7.

9. Балакшин В.С. Доказательства в теории и практике уголовно-процессуального доказывания: Важнейшие проблемы в свете УПК

Российской Федерации: Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора юридических наук. – Екатеринбург, 2005. – С. 14.

10. Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации от 18 декабря 2001 года (По состоянию на 11.02.2024) [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://base.spinform.ru> (База данных законодательство стран СНГ) / (дата обращения: 08.11.2025).

11. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Молдова от 14 марта 2003 года (По состоянию на 10.03.2025) [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://base.spinform.ru> (База данных законодательство стран СНГ) / (дата обращения: 05.11.2025).

12. Уголовный процессуальный кодекс Украины от 13 апреля 2012 года (По состоянию на 10.03.2025) [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://base.spinform.ru> (База данных законодательство стран СНГ) / (дата обращения: 02.02.2025).

13. Ражабов Б.А. Жиноят процессида далилларни тўплаш, текшириш ва баҳолаш: Монография – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2019. – Б. 68.

14. Жиноят ишлари бўйича Тошкент вилояти Зангиота тумани суди архивидаги 1-531/2017-сонли жиноят иши материаллари. Шахсий архив.

15. Иванова Л.Ф. Психолого-тактические аспекты предъявления для опознания в уголовном судопроизводстве России: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Челябинск, 2007. – С. 17.

16. Уголовный процессуальный кодекс Украины от 13 апреля 2012 года (По состоянию на 10.03.2025) [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://base.spinform.ru> (База данных законодательство стран СНГ) / (дата обращения: 02.02.2025).

17. Жиноят ишлари бўйича Сирдарё вилояти Боёвут тумани суди архивидаги 1-1203-1801/36-сонли жиноят иши материаллари. Шахсий архив.

## РЕЗЮМЕ

Мақолада таниб олиш учун кўрсатиш натижасида олинган далилларнинг мақбуллигини таъминлаш масалалари тадқиқ этилган бўлиб, бир қатор юридик адабиётлар, соҳа мутахассисларининг фикрлари ўрганилган ҳамда айнан ушбу масалаларда суд-тергов амалиётидан муаммоли мисоллар келтирилиб, чуқур таҳлил қилинган. Таҳлил ва тадқиқот натижалари асосида таниб олиш учун кўрсатиш натижасида олинган далилларнинг мақбуллигига оид илғор хориж тажрибалари кўрсатилиб, келгусида уларни Ўзбекистон Республикаси жиноят-процессуал қончилигига тадбиқ масалалари юзасидан таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

\*\*\*\*\*

В статье исследованы вопросы обеспечения допустимости доказательств, полученных в результате предъявления для опознания, изучен ряд юридической литературы, мнения специалистов отрасли, а также приведены и детально проанализированы проблемные примеры из судебной-следственной практики по этим вопросам. На основе анализа и результатов исследований были продемонстрированы передовой зарубежный опыт в отношении допустимости доказательств, полученных в результате предъявления для опознания, разработаны предложения и рекомендации по вопросам их дальнейшего внедрения в уголовно-процессуальное законодательство Республики Узбекистан.

\*\*\*\*\*

The article examines the issues of ensuring the admissibility of evidence obtained as a result of demonstration for recognition, examines a number of legal literature, opinions of experts in this field, and provides an in-depth analysis of these issues with problematic examples from the practice of judicial investigation.

Based on the results of the analysis and research, advanced foreign experience was demonstrated on the admissibility of evidence obtained as a result of demonstration for recognition, and proposals and recommendations were developed on their further application in the criminal procedure legislation of the Republic of Uzbekistan.

*Ilmiy axborotlar*

**Bahodir AHMEDOV,**  
*Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*

**KRIMINALISTIKA SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH  
TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI XUSUSIDA**

*Jinoyatchilikka qarshi kurashishda zamonaviy  
ilm-fan yutuqlari va ilg'or kriminalistik usullaridan  
samarali foydalanish zarur.*

**Shavkat MIRZIYOEV**

Jahonda jinoyatchilikning transmilliy tus olishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda raqamli muhitda sodir etilayotgan **huquqbuzarliklar soni ortib borayotgan** sharoitda **kriminalistika sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash** masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy kriminalistika nafaqat **an'anaviy izlar bilan ishlash**, balki **raqamlar dalillar tahlili, biometrik identifikatsiya, moliyaviy va kiberjinoyatlarni ochish** kabi yo'nalishlarni ham qamrab olmoqda. Shuning uchun ushbu **sohada kadrlar tayyorlash** tizimini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish davlat siyosatining **ustuvor yo'nalishlaridan biriga** aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini isloh qilish jarayonida **kriminalistika sohasini modernizatsiya qilish**, uning **moddiy-texnika bazasini mustahkamlash** va **kadrlar salohiyatini oshirish**ga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimida **ekspert-kriminalistika faoliyatini takomillashtirish, zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish** hamda **ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish**ga qaratilgan bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bu jarayonda Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi **asosiy ta'lim** va **ilmiy markaz sifatida** namoyon bo'lib. **kriminalistika sohasida professional kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash** va **malakasini oshirish** bo'yicha tizimli faoliyat yuritib kelmoqda.

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida kriminalistika yoʻnalishida kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishi **bir nechta bosqichlarni** qamrab oladi: **dastlabki institutsional asoslarni yaratish, maxsus kafedra va ilmiy maktablarni tashkil etish, oʻquv dasturlarini xalqaro standartlar asosida yangilash**, shu bilan bir qatorda taʼlim jarayoniga **ilgʻor axborot texnologiyalarini joriy etish** zarur hisoblanadi. Xususan, ekspert-kriminalistika sohasida amaliy koʻnikmalarni shakllantirishga qaratilgan **laboratoriya mashgʻulotlari, simulyatsion treninglar va ilmiy tadqiqot ishlari** kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Mazkur ilmiy maqolada kriminalistika sohasida kadrlar tayyorlash tizimining **shakllanish tarixi**, uning **huquqiy-tashkiliy asoslari va rivojlanish bosqichlari** Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi misolida tahlil qilinadi hamda mavjud **muammolar, innovatsion yondashuvlar va istiqbolli rivojlanish yoʻnalishlari** ilmiy nuqtai nazardan asoslab beriladi.

**Tadqiqotning maqsadi** kriminalistika sohasida kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanishini **kompleks tahlil qilish**, uning **samaradorligini oshirishga** qaratilgan **takliflar** ishlab chiqishdan iborat.

Bugungi kunda Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining **kiberxavfsizlik va raqamli kriminalistika fakulteti, kriminalistik ekspertizalar kafedrası** tarixdan bizga maʼlumki, Toshkent oliy militsiya maktabi tashkil etilganidan buyon mustaqil kafedra sifatida ichki ishlar organlari uchun **yuqori malakali yuristlarni tayyorlashda** oʻzining salmoqli hissasini qoʻshib kelmoqda.

Kriminalistik ekspertizalar kafedrasining tashkil topishi va uning dastlabki faoliyatida kafedraning **ilk rahbari P.L.Sharov (1967-1972)** hamda **professor-oʻqituvchilar tarkibi M.I.Isroilov, B.B.Axmedov, Y.D.Fyodorov, A.G.Shesterov, A.L.Yurin, N.V.Nechelyustov** [1] kabi xodimlarning xizmatlari katta eʼtirofga loyiq.

Ichki ishlar organlariga malakali ekspert-kriminalistlar tayyorlashda Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida muqaddam **ekspert-kriminalistika fakulteti** va uning tarkibida **5 ta kafedra** yaʼni **kriminalistik texnika, kriminalistik taktika va metodologiyasi, ballistika, trasologiya, hujjatlarni texnik-kriminalistik tadqiq etish kafedralari** tashkil etilgan edi [2].

Mustaqillikdan soʻng esa 1997-yil 29-avgustda **“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”** [3] hamda 1997-yil 29-avgustda 5-bob, 34-moddadan iborat

**“Ta’lim to’g’risida”**gi 464-1-son [4] O‘zbekiston Respublikasining qonuni imzolandi. Ushbu qonunning 1-moddasida **“ushbu qonun fuqarolarga ta’lim, tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta’minlashga qaratilgan”** – deb qonunning maqsadi etib belgilandi.

Ushbu “Ta’lim to’g’risida”gi qonun talablariga asosan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida ta’limning **bakalavriat** va **magistratura** shakliga o‘tishi munosabati bilan 1999-yilda **ekspert-kriminalistika fakulteti** o‘zgartirilib, uning negizida kriminalistika va **kriminalistik ekspertizalar kafedralari** tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi **“Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”**gi qaroriga asosan jinoyatlarni tergov qilish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlarini O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo‘linmalarining eng **muhim vazifasi** etib hisoblandi. Unga ko‘ra **“Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika bo‘linmalari faoliyatiga ilg‘or kriminalistik va ilmiy-texnik vositalarni, shuningdek ishlashning zamonaviy shakl va uslublarini keng joriy etish”** [5] qat’iy belgilab berildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi **“Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”**gi qaroriga asosan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kriminalistik ekspertizalar kafedrasiga belgilangan tartibda tegishli sud ekspertizalari (**daktiloskopik, trasologik, ballistik, sovuq qurollar, portret, xatshunoslik va boshqalar**) va tadqiqotlarni o‘tkazish huquqi berildi [6]. Bo‘linmalari xodimlari Ushbu qarorga ko‘ra, sohaning ilmiy-texnik salohiyatini oshirish maqsadida ekspert-kriminalistika faoliyatini baholash va rag‘batlantirish tizimi **“motivatsiya-sharoit-rag‘bat-natija”** tamoyili asosida, mustaqil ekspertiza o‘tkazish huquqini beruvchi guvohnomalar soni, o‘tkazilgan ekspertizaning murakkabligi va jinoyatlarni fosh etishdagi hissasini qamrab oluvchi mezonlarga muvofiq tashkil etilishi belgilab qo‘yildi.

Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan tub islohotlar natijasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi **“Raqamli**

texnologiyalar vositasida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish sohasi uchun professional kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi tuzilmasida mavjud shtatlar doirasida **kiberhuquq, aniq fanlar, raqamli texnologiyalar va axborot xavfsizligi** hamda **kriminalistik ekspertizalar kafedralarini o‘z ichiga oluvchi Kiberxavfsizlik va raqamli kriminalistika fakulteti** tashkil etildi [7].

Shu bilan birga ushbu qarorga ko‘ra, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida **“Raqamli texnologiyalar sohasida jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyati”** yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv jarayoni **huquqbuzarliklar profilaktikasi, tezkor-qidiruv va ekspert-kriminalistika faoliyatlariga** ixtisoslashgan holda dual ta‘lim tizimi asosida tashkil etilishi yo‘lga qo‘yildi [7].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi faoliyatini zamonaviy talablar asosida **tubdan takomillashtirish**, uni sifat jihatidan **yangi rivojlanish** bosqichiga ko‘tarish hamda **soha uchun yuqori malakali, professional kadrlar tayyorlashga** qaratilgan tizimli ishlarni izchil ravishda kuchaytirish va yanada rivojlantirish maqsadida **quyidagi takliflar** tavsiya etiladi:

#### **“Raqamli kriminalistika laboratoriyasini kengaytirish”**

Kiberjinoyatlar, raqamli dalillar, mobil qurilmalar va bulutli ma‘lumotlarni tahlil qilish bo‘yicha **maxsus laboratoriya tashkil etish** va uni **zamonaviy dasturiy-apparat vositalari** bilan jihozlash lozim bo‘ladi.

Bularga ilmiy asos bo‘lib, **jinoyatchilikning raqamlashuvi kriminalistika usullarining transformatsiyasini** talab qiladi.

Buning amaliy natijasi esa, raqamli dalillar bilan ishlashda milliy ekspert salohiyati oshib boradi.

#### **“Ilmiy-tadqiqot va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish”**

Tergov organlari va ekspert markazlari bilan **qo‘shma ilmiy-amaliy loyihalarni** yo‘lga qo‘yish, **“case-study”** va real jinoyat ishlari asosida tahlil seminarlarini tashkil etish lozim bo‘ladi.

Bularga ilmiy asos bo‘lib, **amaliy tadqiqot bilimlarini** mustahkamlaydi va **innovatsion** yechimlar yaratadi.

Buning amaliy natijasi esa, **ilmiy ishlanmalarning amaliyotga joriy etilishi** tezlashadi.

**“Kriminalistika sohasida ilmiy maktabni shakllantirish”**

Doktorantura va mustaqil tadqiqotchilar uchun **grant dasturlarini kengaytirish, ilmiy jurnal va konferensiyalar** tashkil etish lozim bo‘ladi.

Bularga ilmiy asos bo‘lib, ilmiy maktablar sohaning **nazariy bazasini mustahkamlaydi** va **milliy konsepsiyani** shakllantiradi.

Buning amaliy natijasi esa, kriminalistika bo‘yicha **milliy ilmiy yondashuv** va **innovatsion ishlanmalar** rivojlanadi.

Mazkur takliflarni amalga oshirish Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida **ekspert-kriminalistika yo‘nalishini innovatsion, raqamli va xalqaro standartlarga mos ta‘lim tizimiga** aylantirish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida **jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish, dalillarning ishonchligini ta‘minlash va adolatli sudlov prinsiplarini** mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, kriminalistika sohasida kadrlar tayyorlash tizimining **shakllanishi** va **rivojlanishi** huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati samaradorligini ta‘minlashda **hal qiluvchi omillardan biri** hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida mazkur yo‘nalishda izchil institutsional va normativ-huquqiy asos yaratilgan bo‘lib, u bosqichma-bosqich takomillashtirib borilmoqda.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimida **ekspert-kriminalistika faoliyatini modernizatsiya qilish, zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish va raqamli texnologiyalarni joriy etish** jarayonlari kadrlar tayyorlash mazmuni va shaklini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Bu jarayonda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kriminalistika sohasida kadrlar tayyorlashning **markaziy ta‘lim** va **ilmiy muassasasi** sifatida muhim o‘rin tutadi. Akademiyada o‘quv dasturlarining zamonaviy talablar asosida yangilanishi, amaliy mashg‘ulotlarning ortib borishi, ilmiy tadqiqot faoliyatining kuchaytirilishi hamda xalqaro tajribaning joriy etilishi **sohada raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash** imkonini bermoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kriminalistika sohasida kadrlar tayyorlash tizimi rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan: **dastlabki tashkiliy-huquqiy asoslarni**

**shakllantirish bosqichidan, zamonaviy innovatsion ta'lim modelini joriy etishgacha** bo'lgan jarayon izchillik bilan amalga oshirilgan. Shuningdek, **raqamli kriminalistika, kiberjinoyatchilikka qarshi kurash, moliyaviy tahlil va biometrik identifikatsiya** kabi yangi yo'nalishlarda **kadrlar salohiyatini yanada oshirish** zarurati saqlanib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, **Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida kriminalistika sohasida kadrlar tayyorlash tizimi** davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga mos ravishda shakllangan va zamonaviy talablar asosida rivojlanib bormoqda. Kelgusida ta'lim jarayoniga **sun'iy intellekt elementlarini keng joriy etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini amaliyot bilan integratsiyalash** hamda **xalqaro hamkorlikni kuchaytirish** mazkur tizim samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining kiberxavfsizlik va raqamli kriminalistika fakulteti, kriminalistik ekspertizalar kafedrasining arxiv hujjatlari.
2. O'zbekiston Respublikasi IIVning 163-son buyrug'i.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 29-avgustdagi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". (eski tahrirdagi).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 29-avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. (eski tahrirdagi).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2898-son qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi "Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-122-son qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2025-yil 22-yanvardagi "Raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish sohasi uchun professional kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 17-son qarori.

**REZYUME**

Ushbu maqolada Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining ekspert-kriminalistika faoliyati yoʻnalishida kadrlar tayyorlash tizimining shakllanish tarixi, uning huquqiy-tashkiliy asoslari va rivojlanish bosqichlari hamda soha uchun professional kadrlar tayyorlashga qaratilgan tizimli ishlarni yanada rivojlantirish borasida takliflar ilgari surilgan.

\*\*\*\*\*

В настоящей статье рассматриваются история становления, правовые и организационные основы, а также этапы развития системы подготовки кадров для экспертно-криминалистической деятельности в Академии Министерства внутренних дел. Кроме того, выдвигаются предложения по дальнейшему совершенствованию системной работы, направленной на подготовку профессиональных кадров для данной сферы.

\*\*\*\*\*

This article presents the history of the formation of the personnel training system in the field of expert-forensic activities of the Academy of the Ministry of Internal Affairs, its legal and organizational foundations and stages of development, as well as proposals for the further development of systematic work aimed at training professional personnel for the field.

**Абдуқодир АБДИБОСИТОВ,**  
*Малака ошириш институти Юридик фанлар кафедраси ўқитувчиси*

**ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИ КУШАНДАСИ**  
*(ғиёҳвандлик моддалари медиа маконда интернет орқали тарқатилиши ҳаётга, яшашига зид эмасми?!)*

Ахборот технологиялари жадал ривожланаётган ҳозирги жамиятда, уни фаол тарғиб қилувчи интернет инсон ҳаётининг деярли барча соҳаларига чуқур кириб борди. У ахборот алмашиш, савдо, таълим ва мулоқот имкониятларини кенгайтиргани билан бирга айрим салбий ижтимоий ҳодисаларнинг ҳам янги шаклларда намоён бўлишига шароит яратмоқда. Хусусан, глобал тармоқ имкониятларидан фойдаланиб ноқонуний фаолият турларини амалга ошириш ҳолатлари ортиб бормоқда. Интернет муҳитида анонимлик, тезкор алоқа ва рақамли тўлов тизимларининг мавжудлиги айрим жиноий фаолиятларнинг кенгайишига таъсир кўрсатиб, жиноятчилик анъанавий усуллардан фарқ қилувчи янги механизмлар орқали амалга оширила бошланди. Шу боис ҳам муҳтарам Президент Шавкат Мирзиёев: *“Кўряписизлар, шиддат билан ўзгараётган дунёда ғиёҳвандлик хавфи аҳоли генофонди учун энг катта таҳдидга айланиб бормоқда. Афсуски, бугунги глобаллашув даврида бундай хавф-хатар Ўзбекистонни ҳам четлаб ўтмаяпти”*<sup>1</sup>, – деб қайд қилди.

Илгари наркотик моддалар савдоси асосан шахсий алоқа, яширин учрашувлар ва муайян жиноий гуруҳлар ўртасидаги бевосита муносабатлар орқали амалга оширилган бўлса, бугунги кунда рақамли муҳит ушбу фаолиятни мутлақо янги босқичга олиб чиқди. Интернет тармоғи глобал ахборот макони сифатида наркотик моддалар савдосини ташкил этиш, мувофиқлаштириш ва назорат қилиш имкониятларини анча кенгайтди. Демак, давлатимиз раҳбари: *“Наркотик савдолари трансчегаравий ва виртуал характерга эга бўлиб бормоқда. Бу эса жиноятларни аниқлашда янги усулларни қўллашни, замонавий билим ва кўникмаларни пухта эгаллашни талаб қилмоқда”*.

<sup>1</sup> Халқ сўзи. 2025 йил 27 декабрь.

Яқинда ушбу масала бўйича Миллий дастур қабул қилдик. Энди наркожиноятларга қарши курашишни умуммиллий ҳаракатга айлантириб, жамиятда бу иллатга мурасасиз муҳит яратамиз<sup>2</sup>. Бу инновацион ғоя ҳар қандай салбий ҳолатларга зарба бериладиган бўлди.

С.Л. Новопавловскаянинг фикрича, интернетнинг кенг тарқалиши ва ундан фойдаланишнинг соддалиги ноқонуний фаолият субъектлари учун қулай шарт-шароитларни яратиб берди. Унинг таъкидлашича, интернет муҳотида назорат механизмларининг нисбатан чекланганлиги, фойдаланувчиларнинг анонимлиги ҳамда ахборот алмашинувининг тезкорлиги наркотик моддаларнинг ноқонуний айланмасини ташкил этишни осонлаштирмоқда<sup>3</sup>. Бу ҳолат наркотик савдосининг анъанавий моделидан рақамли моделга ўтиш жараёнини тезлаштирди. Натижада жинойий фаолиятнинг кўплаб босқичлари интернет орқали амалга оширила бошлади.

Т.О. Чистановнинг илмий қарашларига кўра, ахборот-телекоммуникация технологияларининг ривожланиши наркотик моддалар ноқонуний айланмасининг географияси ва ташкилий тузилмасини ҳам ўзгартирди. Интернет орқали алоқа қилиш имконияти жинойий гуруҳларга турли ҳудудларда, ҳатто турли давлатларда фаолият юритиш имконини бермоқда. Бу эса наркотик савдосининг трансмиллий хусусиятга эга бўлишига сабаб бўлмоқда<sup>4</sup>. Илгари муайян ҳудуд доирасида амалга оширилган жинойий фаолият бугунги кунда глобал тармоқ имкониятлари туфайли халқаро даражага чиқиб бормоқда.

А.П. Суходолов ва А.М. Бычковаларнинг тадқиқотларида ҳам рақамли технологиялар наркотик жиноятчиликнинг шаклланишида муҳим омил сифатида баҳоланади. Муаллифларнинг таъкидлашича, интернет муҳити наркотик моддалар айланмасида “контактсиз савдо” деб аталувчи янги моделнинг пайдо бўлишига олиб келди. Бу моделда сотувчи ва харидор ўртасида бевосита алоқа бўлмайди, барча жараёнлар рақамли

<sup>2</sup> Ўша газета.

<sup>3</sup> Новопавловская Софья Леонидовна. Использование сети Интернет для нелегального оборота наркотических средств, психотропных веществ и их аналогов // Правовая информатика. 2014.

<sup>4</sup> Чистанов Т. О. Незаконный сбыт наркотических средств с использованием телекоммуникационных сетей и устройств // МНИЖ. 2016. №11-1 (53).

алоқа воситалари орқали амалга оширилади<sup>5</sup>. Шу тариқа наркотик савдосининг анъанавий кўринишлари рақамли коммуникация воситалари билан алмаштирилди.

Рақамли технологиялар наркотик моддалар ноқонуний айланмасининг ташкилий хусусиятларини ҳам ўзгартирди. Интернет муҳити жинойий фаолиятни масофадан туриб бошқариш, маълумотларни шифрлаш, электрон тўлов тизимларидан фойдаланиш ва турли платформалар орқали фаолият юритиш имкониятини бермоқда. Бу эса жинойий фаолиятнинг мураккаб ва кўп босқичли тизимга айланишига олиб келмоқда. Рақамли алоқа воситалари жинойий гуруҳлар ўртасидаги муносабатларни тезкор ва хавфсиз тарзда амалга оширишга хизмат қилмоқда.

Шунингдек, интернет технологиялари наркотик жиноятчилик иштирокчиларининг ижтимоий портретини ҳам маълум даражада ўзгартирди. Илгари бу соҳада асосан жинойий муҳит билан боғлиқ шахслар иштирок этган бўлса, ҳозирги шароитда ахборот технологияларини яхши биладиган ёшлар ҳам ушбу фаолиятга жалб қилинаётгани кузатилмоқда. Рақамли муҳитда фаолият юритиш учун махсус техник билимлар талаб этилиши эса жинойий фаолиятнинг янги турдаги иштирокчиларини шакллантирмоқда.

Интернетнинг яна бир муҳим хусусияти – ахборот тарқалишининг юқори тезлиги ҳисобланади. Бу ҳолат наркотик моддалар ҳақидаги маълумотларнинг кенг аудиторияга тез тарқалишига сабаб бўлиши мумкин. Шу билан бирга, рақамли муҳит турли жинойий гуруҳлар ўртасидаги ахборот алмашинувини ҳам анча осонлаштирмоқда. Бу эса наркотик моддалар ноқонуний айланмасининг ташкилий ва функционал жиҳатдан мураккаблашишига олиб келади.

Интернет тармоғи орқали наркотик моддалар тарқатилиши муайян механизмлар ва усуллар орқали амалга оширилади. Ушбу жараён одатда бир нечта босқичдан иборат бўлиб, уларнинг ҳар бири рақамли технологиялар имкониятларидан фойдаланиш орқали ташкил этилади. Замонавий шароитда наркотик моддаларни тарқатиш фақатгина бир усул

---

<sup>5</sup> Суходолов Александр Петрович, Бычкова Анна Михайловна. Цифровые технологии и наркопреступность: проблемы противодействия использованию мессенджера “Телеграм” в распространении наркотиков // Всероссийский криминологический журнал. 2019. №1.

билан эмас, балки бир-бири билан боғлиқ бўлган бир нечта усуллар орқали амалга оширилади. Бу эса мазкур жинойий фаолиятнинг анча мураккаб ва тизимли характер касб этишини кўрсатади.

С.Л. Новопавловскаянинг илмий қарашларига кўра, интернет орқали наркотик моддалар тарқатилишининг энг кенг тарқалган механизмларидан бири интернет-дўконлар ва махсус веб-сайтлар орқали савдо қилиш ҳисобланади. Муаллифнинг таъкидлашича, жиноятчилар махсус веб-саҳифалар ёки интернет-платформалар яратиб, улар орқали наркотик моддаларни турли номлар остида таклиф қиладилар. Баъзан ушбу маҳсулотлар қонун билан тақиқланмаган воситалар сифатида кўрсатилади. Масалан, айрим ҳолларда синтетик наркотик моддалар “ванна тузи”, “ўсимликлар учун ўғит” ёки бошқа турдаги маҳсулотлар сифатида тақдим этилади<sup>6</sup>. Бундай усул наркотик моддаларни яширин тарзда сотишга хизмат қилади.

Интернет орқали тарқатишнинг яна бир механизми ижтимоий тармоқлар ва онлайн платформалардан фойдаланиш ҳисобланади. Бу усулда жиноятчилар турли аккаунтлар ёки гуруҳлар орқали маҳсулот ҳақида маълумотлар тарқатади ва харидорлар билан алоқа ўрнатади. Айрим ҳолларда махсус реклама постлари, белгилар ёки кодланган хабарлар орқали маҳсулот ҳақида маълумот тарқатилади. Бу эса ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар учун ушбу фаолиятни аниқлашни қийинлаштиради.

Т.О. Чистановнинг фикрича, интернет орқали наркотик моддалар тарқатилишининг энг муҳим механизмларидан бири мессенжерлар ва мобил иловалар орқали алоқа қилиш ҳисобланади. Муаллиф таъкидлаганидек, Telegram, WhatsApp, Viber каби алоқа платформалари орқали жиноятчилар харидорлар билан бевосита мулоқот қилиб, буюртмаларни қабул қилиш ва уларни мувофиқлаштириш имкониятига эга бўладилар<sup>7</sup>. Мессенжерлар орқали юбориладиган хабарлар, файллар ёки координаталар наркотик моддаларни етказиш жараёнини ташкил этишда муҳим роль ўйнайди.

<sup>6</sup> Новопавловская Софья Леонидовна. Использование сети Интернет для нелегального оборота наркотических средств, психотропных веществ и их аналогов // Правовая информатика. 2014.

<sup>7</sup> Чистанов Т. О. Незаконный сбыт наркотических средств с использованием телекоммуникационных сетей и устройств // МНИЖ. 2016. №11-1 (53).

Интернет орқали тарқатишнинг яна бир муҳим усули электрон тўлов тизимларидан фойдаланиш ҳисобланади. Т.О. Чистановнинг таъкидлашича, жинойтчилар турли электрон ҳамёнлар, онлайн тўлов хизматлари ва бошқа рақамли молиявий инструментлар орқали маблағларни қабул қиладилар<sup>8</sup>. Бу эса пул ҳаракатини яширишга ва жинойий фаолиятни молиявий жихатдан таъминлашга хизмат қилади. Электрон тўлов тизимлари орқали амалга оширилган операцияларни аниқлаш баъзан анча мураккаб бўлади.

А.П. Суходолов ва А.М. Бычкованинг тадқиқотларига кўра, интернет орқали наркотик моддалар тарқатилишининг кенг тарқалган усулларидан бири махсус мессенжер каналлари ва чат-ботлар орқали савдони ташкил этиш ҳисобланади. Муаллифлар қайд этишича, айрим мессенжер платформаларида наркотик моддалар билан боғлиқ маълумотларни тарқатувчи кўплаб каналлар фаолият юритади. Уларда маҳсулот турлари, нархлар ва бошқа маълумотлар жойлаштирилади<sup>9</sup>. Бундай каналлар орқали харидорлар билан алоқа ўрнатиш анча осонлашади.

Шунингдек, интернет орқали тарқатишда автоматлаштирилган дастурлардан ҳам фойдаланилади. Масалан, чат-ботлар орқали харидор маҳсулот турини танлаши, унинг нархини билиши ва буюртма бериш жараёнини амалга ошириши мумкин. А.П. Суходолов ва А.М. Бычкованинг таъкидлашича, бундай ботлар фойдаланувчиларнинг сўровларига автоматик жавоб бериб, наркотик моддаларни сотиш жараёнини соддалаштиради<sup>10</sup>. Бу усул жинойий фаолиятнинг маълум даражада автоматлаштирилишини кўрсатади.

Интернет орқали тарқатиш механизмларидан яна бири электрон почта, форумлар ва махсус онлайн майдонлар орқали ахборот алмашинуви ҳисобланади. Бундай платформаларда жинойтчилар маҳсулот ҳақида маълумотлар жойлаштириш, харидорлар билан алоқа қилиш ёки савдо

<sup>8</sup> Чистанов Т. О. Незаконный сбыт наркотических средств с использованием телекоммуникационных сетей и устройств // МНИЖ. 2016. №11-1 (53).

<sup>9</sup> Суходолов Александр Петрович, Бычкова Анна Михайловна. Цифровые технологии и наркопреступность: проблемы противодействия использованию мессенджера "Телеграм" в распространении наркотиков // Всероссийский криминологический журнал. 2019.

<sup>10</sup> Суходолов Александр Петрович, Бычкова Анна Михайловна. Цифровые технологии и наркопреступность: проблемы противодействия использованию мессенджера "Телеграм" в распространении наркотиков // Всероссийский криминологический журнал. 2019. №1.

шартларини муҳокама қилиш имкониятига эга бўладилар. Бу эса наркотик моддалар савдосини масофадан туриб амалга ошириш имконини беради.

Интернет орқали наркотик моддалар савдоси замонавий жиноятчиликнинг мураккаб ва кўп босқичли ташкилий тизимига айланиб бормоқда. Рақамли технологиялардан фойдаланиш жинойий фаолиятни нафақат масофадан туриб амалга ошириш, балки уни аниқ иерархик тарзда ташкил этиш имконини ҳам бермоқда. Илмий тадқиқотларда қайд этилишича, интернет орқали амалга оширилаётган наркотик савдосида турли вазифаларни бажарадиган иштирокчилардан иборат муайян тузилма шаклланади.

А.П. Суходолов ва А.М. Бычкованинг илмий тадқиқотларига кўра, интернет орқали наркотик савдосини амалга ошираётган жинойий тузилмалар одатда бир нечта даражадаги иштирокчилардан иборат бўлади. Уларнинг фикрича, бундай жинойий фаолиятни ташкил этишда асосий ролни жинойий тармоқнинг юқори босқичида турган ташкилотчилар бажаради<sup>11</sup>. Ушбу шахслар жинойий фаолиятнинг умумий стратегиясини белгилаш, молиявий ресурсларни тақсимлаш ва бутун тизимни мувофиқлаштириш вазифасини амалга оширадилар. Ташкилотчилар кўпинча бевосита наркотик моддалар билан ишламайди, балки фақатгина бутун жинойий тармоқ фаолиятини бошқариш билан шуғулланади.

С.Л. Новопавловскаянинг таъкидлашича, интернет орқали наркотик савдосида жинойий тузилмаларнинг ўрта бўғинини ташкил этувчи иштирокчилар ҳам муҳим роль ўйнайди. Муаллифнинг фикрича, ушбу гуруҳга кирувчи шахслар асосан жинойий фаолиятни амалий жиҳатдан ташкил этиш билан шуғулланадилар. Улар интернет платформаларидаги савдони мувофиқлаштириш, иштирокчилар ўртасидаги алоқани таъминлаш ва жинойий тармоқнинг турли бўғинлари ўртасидаги муносабатларни назорат қилиш вазифасини бажарадилар<sup>12</sup>. Бундай иштирокчилар кўпинча ташкилотчилар ва ижрочилар ўртасидаги боғловчи бўғин вазифасини бажаради.

<sup>11</sup> Суходолов Александр Петрович, Бычкова Анна Михайловна. Цифровые технологии и наркопреступность: проблемы противодействия использованию мессенджера "Телеграм" в распространении наркотиков // Всероссийский криминологический журнал. 2019. №1.

<sup>12</sup> Новопавловская Софья Леонидовна. Использование сети Интернет для нелегального оборота наркотических средств, психотропных веществ и их аналогов // Правовая информатика. 2014.

Т.О. Чистановнинг илмий қарашларига кўра, интернет орқали амалга ошириладиган наркотик савдосида техник билимларга эга бўлган мутахассислар ҳам алоҳида ўрин тутади. Унинг фикрича, замонавий рақамли муҳитда жинойий фаолиятни самарали ташкил этиш учун ахборот технологияларини яхши билладиган шахслар зарур ҳисобланади<sup>13</sup>. Бундай иштирокчилар турли рақамли платформалардан фойдаланиш, маълумотларни шифрлаш, электрон ҳисоб-китобларни ташкил этиш ва жинойий тармоқнинг ахборот хавфсизлигини таъминлаш билан шуғулланадилар. Айрим ҳолларда улар махсус дастурлар яратиш ёки жинойий фаолиятни автоматлаштиришга қаратилган техник ечимларни ишлаб чиқиш билан ҳам шуғулланиши мумкин.

А.П. Суходолов ва А.М. Бычкованинг тадқиқотларида қайд этилишича, интернет орқали наркотик савдосида иштирок этувчи жинойий тармоқда ижрочи иштирокчилар ҳам мавжуд бўлади. Муаллифлар таъкидлашича, ушбу шахслар жинойий фаолиятнинг амалдаги босқичларини бажарадиган асосий иштирокчилар ҳисобланади. Улар жинойий тармоқ томонидан белгиланган вазифаларни бажариб, муайян операцияларни амалга оширадилар<sup>14</sup>.

Ижрочилар одатда жинойий тузилманинг пастки босқичини ташкил этади ва кўп ҳолларда бутун жинойий тармоқнинг тўлиқ тузилиши ҳақида маълумотга эга бўлмайди. С.Л. Новопавловскаянинг фикрича, интернет орқали наркотик савдосида иштирокчиларнинг иерархик тарзда ташкил этилиши жинойий фаолиятнинг барқарорлиги ва хавфсизлигини таъминлашга хизмат қилади. Муаллифнинг таъкидлашича, жинойий тармоқнинг ҳар бир иштирокчиси фақат ўз вазифасига доир маълумотга эга бўлади<sup>15</sup>. Бу эса жинойий тузилманинг бошқа бўғинлари ҳақидаги маълумотларни чеклаш орқали ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан бутун тизимни фoш этишни қийинлаштиради.

<sup>13</sup> Чистанов Т. О. Незаконный сбыт наркотических средств с использованием телекоммуникационных сетей и устройств // МНИЖ. 2016. №11-1 (53).

<sup>14</sup> Суходолов Александр Петрович, Бычкова Анна Михайловна. Цифровые технологии и наркопреступность: проблемы противодействия использованию мессенджера “Телеграм” в распространении наркотиков // Всероссийский криминологический журнал. 2019. №1.

<sup>15</sup> Новопавловская Софья Леонидовна. Использование сети Интернет для нелегального оборота наркотических средств, психотропных веществ и их аналогов // Правовая информатика. 2014.

Т.О. Чистановнинг таъкидлашича, интернет орқали наркотик савдосида жиноий тузилмаларнинг яна бир хусусияти уларнинг тармоқ шаклида ташкил этилишидир. Унинг фикрича, бундай тузилмалар анъанавий жиноий гуруҳларга нисбатан анча мослашувчан бўлиб, иштирокчилар ўртасидаги алоқалар рақамли воситалар орқали амалга оширилади<sup>16</sup>. Бу ҳолат жиноий тармоқнинг турли ҳудудларда фаолият юритиш имкониятини ҳам кенгайтиради.

Демак, интернет орқали наркотик савдоси муайян иерархик ва функционал тузилмага эга бўлган жиноий тармоқлар орқали амалга оширилади. Бундай тузилмаларда ташкилотчилар, мувофиқлаштирувчилар, техник мутахассислар ва ижрочилар каби турли иштирокчилар фаолият юритади. Уларнинг вазифалари ўзаро боғлиқ бўлса-да, ҳар бири алоҳида функцияни бажаради. Бу эса интернет орқали амалга ошириладиган наркотик савдосининг ташкилий жиҳатдан мураккаб ва тизимли характер касб этаётганини кўрсатади.

Интернет муҳитида наркотик моддалар тарқатилишига қарши курашиш амалда бир вақтнинг ўзида ҳуқуқий ва ташкилий муаммоларга дуч келади. Ҳуқуқий муаммоларнинг марказида, аввало, рақамли макондаги ҳаракатларни аниқ ҳуқуқий квалификация қилиш, далилларни тўғри мустаҳкамлаш ва процессуал талабларга мувофиқ тарзда қонуний исботлаш масаласи туради. Виртуал муҳитда жиноий фаолият кўпинча бир неча юрисдикция билан боғланиб кетади. Жумладан, сервер бошқа давлатда, иштирокчи бошқа ҳудудда, оқибат эса учинчи жойда намоён бўлади. Бу эса ваколат, терговга тегишлилик ва халқаро ҳуқуқий ёрдам механизмларини қўллашда қийинчиликларни кучайтиради. Шу билан бирга, шахсий ҳаёт дахлсизлиги, алоқа сирини ҳимоя қилиш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш ўртасидаги мувозанатни топиш ҳам доимий баҳсли нуқта бўлиб қолмоқда.

Ташкилий муаммолар эса асосан, тез ўзгарадиган рақамли муҳитга давлат институтларининг мослашиш суръати билан боғлиқ. Жиноий контентни аниқлаш, унинг тарқалишини чеклаш ва манбани локализация қилиш доимий мониторинг, юқори малакали мутахассислар ва замонавий техник воситаларни талаб қилади. Амалда эса кибертергов кўникмалари,

---

<sup>16</sup> Чистанов Т. О. Незаконный сбыт наркотических средств с использованием телекоммуникационных сетей и устройств // МНИЖ. 2016. №11-1 (53).

рақамли криминалистика имкониятлари, маълумотлар билан ишлаш маданияти ва идоралараро мувофиқлашув ҳар доим ҳам бир хил даражада эмас. Айрим ҳолларда ведомстволар ўртасида маълумот алмашинуви секинлиги ёки стандартларнинг турлича талқин қилиниши самарадорликка салбий таъсир кўрсатади. Муҳтарам Шавкат Миромонович Мирзиёев ўз қатъий фикрини билдирдилар: *“Наркожиноятларга қарши курашиш бўйича республика ишчи гуруҳи давлат идораларининг бор куч ва имкониятларини ишга солиб, келгуси йилда наркотикларни ишлаб чиқариш ва тарқатиш каналларига чек қўйиш бўйича янги тизим яратсин.*

*Бундан ташқари хайрия ташкилотларини тузиш тартиби соддалаштирилади, ҳисобдорлик ва шаффофлик механизмлари такомиллаштирилади<sup>17</sup>.*

Ўзбекистонда фуқароларимиз, тадбиркорларимиз ва инвесторларни ҳар қандай вазиятда ҳам ишончли ҳимоя қиладиган давлат бор, Конституция бор, қонунлар бор!

Сўнгги икки йилда аёллар ва болаларга нисбатан оилавий зўравонлик ҳолатлари бўйича 2 мингдан зиёд жиноят аниқланган.

Ҳеч қачон унутмайлик, оилавий зўравонлик – бу фақат оиланинг ички иши эмас, бу – бутун жамиятга тегишли масала. Аёлни ўз муаммоси билан ёлғиз ташлаб қўйишга ҳеч кимнинг ҳаққи йўқ!

Шунинг учун муқобил ечим сифатида фақат жазо чораларига суяниш етарли эмас, профилактика, рақамли саводхонлик, хавfli контентга нисбатан тезкор реакция, молиявий операциялар шаффофлиги ва технологик компаниялар билан ҳамкорлик бир тизимга келтирилмаса, натижа чекланган бўлади.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, интернет маконида наркотик моддалар тарқатилишига қарши курашиш узлуксиз янгиланадиган ҳуқуқий ёндашув, кучли институционал салоҳият ва мувофиқлашган амалий механизмларни талаб қилувчи комплекс вазифадир.

<sup>17</sup> Халқ сўзи. 2025 йил 27 декабрь.

## РЕЗЮМЕ

Мақолада интернет ва рақамли технологиялар таъсирида наркотик моддалар ноқонуний айланмасининг замонавий кўринишлари танқидий таҳлил қилинди. Онлайн муҳитда тарқатиш механизмлари, иштирокчилар иерархияси ҳамда ҳуқуқий-ташкилий қарши кураш муаммолари очиб берилиб, рақамли маконда профилактика ва назоратни кучайтириш зарурати асосланди.

\*\*\*\*\*

В статье анализируются современные формы незаконного оборота наркотических средств под влиянием интернета и цифровых технологий. Раскрываются механизмы распространения наркотиков в онлайн-среде, иерархия участников преступной деятельности, а также правовые и организационные проблемы противодействия, обосновывается необходимость усиления профилактики и контроля в цифровом пространстве.

\*\*\*\*\*

The article analyzes modern forms of illegal drug trafficking influenced by the development of the Internet and digital technologies. It examines mechanisms of drug distribution in the online environment, the hierarchy of participants involved in criminal activities, and the legal and organizational challenges of counteraction, emphasizing the need to strengthen prevention and control in the digital space.

**Umidjon XAMRAKULOV,**  
*IIV TQD Kiberxavfsizlik markazi boshlig‘ining o‘rinbosari,*  
**Otabek BOYNAZAROV,**  
*Malaka oshirish instituti Axborot texnologiyalari sikli o‘qituvchisi*

**KIBERTAHDIDLARNING OLDINI OLISHGA  
QARATILGAN KIBERRAZVEDKA AMALIYOTI VA AYRIM  
USTUVOR YO‘NALISHLARI**

Hozirgi kunda butun dunyoda raqamlashtirish jarayonlari juda tez sur‘atlarda rivojlanmoqda. Shuningdek kibermakonning kengayishi bilan u o‘zida tobora katta hajmdagi ma‘lumotlar bazalarini shakllantirib bormoqda. Bunday raqamli aktivlar qiymati oshgani sari ularga noqonuniy tarzda “daxl” qilishga urinuvchilar soni ham ortadi va bu holat shaxs, jamiyat hamda davlat manfaatlariga bevosita tahdid tug‘diradi. Kiberjinoyatchilik kuchaygani sayin axborot tizimlari ishida uzilishlar, shuningdek ma‘lumotlarning ochiqligi (confidentiality), yaxlitligi (integrity) va mavjudligi/foydalanish imkoniyati (availability) buzilishiga olib keladigan holatlar ham ko‘payadi. Masalan, 2025-yilga doir tahlillarda ko‘plab buzilishlarda o‘g‘irlangan hisob ma‘lumotlari (credential) muhim omil bo‘layotgani, zaifliklardan foydalanish (vulnerability exploitation) ham “kirish nuqtasi” sifatida oshib borayotgani qayd etiladi[1].

Natijada ko‘plab sohalardagi xizmatlar va ma‘lumotlar “real muhit”dan **kibermakonga** ko‘chib, foydalanuvchilarga masofadan turib, istalgan vaqt va joyda xizmatlardan foydalanish imkonini bermoqda. 2025-yil baholariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha **internetdan foydalanayotganlar soni qariyb 6 milliardga** yetib, bu umumiy aholi sonining deyarli uchdan ikki qismi–uchdan to‘rt qismiga teng ko‘rsatkichdir[2].

Kiberxavfsizlik kibermakonda yuzaga keladigan turli tahdid va salbiy holatlardan shaxs, jamiyat hamda davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Kiberxavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun esa, avvalo, mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlar hamda xavf-xatarlar haqida yetarli va ishonchli axborotga ega bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa,

kiberhodisalarni sodir bo‘lishidan oldin aniqlash, ularning oldini olish va tezkor to‘xtatish jarayonlarida kiberrazvedkaning o‘rni juda katta.

Kiberrazvedka axborot aktivlariga qaratilgan joriy yoki shakllanib borayotgan tahdid va xavf-xatarlar (jumladan, ruxsatsiz kirish, resurslardan noqonuniy foydalanish, maxfiy ma‘lumotlarning oshkor bo‘lishi, aktivlarga ruxsatsiz o‘zgartirish kiritish kabi holatlar) haqida tasdiqlangan ma‘lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va tizimlashtirish bilan shug‘ullanuvchi amaliyotdir. Ushbu jarayonda tahdidlarning qo‘llaniladigan usullari, texnologiyalari, muhim ko‘rsatkichlari, ta‘sir darajasi hamda keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan zararli oqibatlari bo‘yicha aniq ma‘lumotlar to‘planadi. Natijada shakllangan kiberrazvedka ma‘lumotlari kiberjinoyatchilarning xatti-harakatlari va maqsadlarini chuqurroq anglashga, ularning avvalgi hujumlari haqida xabardor bo‘lishga hamda kelajakda yuz berishi mumkin bo‘lgan hujumlarni oldindan prognoz qilish bo‘yicha zarur bilim va tahliliy asosni taqdim etadi.

Kiberrazvedkasi amaliyotini olib borilishi - kiberjinoyatlar va ularning motivlari, niyatlari va usullari to‘g‘risidagi bilimlar taqdim etish orqali barcha darajadagi xavfsizlikka mas‘ul xodimlarga muhim aktivlarini himoya qilishga yordam beradigan ma‘lumotlarni to‘plashni, tahlil qilishni sinalgan usuli hisoblanadi. Ta‘riflardan ham tushunarli bo‘lganidek, kiberrazvedka kiberjinoyatchilar, ularning vositalari, infratuzilmasi va usullari haqida ma‘lumotlar yig‘ish jarayonidir[3].

Mutaxassis uchun eng ko‘p uchraydigan kibertahdidlar haqida yetarli tasavvurga ega bo‘lish — hujumlarning qanday amalga oshirilishini, ularning ortidagi (foyda, siyosiy bosim, josuslik va h.k.)ni to‘g‘ri anglashga yordam beradi. Kibertahdidlarning turlari juda ko‘p bo‘lgani sababli, amaliyotda eng ko‘p kuzatiladiganlari bo‘yicha xalqaro kiberxavfsizlik tashkilotlari muntazam ravishda yillik “threat landscape” hisobotlarini e‘lon qilib boradi. Xususan, **ENISA**ning 2025-yilgi *Threat Landscape* hisobotida (2024-yil 1-iyuldan 2025-yil 30-iyungacha bo‘lgan davrda minglab hodisalar tahlili asosida) eng asosiy tahdidlar quyidagilardir[4].

- ✓ Mavjudlikka qarshi tahdidlar Ransomware
- ✓ Ma‘lumotlarga qarshi tahdidlar
- ✓ Zararli dasturlar
- ✓ Ijtimoiy muhandislik

- ✓ Axborotni manipulyatsiya qilish va aralashuv
- ✓ Ta'minot zanjiri hujumlari
- ✓ **Phishing**
- ✓ **Business Email Compromise (BEC)**
- ✓ **Zaifliklardan foydalanish**
- ✓ **Veb-ilova hujumlari**
- ✓ **Infostealer**
- ✓ Avtomatlashtirilgan hujum infratuzilmalari
- ✓ **Insider threat**
- ✓ **Cloud misconfiguration** (bulut sozlamalari xatolari: ochiq bucketlar, noto'g'ri ruxsatlar)
- ✓ **APT / davlatga aloqador hujumlar** (josuslik, sabotaj, "hybrid" amaliyotlar)

Bunday tahdidlardan kelib chiqadigan xavflarni oldini olish yoki imkon qadar kamaytirish uchun tahdidlarni aniqlash va ularga javob berishning kamida 7 ta amaliy usulini tushunib, tahlil qilish muhim.

(1)Tarmoq monitoringi va anomaliyani aniqlash (IDS/NIDS, NetFlow, trafikdagi g'ayrioddiyliklar)

(2)Endpoint aniqlash va javob berish (EDR/XDR) (kompyuter/serverlarda shubhali jarayonlar va fayllar)

(3)Loglarni markazlashgan tahlil qilish (SIEM) (hodisalarni korrelyatsiya qilish, ogohlantirish)


(4)Tahdid razvedkasi (Threat Intelligence / CTI) (IOC/TTP bo'yicha ogohlantirish va profilaktika)

(5)Zaifliklarni boshqarish va patch management (skan, ustuvorlik, yangilash)

(6)Incident Response rejasi: izolatsiya → bartaraf etish → tiklash (containment, eradication, recovery)

(7)Xavfsizlik auditlari va pentest/red teaming (zaif joylarni amaliy sinovdan o'tkazish).

Darvoqe: Kibertahdidlarni qayta ishlash metodologiyasini to'g'ri anglash uchun, avvalo, tahdidning qanday amalga oshirilishi va uni bajarish jarayonidagi algoritmik ketma-ketlikni aniq tasavvur qilish zarur. Shu maqsadda, kibertahdidning "zanjirli" harakatlari quyidagi sxema asosida izohlanadi va tushuntiriladi.



*1-rasm. "Tahdid zanjiri" algoritmining sikli.*

“Tahdid zanjiri” algoritmining ketma-ket bosqichlari asosida kiberjinoyatchilar o‘z kibertahdid harakatlarini rejalashtirib va amalga oshiradi. Kiberrazvedka amaliyoti esa ushbu harakatlarning proaktiv jarayonlardagi siklini o‘rganish orqali kibertahdidlardan himoyalalanish hamda samarali mudofaa strategiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kiberrazvedkani samarali tashkil etishda quyidagi asosiy xususiyatlarni e‘tiborga olish zarur:

✓ O‘z vaqtida qo‘llash: tahdid razvedkasida vaqt hal qiluvchi omil bo‘lib, razvedkani kechiktirmasdan olib borish ko‘proq va aniq dalillarni to‘plashga yordam beradi.


✓ Muvofiqlik: tahdid tahlili aniq belgilangan muhit va sharoitga mos bo‘lishi, ya’ni tegishli vaziyat uchun mos choralar qo‘llanishi lozim.

✓ Aniqlik: hujumlarga nisbatan oqilona va samarali qaror qabul qilish uchun razvedka ma’lumotlari to‘g‘ri, to‘liq va aniq bo‘lishi shart.

✓ Tugallanganlik: yetarlicha batafsil va yakunlangan razvedka himoya tomoniga eng mos qarshi choralarni tanlash imkonini beradi.

✓ Harakatchanlik: aniqlangan tahdidga javob berishda zarur choralarni tezkor ravishda amaliyotga joriy etish talab etiladi.

Shu xususiyatlarni inobatga olgan holda, “Tahdid zanjiri” algoritmi ketma-ketligida amalga oshiriladigan kiberhujumlarga qarshi **“Tahdid ovi”** kiberrazvedka modelini quyidagi ko‘rinishda ishlab chiqish mumkin.



2-rasm. “Tahdid zanjiri” algoritmi bo‘yicha kiberrazvedka amaliyoti uchun “Tahdid ovi” modelining sikli

“Tahdid ovi” modeli kiberrazvedkaning aynan birinchi bosqichida bajarilishi zarur bo‘lgan jarayonlarni ifodalaydi. Taklif etilayotgan yondashuvga ko‘ra, kiberrazvedkani amalga oshirish jarayoni “Tahdid zanjiri” algoritmining proaktiv bosqichida kuzatilishi mumkin bo‘lgan potensial harakatlar va ularning xususiyatlarini tahlil qilishga tayangan holda olib boriladi.

**Model tarkiban ikki asosiy yo‘nalishni qamrab oladi:**

1.Obyektni himoyalash	2. Kiberjinoyatchini aniqlash
<p>“Obyektni himoyalash” bo‘limidagi ishlar, avvalo, obyekt haqida ma’lumot to‘plashdan boshlanadi. Bu jarayon obyektning aktiv qiymati, turi va asosiy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi hamda himoyalash darajasini belgilash uchun zarur asos yaratadi. Dastlabki ma’lumotlar shakllangach, obyektning zaif tomonlari (zaifliklari) aniqlanadi, shuningdek obyektga nisbatan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan potensial tahdidlar (ichki va tashqi omillar) belgilab olinadi. Keyingi bosqichda aniqlangan tahdidlar va zaifliklar tahlil qilinib, ularga mos qarshi usullar tanlanadi hamda tashkiliy va texnik himoya choralarini joriy etish rejalashtiriladi. Natijada obyekt xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha aniq</p>	<p>“Kiberjinoyatchini aniqlash” bo‘limida esa obyektning himoyalash yo‘nalishida yig‘ilgan ma’lumotlar tayanch asos sifatida qo‘llanadi. Dastlab obyektga qiziqish bildirishi mumkin bo‘lgan subyektlar doirasi tahlil qilinib, gumondorlar ro‘yxati shakllantiriladi. Shundan so‘ng tahdidli hujum usullari o‘rganilib, ushbu usullardan odatda qaysi turdagi buzg‘unchilar foydalanishi mumkinligi bo‘yicha toifalash amalga oshiriladi. Keyingi tahlil jarayonida buzg‘unchi haqida dastlabki ma’lumotlar, gumondorlar ro‘yxati, hujum uslublaridan foydalanadigan toifalar, hujum so‘rovlarining qaysi manzildan yuborilgani, shuningdek tahdidli fayl imzolarini tekshirish kabi ko‘rsatkichlar birlashtirilib, kriminalistik tahlil/tergov yondashuvi orqali kiberjinoyatchining ehtimoliy shaxsi aniqlanadi.</p>

chora-tadbirlar majmuasi shakllantirilib, amaliyotga tatbiq etiladi.	Yakunda to‘plangan barcha razvedka ma’lumotlari umumlashtirilib, amaliy faoliyatda foydalanish uchun mutaxassislariga taqdim etiladi.
<p>Yechim, “Tahdid ovi” modeli “Tahdid zanjiri” algoritmining proaktiv qismida ishlaydi. Agar mazkur bosqichda zarur darajada razvedka ma’lumotlari to‘planmasa, “Tahdid zanjiri”ning reaktiv jarayonlari uchun alohida kiberrazvedka usullarini qo‘llash zarurati yuzaga keladi.</p>	

Kiberjinoyatchilar tomonidan bajariladigan harakatlarning ketma-ketligi hisobga olinib, “*Tahdid zanjiri*” algoritmining bosqichlari ishlab chiqildi hamda mantiqiy ketma-ketligi asoslandi. Ushbu algoritmgga tayangan holda, boshlang‘ich kiberrazvedka amaliyotini samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida “*Tahdid ovi*” (*Threat Hunting*) modeli taklif etildi. Modelning vazifasi, tarkibiy bo‘limlari hamda ishlash prinsipi bosqichma-bosqich bayon etilib, uning proaktiv jarayondagi tahdidlarini oldindan aniqlash va mudofaa strategiyasini shakllantirishga xizmat qilishi asoslanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:**

1. Ensar Sekerning “Cyber Threat Intelligence Understanding Fundamentals”., NATO CCD COE - 2025.
2. Yevropa ittifoqi kibexavfsizlik agentigining “Threat Landscape Report” hisoboti. 2025.
3. D.Planque “Cyber Threat Intelligence - From Confusion to Clarity; An Investigation into Cyber Threat Intelligence”. 2017.
4. [https://www.enisa.europa.eu/publications/enisa-threat-landscape-2025?utm\\_source#contentList](https://www.enisa.europa.eu/publications/enisa-threat-landscape-2025?utm_source#contentList).

**REZYUME**

Raqamlashtirish va kibermakon kengayishi natijasida axborot aktivlari qiymati ortib, ularga ruxsatsiz kirish hamda ma’lumotlarning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini buzishga qaratilgan kibertahdidlar kuchaymoqda.

Ushbu maqolada kiberxavfsizlikni ta'minlashda kiberrazvedkaning erta aniqlash va baholashdagi o'rni yoritilib, amaliy aniqlash–javob berish yo'nalishlari tizimlashtirildi. Kiberjinoatchilar harakatlari "Tahdid zanjiri" ketma-ketlikda asoslanib, proaktiv bosqichda ishlovchi "Tahdid ovi" modeli taklif etildi. Model obyektни himoyalash va kiberjinoatchini aniqlashning ayrim yo'nalishlarini birlashtirib, tahdidlarni oldindan aniqlash hamda samarali mudofaa strategiyasini shakllantirishga xizmat qildi.

\*\*\*\*\*

В результате цифровизации и расширения киберпространства возрастает ценность информационных активов, усиливаются киберугрозы, направленные на несанкционированный доступ к ним и нарушение конфиденциальности, целостности и доступности информации. В данной работе подчеркивается роль киберразведки в раннем выявлении и оценке в обеспечении кибербезопасности, систематизированы направления практического выявления и реагирования. На основе последовательности действий киберпреступников "цепочка угроз" предложена модель "Охота на угрозу" функционирующая на проактивном этапе. Модель объединяет направления защиты объектов и выявления киберпреступников, служит для заблаговременного выявления угроз и формирования эффективной стратегии защиты.

\*\*\*\*\*

As a result of digitalization and the expansion of cyberspace, the value of information assets is increasing, and cyber threats aimed at unauthorized access to them and violation of the confidentiality, integrity, and availability of information are intensifying. In this work, the role of cyberintelligence in early detection and assessment in ensuring cybersecurity is highlighted, and the directions of practical detection and response are systematized. Based on the "threat chain" sequence of cybercriminals' actions, a "Threat Hunt" model, operating at the proactive stage, was proposed. The model combines the directions of object protection and identification of cybercriminals, serves to identify threats in advance and form an effective defense strategy.

**Xusan MUSLIMOV,**  
*Malaka oshirish instituti Jangovar tayyorgarlik sikli o‘qituvchisi, mayor*

## **ELEKTROSHOK QURILMALARINI QO‘LLASHNING BA‘ZI TAKTIK-HUQUQIY ASOSLARI**

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, xususan, inson huquqlarini himoya qilish masalalariga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Mazkur jarayon jamoat xavfsizligini ta‘minlash, jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash kabi vazifalarni samarali bajaruvchi ichki ishlar organlarida ham daxldorlikni namoyon etmoqda. Ichki ishlar organlari xodimlari o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun jangovar va jismoniy tayyorgarlik, xususan, jismoniy kuch ishlatish, maxsus va vositalarni va o‘qotar qurolni qo‘llash tajribasi muhim ahamiyat kasb etishda davom etmoqda.

Statistikaga yuzlanadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda 2024-yildan jinoyatlar soni 2023-yilga nisbatan 27,1 foizga, 2020-yilga nisbatan esa 2 barobardan ko‘proqqa oshganini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bundan xulosa qilish mumkinki, mavjud ijtimoiy vaziyat ichki ishlar organlari xodimlariga jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlashda yuqori darajadagi mas‘uliyatni keltirib chiqarmoqda. Mana shunday sharoitda xizmat zarurati ichki ishlar organlari xodimlariga maxsus vositalarni, xususan, elektroshok qurilmalarini qo‘llashni taqozo etmoqda.

Elektroshok qurilmalari – elektr impulslarni hosil qilish asosida inson organizmiga shikast yetkazish normalariga ega bo‘lgan, kontaktli va masofa-kontaktli elektr ta‘sir o‘tkazish qurilmalaridir<sup>1</sup>. Elektroshok qurilmalari maxsus vosita hisoblanib, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 23-moddasiga muvofiq, ichki ishlar organlari xodimlariga uni qo‘llash huquqi berilgan. Elektroshok qurilmasi faol mudofaa vositasi hisoblanib, ichki ishlar

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2021-yil 19-yanvardagi “Ichki ishlar organlarida elektroshok qurilmalari muomalasini tartibga solishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 29-son buyrug‘i.

organlari xodimlari tomonidan qonun hujjatlari bilan belgilangan holatlarda zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashga mo'ljallangan.

Rivojlangan davlatlarning huquqni muhofaza qilish tizimida elektroshok qurilmalariga huquqbuzarlarni zararsizlantirish, qo'lga olish jarayonini osonlashtirish va zo'rvonlikning oldini olish maqsadida qo'llaniladigan samarali vosita sifatida qaraladi. Ular tartibbuzar shaxslarning agressiv harakatlarini vaqtincha to'xtatish imkoniyatini yaratadi shu bilan birga, ularga jiddiy shikast yetkazmaydi. Shu sababli elektroshok qurilmalari jismoniy kuch ishlatish yoki o'qotar qurolni qo'llashga qaraganda ancha xavfsiz vosita hisoblanadi.

Ichki ishlar organi xodimi tomonidan elektroshok qurilmasini qo'llash ikki sohada, ya'ni kasbiy sohada hamda huquqiy sohada yuqori darajadagi malaka va savodxonlikni talab etadi. Ushbu keltirilgan ikki sohaga oid ilmlarning xodim tomonidan egallanmasligi javobgarlik masalasini yanada murakkablashuviga olib keladi. Ya'ni, agarda xodim elektroshok qurilmasini qo'llashning taktik jihatlarni puxta o'zlashtirgan bo'lsa-yu, uni qonuniy asosda va qonuniy tartibda qo'llashni bilmasa, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi. Boshqa tomondan ham xodim tomonidan elektroshok qurilmasini qo'llashning huquqiy jihatlari yaxshi anglansa-da, lekin qo'llanilishi lozim bo'lgan vaziyatda uni to'g'ri qo'llay olmasa, o'z zimmasiga yuklatilgan vazifani muvaffaqiyatli bajara olmagan hisoblanadi va xizmat tekshiruvi natijasi salbiy tus oladi.

O'zbekistonda Ichki ishlar vazirligi tarkibidagi tuzilmalar ham elektroshok qurilmalari bilan ta'minlangan<sup>2</sup>. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tarkibidagi tuzilmalar xodimlari "AT-928 (OSA-928)", "AIR

M-140", "Skorpion" rusumli elektroshok qurilmalari hamda "Skala" rusumli elektroqalqonini qo'llashlari mumkin. Albatta, ushbu elektroshok qurilmalari o'zining komplektatsiyasida ulardan qanday tarzda va qanday tartibda foydalanish bo'yicha qo'llanmalar mavjud. Elektroshok qurilmasidan

<sup>2</sup> Elektron resurs – Rejim kirish: <https://qalampir.uz/uz/news/elektroshokqurilmasi-va-elektrodubinkalar-ichki-ishlar-khodimlari-yangi-k-urol-dan-k-anday-vaziyatda-foydalanadi>.

foydalanish bo'yicha qo'llanma deganda, bu qurilmadan qanday qilib to'g'ri va xavfsiz foydalanishni tushuntirib beradigan hujjat yoki ko'rsatmalar to'plami tushuniladi. Mazkur qo'llanmalar mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilib, undagi tartibotlarga amal qilish elektrohok qurilmalaridan uzoq muddatda foydalanishga hamda jangovar qobiliyatini uzoq vaqt saqlab qolishga zamin yaratadi. Mazkur tartibotlar elektrohok qurilmalarini qo'llashga ko'p to'qnash keluvchi ichki ishlar organlari xodimlari uchun o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishi uchun g'oyatda muhimdir.

Fikrimizcha, hozirgi kunda ichki ishlar organlari ta'lim muassasalari o'quv jarayonida elektrohok qurilmasi bilan bog'liq nazariy hamda amaliy bilimlarini o'zida mujassam etgan darslar hamda mashg'ulotlar asosiy qoidalarni o'zida mujassam etgan. Biroq, elektrohok qurilmalarida foydalanish bo'yicha qo'llanma bilan solishtiriladigan bo'lsa, ayrim muhim tartibotlar talqin etishdan chetda qolmoqda. Foydalanish bo'yicha qo'llanmadagi mavjud tartibotlarni yaxlit o'zlashtirish ichki ishlar organi xodimining elektrohok qurilmasini qo'llash, saqlash, olib yurish kabi kasbiy professionallik darajasini sifat jihatdan yangi pog'onaga olib chiqishda katta ahamiyat kasb etadi. Ammo, elektrohok qurilmalarini ishlab chiqaruvchi tashkilot Rossiya federatsiyasini bo'lganligi bois, foydalanish bo'yicha qo'llanma faqat rus tilida berilgan va bu ayrim ichki ishlar organlari xodimlari uchun o'zlashtirishda ma'lum qiyinchiliklarni vujudga keltirmoqda.

Shuningdek, hozirgi kunda ichki ishlar organlari ta'lim muassasalari o'quv jarayonida ichki ishlar organlari tomonidan elektrohok qurilmasini qo'llashdagi asosiy e'tibor "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunning 23-moddasiga qaratilmoqda. 23-moddada ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan elektrohok qurilmasini qanday hollarda qo'llanilishi belgilangan. Lekin, 23-moddaning o'zigina ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan elektrohok qurilmasini qo'llash bo'yicha yaxlit ilmni taqdim eta olmaydi.

Huquqiy asoslar – ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir sohasida (turida) ijtimoiy muhim natijalarni ta'minlash uchun barqaror dinamik aloqada bo'lgan harakatlar tizimidir<sup>3</sup>. Shuningdek, huquqiy asoslar – qonun bilan belgilangan

<sup>3</sup> Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / Odilqoriyev X.T.; – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining "Adolat" nashriyoti, 2018-yil 201-bet.

yurish-turish qoidalaridir va ular qonun va qonunosti hujjat shaklida ifodalanadi<sup>4</sup>. Mamlakatimizda huquqni ifodalashning asosiy shakli – normativ-huquqiy hujjatlardir. **Normativ-huquqiy hujjatlar** davlat organlari tomonidan oʻrnatiladigan yoki maʼqullanadigan, majburiy yurish-turish va xulq-atvor mezonlarini belgilaydigan huquqiy hujjatlarning alohida turidir.

Normativ-huquqiy hujjat deganda, davlat vakolatli organlarining ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan umummajburiy tusdagi qoidalarni oʻrnatuvchi, oʻzgartiruvchi yoki bekor qiluvchi huquq ijodkorlik hujjati tushuniladi. Qonunda esa normativ-huquqiy hujjatga, qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat koʻrsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, oʻzgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir, deya ifodalangan.

Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar toʻgʻrisida”gi OʻRQ-682-son Qonunining 7-moddasida (Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi): “Normativ-huquqiy hujjatlar qonunchilik hujjatlari boʻlib, ular Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligini tashkil etadi.

“Normativ huquqiy hujjatlarning turlari quyidagilardan iborat:

- Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- Oʻzbekiston Respublikasi qonunlari;
- Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari<sup>5</sup>.

Ushbu iyerarxik tartibotdan kelib chiqqan holda ***ichki ishlar organlarida elektroshok qurilmasini qoʻllashning huquqiy asoslari quyidagicha tus oladi:***

- Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi;
- Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi

Kodeksi;

---

<sup>4</sup> Komilov L.Z. Ichki ishlar organlari oʻqotar qurolni qoʻllashning huquqiy asoslari: Xalqaro va milliy qonunchilik – Toshkent: IIV Malaka oshirish instituti “Axborotnoma”si, 2024 – 10-bet.

<sup>5</sup> Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar toʻgʻrisida”gi OʻRQ-682-son Qonuni. Xalq soʻzi. 2021-yil 21-aprel.

- O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-son Qonuni;
- Ichki ishlar vazirligining idoraviy normativ hujjatlari.

Mazkur keltirilgan huquqiy asoslar ichki ishlar organlarida elektroshok qurilmasini qo‘llash bo‘yicha aniq qoidalarni belgilaydi. Bu hujjatlar elektroshok qurilmasini qo‘llash holatlarining chegaralarini aniqlaydi, ya’ni qachon va qanday sharoitda elektroshok qurilmasini ishlatilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Elektroshok qurilmasini qo‘llash ichki ishlar organlari xodimlaridan professional tayyorgarlikni, shuningdek, qonun va axloqiy normalarga qat’iy rioya qilishni talab etmoqda. Xodimlar har bir vaziyatda elektroshok qurilmasini qo‘llashning zarurati va muvofiqligini aniqlashda qat’iy va tezkor qaror qabul qilishlari lozim. Shu bilan birga, elektroshok qurilmalarini kuch ishlatilmaydigan hamda jismoniy kuch ishlatish samarasiz bo‘lgan taqdirdagina qo‘llashlari tavsiya etiladi.

Huquqiy asoslarni tahlil qilsak, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’ulligi, O‘zbekistonda inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi, yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqligi va u qonun bilan muhofaza qilinishi, inson hayotiga suiqasd eng og‘ir jinoyatligi, insonning sha’ni va qadr-qimmatini daxlsizligi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emasligi, har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega ekanligi, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadiligi, davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlashi xususida aniq tartibotlar keltirilgan. Ichki ishlar organi xodimining xizmat faoliyati elektroshok qurilmasini qo‘llash huquqidan foydalanishni taqozo etsa, mazkur qoidalarni yodda tutmog‘i lozim bo‘ladi.

Zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat va ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida zarar yetkazish ichki ishlar organi xodimining xizmat faoliyatida nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tartibotlar hisoblanib,

ularni puxta va to'laqonli o'zlashtirish xodimning xizmat samaradorligiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, ichki ishlar organi xodimi zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat va ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida zarar yetkazish kabi holatlarda ham elektroshok qurilmasini qo'llashi mumkinligi haqida yaxlit tasavvur hosil qiladi.

Ichki ishlar organi xodimi elektroshok qurilmasini qo'llash bilan bog'liq holatlar qonuniy tus olishi uchun faqatgina 2016-yil 16-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasining **“Ichki ishlar organlari to'g'risida”**gi qonunida 23-modda bilan cheklanib qolmasdan 21-moddani ham puxta o'zlashtirish talab etiladi. Darhaqiqat, Qonunning 23-moddasi kabi 21-moddasida ham elektroshok qurilmasini qo'llash bo'yicha muhim tartibotlar yoritib berilgan: Jumladan 1-xatboshisida – elektroshok qurilmasini qo'llash faqat qonun nazarda tutilgan hollarda va tartibda bo'lishi, 2-xatboshisida – elektroshok qurilmasini qo'llashdan oldin maxsus tayyorgarlikdan va kasbiy yaroqliligini aniqlash bo'yicha davriy tekshiruvdan o'tgan bo'lishi lozimligi, 3-xatboshisida – kasbiy yaroqliligini aniqlash bo'yicha tekshiruvda o'ta olmagan xodimni attestatsiyadan o'tkazish masalasi, 4-xatboshisida – ichki ishlar organi xodimi tomonidan elektroshok qurilmasini qo'llashdan avval aniq ifodalangan ogohlantirish bildirilishi kerakligi, 5-xatboshisida – elektroshok qurilmasining qo'llanilishi yuzaga kelgan vaziyatga, shaxslar xatti-harakatining xususiyatiga va xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerakligi, 6-xatboshisida – ichki ishlar organi xodimi tomonidan elektroshok qurilmasi qo'llanilishi mumkin bo'lgan vaziyatlar vujudga kelishi mumkin, deb hisoblansa, elektroshok qurilmasini jangovar holatga keltirish huquqi, 7-xatboshisida – elektroshok qurilmasi qo'llanilganligi natijasida tan jarohati olgan fuqarolarga birinchi yordam ko'rsatilishi va imkon qadar qisqa vaqt ichida tibbiy yordam ko'rsatish choralari ko'rilishi hamda ularning yaqin qarindoshlari 24 soat ichida xabar topishi kerakligi, 8-xatboshisida – elektroshok qurilmasini qo'llagan xodim bu haqda bevosita boshlig'iga darhol axborot berishi shartligi, 9-xatboshisida – elektroshok qurilmasi qo'llanilgani natijasida jismoniy va yuridik shaxslarining hayotiga, sog'lig'iga va mol-mulkiga zarar yetkazilganida ichki ishlar organlari prokurorga darhol xabar berishi lozimligi, 10-xatboshisida – elektroshok qurilmasi qo'llanilishi natijasida xodim o'z vakolat doirasidan chetga chiqqan

bo'lsa javobgarlikka tortilishi, 11-xatboshisida – xodim tomonidan elektroshok qurilmasini qo'llash qonunda belgilangan asoslar bo'yicha va tartibda amalga oshirilgan bo'lsa, jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zarar uchun xodim javobgar bo'lmasligi hamda 12-xatboshisida – elektroshok qurilmasi qo'llanilganligi natijasida fuqaroga tan jarohati yetkazilsa yoxud u halok bo'lsa, ichki ishlar organi xodimi hodisa joyini o'zgarishsiz saqlash choralarini ko'rishi shartligi aks etgan.

Hozirgi paytda ichki ishlar organlari ta'lim muassasalaridagi axborot-resurs markazlarida elektroshok qurilmasini qo'llash bo'yicha adabiyotlar mavjud bo'lib, o'quv jarayonida foydalanilib kelinmoqda, **lekin, elektroshok qurilmasining taktik-texnik hamda huquqiy asoslari bir nuqtada jamlangan qilingan o'zbek tilidagi o'quv-qo'llanma mavjud emas.** Inson omilini hisobga olsak, ushbu adabiyotlarning birginasidan ham foydalanishning unutilishi baxtsiz hodisalarni vujudga keltirishi mumkin. Shu munosabat bilan, ichki ishlar organlari xodimlarining elektroshok qurilmasini qo'llash bo'yicha kasbiy-huquqiy bilimlarini takomillashtirishda "Ichki ishlar organlarida qo'llaniladigan elektroshok qurilmalari" nomli o'quv-qo'llanmani yaratish va o'quv jarayoniga tatbiq etish nihoyatda dolzarbdir. Elektroshok qurilmalarini qo'llash bo'yicha o'quv qo'llanmaning yaratilishi va undan o'quv jarayonida foydalanilishi ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan elektroshok qurilmasini qo'llashda yuqori samaradorlikni namoyin etadi.

Xulosa qilganda, Ichki ishlar organi xodimining elektroshok qurilmasini qo'llash masalasi g'oyatda mulohazabop va sinchiklab o'rganiladigan jarayon hisoblanib, maxsus ilmiy-huquqiy yondashuvni talab etadi. Umuman olganda, ichki ishlar organi xodimi tomonidan elektroshok qurilmasini qo'llashning taktik-texnik va huquqiy asoslari jamoat tartibini saqlash va jamoat xavsfizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Foydalanish qoidalariga va qonunlarga rioya etish, mansab vakolatini suiiste'mol qilinishiga yo'l qo'yimaslik bilan bir qatorda, xizmat faoliyatida qonuniylikni ta'minlashda o'zining ulkan hissasini qo'shadi.

**REZYUME**

Mazkur maqolada ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan elektroshok qurilmalarini qo'llashning taktik-texnik va huquqiy asoslari tahlil qilingan. Elektroshok qurilmasidan foydalanish bo'yicha qo'llanmalar va elektroshok qurilmasini qo'llashning huquqiy asoslari tahlil qilinib, ularni konvergensiya qilish bo'yicha tashabbuslar ishlab chiqilgan. Taktik-texnik va huquqiy asoslarnini o'zida mujassam etuvchi o'quv-qo'llanmaning ichki ishlar organlari faoliyatidagi ahamiyati muhokama qilingan.

\*\*\*\*\*

В данной статье проанализированы тактико-технические и правовые основы применения электрошоковых устройств сотрудниками органов внутренних дел. Изучены руководства по использованию электрошоковых устройств и нормативно-правовые акты, регулирующие их применение, а также разработаны инициативы по их конвергенции. Обсуждается значение учебного пособия, сочетающего в себе тактико-технические и правовые основы, в деятельности органов внутренних дел.

\*\*\*\*\*

This scientific article analyzes the tactical-technical and legal foundations of the use of electroshock devices by officers of internal affairs bodies. Manuals on the use of electroshock devices and the legal regulations governing their application are reviewed, and initiatives for their convergence are proposed. The significance of a training manual that integrates both tactical-technical and legal aspects in the activities of internal affairs bodies is discussed.

• *Қадрият: дил қатраси*

## ИСТИҲОЛА

*Сиз ёнингиздаги одам билан қандай гаплашасиз ва унинг муомаласидан қониқасизми ёки истиҳола қилиб, бефарқ бўлишингиз мумкинми?!*

Истиҳола шахснинг шундай ички ҳиссий тушунчасики, бу ҳақда баъзи фикрларимиз билан ўртоқлашсак, арзийди...

Яқин танишингга ёки оғайнингга бироз қарз бердинг – нима қилиш керак? Муҳлати келишилган, баъзан келишилмаган бўлади. Ўша қадрдонинг ўзидан билиб, қарзини берса-ку, майли-я, бироқ индамай юраверса, сен талаб қилишга истиҳола қиласан.

Баъзи ҳолларда шундай ҳам бўлади. Қарзни олишга, ҳозир бориб сўрайман, дейсан, чунки сенга пул жуда керак, бироқ учрашганинда, тилинг бормайди сўрашга, истиҳола кучлилик қилади.

Одатда, одамлар ўртасидаги самимий муносабатлар қанчалик бежирим, жозибали ва фойда олиб келадиган даражада бўлса – кишининг кайфиятини кўтаради, ўзингни енгил тортасан.

Ташкилот, корхона ёки махсус бўлимга янги раҳбар, бошлиқ келиб фаолиятини самимий муомала-муносабатдан бошласа, ҳеч қачон ютқазмайди. Қурс ва илмоқли сўзлар билан мурожаат қилувчини ўзидан бездираверса, ўзига бора-бора душман орттиради. Бундай ҳолатнинг кўп марталаб гувоҳи бўлганман...

Боя айтганимдек, самимий муомала қилиб, раҳбар баъзан асабийлашиб мурожаат қилувчига қаттиқ гапириб юборса ҳам, у истиҳола қилгани учун кечириб юборади. Ўзини раҳбарга нисбатан душманлик, ёмонлик кайфиятида сезмайди. Одиллик тантана қилади.

Самимият, самимиятли бўлиш, одамийлик, тантилик назаримда, истиҳола элементларини ривожлантириб боради. Менимча, истиҳолани андиша билан қориштириб юбормаслик керак. Андиша ҳар бир шахсда қандай кечади, бу унинг виждонига, иймоннинг эътиқодига ҳавола. Бироқ,

истиҳола ҳар биримизнинг кўз кипригимиздай дилимизни, фикр мантиғимизни фақат яхшиликка бошловчи мезон сифатида бошқариб турувчи ўта муҳим ички туйғу-ҳолатдир.

Самимий ва истиҳолали одам доимо ўзи билан файз-барака олиб юради, фақат яхшилик, истиқбол уруғини сочаверади. Бундай одамни кўрсанг, сенинг ҳам баҳри-дилинг очилади, қандайдир эркин ва жўшиб кетасан. Уни қўллаб-қувватлайверасан.

Яқинда яқин бир танишим катта анжуман ўтказди. Биз ҳаммамиз унинг орқасидан эргашиб, барча топшириқларини аъло даражада бажаришга киришиб кетдик. Бирор жойда камчилик содир бўлмасин дея, парвона бўлдик.

– *Анжуманга файз киряпти, яхши ўтади. Файзли одамсиз,* – дедим самимий оҳангда.

– *Сизларнинг ёрдамларингиз билан фақат,* – жавоб қайтарди танишим.

Унинг ҳар бир сўзи самимий ва ҳар қандай эътирозга ўрин йўқ эди.

Анжуман-ку ўтди. Танишим хурсанд бўлдими, йўқми, сўрашга жазм қилмадим. Чунки истиҳола кучлилик қилди.

Бари бир унинг очиқ чехраси, ниҳоятда самимий кайфиятидан анжуманнинг яхши ўтганлигини англаб олиш мумкин эди.

Дарҳақиқат, инсоннинг ўзлиги ва унинг тафаккур тушунчасида истиҳола категорияси қандай кечади. Аслини олганда, бу тушунча уялишми, андишами ёки кўрқоқлик, ачиниш, борингки, иззат-икром талаб қилишми?

Бизнингча, истиҳола ўзига хос категория, деб ўйлаймиз. Боиси, истиҳола заминида на бирор манфаат, на бирор фойда, на бирор зарар кўриш мумкин эмас. Фақат наф келади. Унинг ўзига хослиги, шахсинг маънавий етуклиги, баркамол юксаклиги билан узвий боғлиқдир.

Боя айтиб ўтилган яқин танишимнинг анжуман ўтказишдаги ўта зукколиги, эҳтиёткорлик ила анжуман қатнашчиларига муносабатда бўлиши – унинг ниҳоятда юксак салоҳиятли инсоний фазилатларини

кўрсатиб турибди. Бақир-чақир, дўқ-пўписа қилиб, арзимаган жойдан жанжал чиқариб, одамлар кайфиятини бузмади.

Анжуман ўз маромида, ниҳоятда уюшган ҳолда ўтди. Демак, истиҳола феълимизга, ўзбекона одатимизга мос бўлган жараён – буни фақат тушунган одамгина билади. Мен бошқа миллат ва элатларга бу борада эътироз билдирмайман. Уларда ҳам истиҳола-андиша борлигига тўлиқ ишонаман.

Дарвоқе, бу категория негизида одамийлик, деган инсон ҳазратларининг олий қадриятлари ётиши ва ҳамиша унинг бир зум ҳам ажралмас маънавий йўлдоши бўлиб қолишини истардим. Бу эса бугунги Янги Ўзбекистоннинг халқона, таъбир жоиз бўлса ўзбекона ҳис-хаёжон, яъни халқимизнинг қиёфаси, бошқа элатларга ибрат-намуна булоғидир.

*Ички ишлар ходимларига нисбатан бошлиқ ва ижрочи ходим муносабатида нозик туйғу – истиҳола жуда керак, менимча.*

Бошлиқ буйруқ беради, ходим ижро этади. Шу ерда одамийлик самимияти, истиҳола қалбдан жой олган бўлса: бошлиқ ходимни бир эмас, ярим қарашидан тушунади – топшириқ аъло даражада бажарилади!

Шахсий таркиб ижро интизоми куйи элементдан бошланишини яхши билган командир-бошлиқ бўлғуси фаолиятида қоқилмайди, аксинча, таянч нуқтага эга бўлади.

Истиҳола парда орқасидаги қудратли маънавий куч бўлиб қолсин!

**Яшин ХЎЖАЕВ,**  
профессор



**МУНДАРИЖА**

**Бош муҳаррир минбари** ..... 3

**ДОЛЗАРЪ МАВЗУЛАР**

**Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат МИРЗИЁЕВнинг  
Халқаро хотин-қизлар кунига бағишланган тантанали  
маросимдаги нутқи** ..... 4

**Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката  
МИРЗИЁЕВА на торжественной церемонии, посвященной  
Международному женскому дню** ..... 10

**Abdijabbor ABJALOV. Korruptsiyaga qarshi kurash siyosatining ayrim  
ustuvor yoʻnalishlari xususida** ..... 17

**Gulsanam ROʻZIYEVA. Korruptsiya va manfaatlar toʻqnashuvi –  
maʼnaviyatga tahdid demak**.....27

**Шокир АЛБЕКОВ. Коррупция в спорте: причины, последствия  
и меры противодействия** ..... 36

**Saparbay ALLAMBERGENOV. Korruptsiyaning oldini olishda kasb  
madaniyati va xizmat intizomining oʻrni**..... 42

**ИЛМИЙ МАҚОЛАЛАР**

**Sardor SAKIYEV. Ichki ishlar xodimlarini kasbiy xalqchil etib  
tarbiyalashda pedagogik imkoniyatlar hamda ayrim takliflar**.....46

**Zafarbek BOBOQULOV. Chin yurti politsiya tizimida xizmat intizomini  
taʼminlashning ayrim jihatlari va ahamiyati** ..... 57

**Ражаббой МАШАРИПОВ. Ички ишлар ходимларида “Соғлом  
турмуш” тарзини шакллантиришнинг аҳамияти ва ўрни** ..... 68

**Islom AHMEDOV. Malakali kadrlar tayyorlashning shakllanishi va  
rivojlanishi tarixiga doir** ..... 73

**Muhammadrasul UMMATOV. Dalillarning maqbulligini taʼminlashda baʼzi  
tergov harakatining ahamiyati**..... 78

**ИЛМИЙ АХБОРОТЛАР**

**Bahodir AHMEDOV. Kriminalistika sohasida kadrlar tayyorlash  
tizimining shakllanishi va rivojlanishi xususida**..... 88

**Абдуқодир АБДИБОСИТОВ. Жамият тараққиёти кушандаси  
(*гиёҳвандлик моддалари медиа маконда интернет орқали тарқатилиши  
ҳаётга, яшашига зид эмасми?!*)** ..... 95

**Umidjon XAMRAKULOV., Otabek BOYNAZAROV. Kibertahdidlarni  
oldini olishga qaratilgan kiberrazvedka amaliyoti va ayrim ustuvor yoʻnalishlari**...105

**Xusan MUSLIMOV. Elektroshok qurilmalarini qoʻllashning baʼzi  
taktik-huquqiy asoslari** ..... 112

**Яшин ХҲЖАЕВ. Истиҳола** ..... 120

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИИВ  
МАЛАКА ОШИРИШ ИНСТИТУТИ

## АХБОРОТНОМАСИ

Илмий-амалий, маънавий-маърифий  
ва сиёсий-ҳуқуқий журнал

№ 1 (16) 2026

---

Босишга рухсат этилди: 3.04. 2026. Буюртма № 181  
Қоғоз бичими 60x84<sup>1/32</sup>. Шартли б. т.-7,8.  
Адади 100 нусхада чоп этилди.  
100213, Тошкент шаҳар, Бектемир тумани,  
Ҳ.Бойқаро кўчаси, 27 а уй.